7 – TOM 12 – SON / 2024 - YIL / 15 – DEKABR

UL MALOHAT GANJI HAJRIDA BUZUG' MASKAN MANGA...

Sayliyeva Zarina Raxmiddinovna,
Buxoro davlat universiteti,
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi, (PhD)

Annotatsiya: Maqolada buyuk so'z san' atkori Alisher Navoiyning " Xazoyin ul - maoniy " asarining ilk qismi - " G'aroyib us - sig'ar " devoni tarkibiga kiruvchi " Ul malohat ganji hajrida buzug' maskan manga " matla' li g'azali tahlili keltirilgan.

Kalit so'zlar : "Xazoyin ul – maoniy " , Alisher Navoiy, badiiy san' at, hajr, yor, lirik qahramon, g'am tuni, jon qushi, istiora.

Hazrat Alisher Navoiyning har bir mavzuda bitgan ijod mahsulining mavzu ko'lami keng va ibratlidir. Uning ijtimoiy, siyosiy, axloqiy, pand-nasihat, tasavvufiy, ishqiy mavzularda yozilgan qator g'azal, ruboiy, qit'alari mavjud. Biz tahlilga tortgan ushbu " Manga " radifli g'azali ham ishqiy mavzuda, oshiqona ruhdagi g'azal namunasidir. G'azal matni :

Ul malohat ganji hajrida buzug' maskan manga,
Uyladurkim, jondin ayru yuz yaralig' tan manga.
Mehr ila mah partavidin ko'zni ravshan qilmadim,
Bo'lg'ali mehri ruhung mohiyyati ravshan manga.
Bo'ldi ravzan- ravzan ul qotil xadangidin ko'ngul,
Jon qushi chiqmoqqa bir yo'l angla har ravzan manga.
Men o'larmen g'amdin- u, yig'lab kuyub boshimda sham,
Dudidin chirmab qora har tun tutar shevan manga.
Rahm etib holimg'a dushman do'st bo'lmoq, vah ne sud,
Do'st chun rahm aylamay bo'lmishturur dushman manga.
G'am tuni zulmida xandon bo'lmadi holimg'a subh,
Subhdek ne tongki, bo'lg'ay chok pirohan manga.
Ey Navoiy, ishq mushkil deb nechuk tarkin tutay,
Elga gar bu ish hunar bo'lsa, bo'luptur fan manga.
("G'aroyib us - sig'ar" 13 - g'azal)

G'azal an'anaviy yetti baytdan iborat bo'lib, aruzning ramali musammani mahzuf vaznida yozilgan. Taqte'si quyidagicha :

-- V -- -- / -- V -- -- / -- V -- -- / -- V --
-- V -- -- / -- V -- -- / -- V -- -- / -- V --

Afoyli :
foilotun/ foilotun/ foilotun/ foilun
foilotun/ foilotun/ foilotun/ foilun

G'azalning asosiy ma'nosini izohlab kelgan so'zlar, shubhasiz, qofiyadosh so'zlardir. Har bir baytda uchrovchi maskan, tan, ravshan, ravzan, shevan, dushman, pirohan, fan kabi so'zlar shular jumlasidandir. G'azalda " manga " so'zi radif vazifasini bajargan.

G'azal ishqiy mavzuda bitilgan bo'lib, oshiqona ruhda yozilgan. Matla'da ma'shuqa to'g'ridan to'g'ri " ul malohat " deb tilga olinadi. Baytda oshiqning ko'ngli ma' shuqaning hajri, ayrilig'i sabab, g'amgin, shikasta ekanligi hamda bu g'amginlik yuz yaralik tani jonidan ayirgudek ekanligi aytiladi. Ya'niki, oshiq ma'shuqaning ayrilig'i, hajri sabab xastalangan va bu xastalik uni jonidan ayirar darajada ekanligi qayd etilgan. Bunda lirik qahramon " buzug' maskan " istiorasi orqali g'amgin, shikasta ko'ngilni nazarda tutgan. Baytning nasriy bayoni quyidagicha :

[Uning hajrida menga bu maskan qayg'ulidir,
Menga yuz yaralik tan jondan ayridek.]

Lug'at :

Buzug' - 1. Vayrona, xaroba, chaldivor.
2. Maj. qayg'uli, g'amgin (ko'ngil), shikasta, siniq

Keyingi ikkinchi baytda ham oshiqning holi tasviri davom ettiriladi. Yor, oshiq aytadiki, mening ko'zim oy yorug'idan emas, balki ruhingning mohiyati bilan ravshan bo'ldi. Ya'ni, oshiq ko'zining ravshan bo'lishi, ma'shuqa ruining ayonlashganidan, bu oyning yorug'ligidan emasdir. Baytning nasriy bayoni :

[Mehr va oy yorug'ligidan ko'zni ravshan qilmadim,
Menga ruhing mohiyati ayon bo'ladi]

Lug'at :

Partav - yorug'lik asari, nur, shul'a, porloqlik
Mah - oy
Mohiyat - a. haqiqat, har narsaning asli, tubi- negizi

Uchinchi baytda ma'shuqa ishqidan oshiqning ko'ngli parcha-parcha bo'lgani, joni chiqishi uchun Unga bir yo'l anglanishi, ko'rsatilishi haqida so'z boradi. Lirik qahramon ushbu baytda ma'shuqani qotil, xadang- o'qni esa ayriliq sifatida talqin qiladi. Shu ma'noda sharhlansa, ma' no budir :

Ma'shuqaning (ul qotilning) ayrilig'idan (nayza, o'qidan) ko'nglim parcha - parcha bo'ldi, endi har tuynukdan jonim chiqishi uchun bir yo'l ko'rsat, deyiladi. " Jon qushi " istiorasi orqali ruh, jon nazarda tutilgan. Nasriy bayoni:

[U qotilning nayzasidan ko'nglim mayda - mayda bo'ldi,
Har tuynukdan menga jon qushim chiqmoqqa bir yo'l angla]

Lug'at :

Ravzan - ravzan - mayda - mayda, parcha -parcha, teshik- teshik
Xadang- o'q, nayza
Ravzan - tuynuk, teshik, darcha

Keyingi baytda oshiqning g'amdan o'lishi aytiladi. Uning o'limidan song esa sham boshida kuyib yig'lab, uning(shaming) dudi (tutuni) chirmab har tunda Nola chekadi

deyiladi. Bunda oshiqning ma'shuqa hajrida o'lish darajasiga kelishi yokida nola chekishi, azoblanishi holati shamning yonishi va yonish natijasida ayni tugar chog'ida qora dud chiqarishiga qiyos qilinadi va bu hol har qora tunda oshiqning nolasidek edi. Bu yerda sham oshiq va undan chiqadigan dudlar oshiqning ma'shuqa hajrida chekkan nolalari, g'amginliklaridir. Nasriy bayoni :

[Men g'amdan o'larman, sham boshimda kuyib yig'laydi,
Shamning dudi chirmab, har tun menga nola tutadi .]

Lug'at :

Shevan - zor, nola

Mening bu holimga rahm qilib, achinib, dushmanning yana qayta do'st bo'lishidan nima foyda, agar do'stim rahm qilmay, menga dushman bo'lsa, deydi. Ya'ni bunda oshiqning bu holiga dushmani rahm qilsa-yu, do'sti rahm qilmasa, unda dushmanning do'stga aylanib, do'stning dushmanga aylanishidan foyda nima? deydi lirik qahramon. (5 - bayt) Nasriy bayoni :

[Dushman mening bu holimga rahm qilib, do'st tutinishidan ne foyda,
Do'st bo'lib menga- ahvolimga rahma wilmagan, dushmandir .]

Lug'at :

Sud - foyda, bahra, naf

Subh(tong) mening bu g'amli kunimda shod bo'lmadi, kulmadi ya'niki, qaro kunlarida tong, hayot uning kulmadi, balki xuddi go'zallik tongidek menga (oshiqqa) ko'ylak chokidek bo'ladi deyiladi. Yanada aniq aytsak, g'amli kunimda tong shod bo'lmadi, aksincha, tong go'zal, chehra porloqligidek bo'lsa ham, ko'nglimni xuddi ko'ylak chokidek yaraladi deyiladi. Bunda qalbning yaralanishi chok pirohan bilan keltirilgan, g'am tuni zulmi orqali esa yana o'sha ma'shuqa hajri sabab, g'amgin va azobga duchor bo'lishlik nazarda tutilgan va ifodalangan. Nasriy bayon:

[G'am tuni zulmida tong xursand bo'lmadi,
Go'zallikdek ne tongki, menga ko'ylak choki bo'ldi.]

Lug'at :

Xandon - kuladigan, kuluvchi, shod, xursand

Pirohan - f. ko'ylak

Chok - 1. Yara, dard, jarohat.

2. Yaralangan, jarohatlangan, oshiq bo'lgan, maftun bo'lgan

Maqta'da lirik qahramon ishqni mushkul deb nega uni tashlay, tark etay, agar bu ish ya'ni ishq yo'liga kirish el l uchun mahorat ya'ni sinov bo'lsa, men uchun san'tdir, deydi. Ya'ni oshiq uchun ishq va uning azobiga bardoshli bo'lish taqdiri ekanligini nazarda tutsa, ajab emas. Ishqning bor qiyinchiliklariga chidash, bu mushkul ekan deb ishqni tark etmaslik va bu tark etish, ishqning sinovlariga toqat qilmaslik oddly kishi (El) uchun shunchaki sinov bo'lishi mumkindir, lekin ishq yo'liga kirib, uning bor azobi, mushkulotlariga chidash lirik qahramon uchun taqdir peshona, maqsad ekanligini ta'kidlash bilan yakunlanadi. Nasriy bayoni :

[Ey Navoiy, ishqni mushkul ekan deb, nega tark etay?
Agar bu el uchun ma'qul ish bo'lsa, bu men uchun maqsaddir.]

Lug'at :

Hunar - 1. Ish, yaxshi ish, hammaga ma'qul ish
2. Mahorat, mohirlik

Fan - 1. Hunar, I'm, san'at
2. Hiyla, nayrang
3. Maqsad

Alisher Navoiy qay mavzuda yozmasin, ijodining har sathida ko'p va xo'b yozadi. Jumladan, tahlil qilgan g'azalimizda ham ishq, oshiq, ma'shuqa holatlarini shu darajada mohirlik bilan tasvirlaydiki, o'qiguvchi- kitobxon tahlil jarayonida qo'llanilgan so'zlar, tasvirlar, badiiy san'atlar orqali esthetic zavq oladi. Alisher Navoiy " Manga " radifli g'azalida ham badiiy san'atlarning saralarini o'z o'rnida mahorat bilan qo'llaydi. Shu jumladan, ushbu g'azalda tashbeh, istiora san'atidan foydalangan. Bundan tashqari, so'z qo'llashda takrorlarga murojaat qilmay, balki ma'lum so'zlarni sinonimlari, o'xshatishlari bilan ifodalaydi. Masalan, g'amdan ezilgan ko'ngilni bir o'rinda, buzug' maskan desa, boshqa o'rinda chok pirohan deydi va bu kabi hodisalarni yana ko'plab uchratishimiz mumkin. Bu esa Hazrat Alisher Navoiy ijodini o'rganish, va unjng ijodiy olamiga sho'ng'ish har zamonda ahamiyatli ekanligining bir namunasidir. Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, Alisher Navoiyning ijodi, butun ilmiy merosi necha asrlarkim o'z ahamiyati, o'qishliligini yo'qotgan emas, asrlar osha, hech qanday zavol bilmay yetib kelayotgan asarlar namunasidir. Alisher Navoiyning ijodiy olami chegara bilmas ummon kabidir, ummon tubiga qancha yaqinlashsang, shu qadar boylikka, javohirga ega bo'lasan kishi. Zero, Alisher Navoiy ijodi Sharq adabiyotining boy adabiy an'analari zaminida maydonga kelib, keyingi davr adabiyoti rivojiga samarali ta'sir ko'rsatib, turli sohalarda o'z ahamiyatini aks ettirishda davom etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Фозилов Е. Алишер Навоий асарлари луғати. –Тошкент: «Нисо Полиграф» , 2013.Б – 1007.
2. Turaeva, L. O. (2021). Artistic and compositional features of harvest songs. *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH*, *10*(4), 629-634.
3. Тўраева, Л. О. (2024). ЎЗБЕК ДЕҲҚОНЧИЛИГИДА ТАҚВИМ РАМЗЛАРИ. *IMRAS*, *7*(1), 779-783.
4. Тўраева, Л. О. (2023). ЎЗБЕК ХАЛҚ ОҒЗАКИ ИЖОДИДА ДЕҲҚОН ОЛҚИШЛАРИНИНГ ЎЗИГА ХОС ИФОДАСИ. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, *2*(24), 22-25.

5. Тўраева, Л. О. (2023). ДЕҲҚОНЧИЛИК ҚЎШИҚЛАРИ ЖАНРИНИ БЕЛГИЛАШДА КАСБИЙ АТАМАЛАРНИНГ ЎРНИ. *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH*, *2*(22), 66-70.

6. Тўраева, Л. О. (2022, June). Мақолларда деҳқонлар ҳаётининг бадиий талқини. In *E Conference Zone* (pp. 71-73).

7. To'rayeva, L. (2021). ЎЗБЕК ЗИРОАТШИЛИГИДА МОШГА МУНОСАБАТНИНГ ФОЛЬКЛОРДАГИ БАДИИЙ ТАЛҚИНЛАРИ ХУСУСИДА. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, *7*(7).

8. Omonovna T. L. Artistic understanding of peasant life in proverbs //Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences. – 2022. – Т. 9. – S. 47-49.

9. TORAYEVA, L. (2023). ЎРИМ ҚЎШИҚЛАРИНИНГ ОБРАЗЛАР ТАРКИБИ ВА БАДИИЙ-КОМПОЗИЦИОН ХУСУСИЯТЛАРИ. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, *42*(42).

10. Omonovna, T. R. L. (2024). A Hymn of Divine Ideas in the Wisdoms of Yassavi. *International Journal of Formal Education*, *3*(4), 34-39.

11. Omonovna, T. L. (2024). A PECULIAR EXPRESSION OF PEASANT APPLAUSE IN FOLKLORE. *THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY*, *2*(20), 199-204.

12. To‘rayeva, L. (2024). O’ZBEK XALQ O’YINLARIDA “BOBODEHQON” KULTIGA OID QARASHLAR TALQINI. *THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY*, *2*(20), 234-241.

13. To‘rayeva, L. (2024, May). Jek Londonning “Hayotga muhabbat” hikoyasida hayotsevarlik g ‘oyalari. In *CONFERENCE ON THE ROLE AND IMPORTANCE OF SCIENCE IN THE MODERN WORLD* (Vol. 1, No. 4, pp. 250-259).

14. Tursunovna S. D. BUXOROLIK ZULLISONAYN SHOIRA //THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY. – 2024. – Т. 2. – №. 20. – С. 170-176.

15. Sodiqova D. Muslihabegim ijodida hadislarga murojaat //CONFERENCE ON THE ROLE AND IMPORTANCE OF SCIENCE IN THE MODERN WORLD. – 2024. – Т. 1. – №. 4. – С. 240-249.

16. Baxtiyorovna N. N. et al. JAMOL KAMOLNING “JAMILA” DOSTONIDA IJODKORNING BADIIY MAHORATI //Journal of new century innovations. – 2024. – Т. 53. – №. 2. – С. 81-85.

17. Norova N. Principal Directions of Studying the Problem of Style in Literature (on the Example of U. Kochkor's Lyrics) //JournalNX. – С. 913-915.

18. Norova N., Nigina M. OMON MATJON SHE’RLARIDA QUSHLAR TIMSOLI //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 13. – №. 3. – С. 27-30.

19. Nasiba N. UDC: 821.512. 133 TRADITION AND INNOVATION IN USMON KUCHKOR'S POEMS //SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY. – C. 100.

20. Norova N. B. Creative abilities of the artist in the application of the art (on the example of the lyrics of osman kochkar) //Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – Т. 4. – №. 5. – С. 214-221.

21. Norova N. Artistic skills in Usmon Kuchkor poetry //центр научных публикаций (buxdu. Uz). – 2022. – Т. 15. – №. 15.

22. Bakhtiyorovna N. N. CREATIVE ABILITIES OF THE ARTIST IN THE APPLICATION OF THE ART (ON THE EXAMPLE OF THE LYRICS OF OSMAN KOCHKAR).

23. Gaybulloevna D. S., Bakhtiyorovna N. N. PSYCHOLOGIST IN ULUGBEK HAMDAM'S NOVEL" FATHER.

24. Norova N. УСМОН ҚЎЧҚОР УСМОН ҚЎЧҚОРНИНГ “ЛАЗИЗЖОН МАРСИЯСИ” ШЕЪРИ ХУСУСИДА: УСМОН ҚЎЧҚОРНИНГ “ЛАЗИЗЖОН МАРСИЯСИ” ШЕЪРИ ХУСУСИДА //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 16. – №. 16.

25. Norova N. ҲОЗИРГИ ШЕЪРИЯТДАГИ ПОЭТИК ЯНГИЛАНИШЛАР ҲАҚИДА //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 16. – №. 16.

26. Norova N. Usmon Qo ‘chqor lirikasidagi obrazlar turkumi //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.

27. Baxtiyorovna N. N. USMON QOCHQOR LIRIKASIDA MUHABBAT MAVZUSINING TALQINI: DOI: 10.53885/edinres. 2021.71. 75.119 Norova Nasiba Baxtiyorovna, BuxDU Ozbek tili va adabiyoti kafedrasi tayanch doktoranti (Ozbekiston) //Научно-практическая конференция. – 2021.

28. Норова Н. Б. УСМОН ҚЎЧҚОР ШЕЪРИЯТИДА ТАБИАТ ТАСВИРИ ТАЛҚИНИ: Норова Насиба Бахтиёровна, Бух ДУ ўзбек адабиёти кафедраси ўқитувчиси,(PhD) //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2023. – №. 1.

29. Baxtiyorovna, N. N. ., & Latipov, H. R. . (2024). Expression of Common Ideas and Images in the Creations of Navoy and Pushkin. International Journal of Formal Education, 3(4), 46–53. Retrieved from http://journals.academiczone.net/index.php/ijfe/article/view/2479

30. Norova N. The Subject of Bukhara in the Poems of Osman Kochkar //Best Journal of Innovation in Science, Research and Development. – 2024. – Т. 3. – №. 3. – С. 858-863. Norova N. The Subject of Bukhara in the Poems of Osman Kochkar //Best Journal of Innovation in Science, Research and Development. – 2024. – Т. 3. – №. 3. – С. 858-863.

31. Sayliyeva Z. R., Murodova M. R. Q. LITERACY OF PRAISE IN THE VERSES OF ALISHER NAVOI //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2022. – Т. 2. – №. 5. – С. 372-380.
32. Rakhmiddinovna S. Z., Qizi M. M. R. Prophet of the peace and blessings of allah be upon him (o prophet of the prophet hood…) //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 12. – №. 5. – С. 31-36.
33. Raxmiddinovna S. Z. et al. USTOZ-IBROHIM HAQQUL IJODIGA CHIZGILAR //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – Т. 21. – №. 2. – С. 113-117.
34. Rakhmiddinovna S. Z. EY, SAFHAYI RUXSORING AZAL XATIDIN INSHO //SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY. – С. 112.
35. Rakhmiddinovna S. Z., Manzura K. MUHAMMAD RAHIMKHAN FERUZ AND HIS DESCENDANTS //Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 142-146.
36. Rakhmiddinovna S. Z. CHU JILVA AYLADI UL HUSN ISTABON OSHIQ.. //SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY. – С. 132.
37. Бекова Н. Ж., Сайлиева З. Р. " Девони Фони": издания и исследования //Филология и лингвистика в современном обществе. – 2014. – С. 20-22.
38. Sohibova, Z., & Quvvatova, D. (2019). Symbolic description of the year seasons in Uzbek poetry. International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering, 8(9 S3), 1530-1534.
39. Nusratilloevna, S. Z. (2021). Some notes about the description of summer in uzbek poetry. World Bulletin of Social Sciences, 2, 73-77.
40. Sohibova, Z. (2020, December). IN AGAHI'S POEMS ABOUT SPRING ABOUT REPEATING IMAGES. In Конференции.
41. Сохибова, З. (2020). ЗУЛФИЯ ИЖОДИДА ДАРАХТ ОБРАЗИ ВА РАМЗИЙЛИК. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 3(1).
42. Sohibova, Z. N. (2020). THE SEASON OF AUTUMN AND THE MOTIVE OF PARTING IN THE WORKS OF NAVOIY. Scientific reports of Bukhara State University, 4(4), 213-218.
43. Nusratilloevna, S. Z. Description and Symbolic Meaning of Winter in Uzbek Poetry. International Journal on Integrated Education, 4(4), 327-334.
44. Садикова D. Muslihabegim Miskin Appeals to Historical Person-Hazrat Agoyi Buzurg //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
45. Садикова Д. Muslihabegim Miskin–XIX asr Buxoro adabiy muhitining iste'dodli zullisonayn shoirasi //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
46. Садикова Д. Muslihabegim Miskin–XIX asr Buxoro adabiy muhitining iste'dodli zullisonayn shoirasi //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.

47. Tursunovna S. D., Pirimovich E. H. MUSLIHABEGIM MISKIN-ALISHER NAVOI'S FOLLOWER.
48. Eshonqulov H., Sodiqova D. Muslihabegim Miskin–XIX asr Buxoro adabiy muhitining iste'dodli zullisonayn shoirasi //Oltin bitiglar–Golden Scripts. – 2021. – T. 3. – №. 3.
49. Садикова D. Muslihabegim Miskin Appeals to Historical Person-Hazrat Agoyi Buzurg //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №.
50. Sodikova D. T. GLIMPSES TO FEMININE LITERATURE DURING THE DYNASTY OF BUKHARA EMIRATE: ALL ABOUT A POETESS MUSLIKHABEGIM MISKIN AND HER LITERARY HERITAGE //АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ТЮРКОЛОГИИ: РОССИЯ И ТЮРКО-МУСУЛЬМАНСКИЙ МИР. – 2021. – С. 174-176.
51. Sodikova T. D. Depiction of Romantic Love in Muslihabegim Miskin's Poetry //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – Т. 8.
52. Содикова Д. Т. ПРОБЛЕСКИ ЖЕНСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ ВО ВРЕМЕНА ДИНАСТИИ БУХАРСКОГО ЭМИРАТА: ВСЕ О ПОЭТЕССЕ МУСЛИХАБЕГИМ МИСКИН И ЕЕ ЛИТЕРАТУРНОМ НАСЛЕДИИ //ББК 81.632 А43. – С. 174.
53. Eshankulov H., Sadikova D. Muslihabegim Miskin is a talented bilingual poetees during the literary period of the XIXth century in Bukhara //GOLDEN SCRIPTS OLTIN BITIGLAR. – С. 41.
54. Садикова D. MUSLIHABEGIM MISKIN-ALISHER NAVOI'S FOLLOWER //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
55. Sodikova D. MUSLIHABEGIM MISKIN IS A ZULLISONAYN (WHO WROTE HER WORKS IN TWO LANGUAGES) POETESS //Журнал академических исследований нового Узбекистана. – 2024. – Т. 1. – №. 3. – С. 81-86.
56. Садикова Д. Muslihabegim Miskin–XIX asr Buxoro adabiy muhitining iste'dodli zullisonayn shoirasi //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.

7 – TOM 12 – SON / 2024 - YIL / 15 – DEKABR

MISKIN IJODIDA TARIXIY SHAXSLARGA MUROJAAT

Sodiqova Dilorom Tursunovna
Buxoro davlat universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi, f.f.f.d(PhD)
E mail: sodiqovadilorom1@gmail.com.
ORSID: 0009-0000-9567-2528.

Annotatsiya: maqolada shoira she’riyati tahlili orqali uning muqaddas qadamjolarga tashrifi, nazmiy asarlaridagi jozibadorlikni, ta’sirchanlikni ta’minlashga xizmat qilishi kabi xususiyatlar tahlilga tortilgan.

Tayanch so‘zlar: Muhammad payg‘ambar, badiiy san’at, lirik qahramon, g‘azal, ruboiy, masnaviy, muxammas, musaddas, mustazod, ta’did, qaytarish, mukarrar, tadrij, raddul-ajuz il-as-sadr, mutobiqa, musajja’ g‘azal.

Muslihabegim Miskin nazmiyatida islom olami, payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalom va uning sahobalari, ahli bayti madhi bilan bog‘liq diniy-falsafiy mavzular salmoqli o‘rin tutadi. Albatta, shoira nafaqat ijodkor, balki o‘z nazmiy asarlarida ba’zida asosiy qahramondir, biroq misralardagi «man» va «men» timsollari doimo individual xarakterga ega bo‘lib qolmay, shu holatdagi barcha insonlarni mujassamlashtiradi. Islomdagi itoatkorlik, istig‘for so‘rash, sabr va ezgu amal ijodkorning ijodida butun bo‘y-basti bilan gavdalanadi.

Hazrat Boboyi Samosiy, Xo‘jayi O’bon, Hazrati Og‘oyi Buzurg, G’avsul A’zam kabi obrazlar Miskin devonlarida salmoqli o‘rinni egallagan tarixiy shaxslardir.

Muslihabegim Miskin Naqshbandiya tariqatiga e’tiqod qo‘ygan, hayoti davomida sabr-u toqat yuksak insoniy fazilat ekanini amalda isbotlagan. Shu bois ham u pirlardan sanalgan Boboyi Samosiy nomini ham eksak ehtirom bilan tilga oladi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, shoira naqshbandiya tariqatining vakili Boboyi Samosiy qadamjosiga juda ko‘p tashrif buyurgan. Bu ziyoratgoh Buxoro viloyati Romitan tumanida joylashgan.

Xoja Muhammad Boboyi Samosiy – xojagon-naqshbandiya tariqatining yirik namoyandasi, buxorolik yetti pirning beshinchisi. «In g‘azal az baroyi Boboyi Samosiy...» («Bu g‘azal Boboyi Samosiy haqida») sarlavhali quyidagi g‘azal fikrimizning dalilidir:

Omadam bahri ziyorat in zamon dar oston,
To shavad oson maro in mushkili bor garon.
Dardmandam, mustamandam bahri darmon omadam,
Yak nazar sozed maro, ey oftobi du jahon.
Osiyam, bechoraam doram ba dil sharmandagi,
Zi on ki on holi taboham bar shumo boshad ayon.

Omadam, ey hazrati Bobo, man az bahri davo,
Zi rahi ixlos benihodam sari xud oston.
Bekas-u sargashta-yu hayron-u muztar mondaam,
Mekunam har ro‘z-u shab man nola-yu oh-u fig‘on.
Miskini bechoraam – aftoda dar girdobi g‘am,
Rahm kun bar holiman, yo rab ba haqqi nazdigon. [1962,12b varaq].

Mazmuni: Bu zamon ko‘p miqdorda yog‘iladigan mushkulim oson bo‘lsin deb, ziyorat uchun ostonasiga keldim. Dardliman, qayg‘uliman, darmon istab keldim. Ikki jahon oftobi menga nazar soling. Osiyman, bechoraman, ko‘nglimda sharmandalik bor, toki xarob bo‘lgan ahvolim sizga ayon bo‘lsin. Ey Hazrati Bobo, davo istab, ixlos qilib ostonaga keldim. Kimsasiz, sargardon-u, hayron-u, nochor qoldim. Kun-u tun men nola va oh-u fig‘on qilaman. G’am girdobida qolgan darmonsiz, bechora, faqirman. Yo Rab, suyuklilaring haqqi, menga ham rahm qil.

Mo‘min har qanday istagini Allohdan so‘rashi kerak. Ushbu g‘azalni o‘qish jarayonida, shoiraning bu boradagi qarashlarida noqislik bor, degan fikr ko‘ngildan o‘tadi. Biroq g‘azal maqta’sida najotni Allohdan so‘rab, suyuklilarni robita sifatida keltirgani u haqidagi fikrning tamomila ijobiy tomonga o‘zgarishiga sabab bo‘ladi.

Muslihabegim Miskin Islom olamida taniqli bo‘lgan arboblar qatorida o‘zi pir sifatida etirof etgan, xalq orasida G’avsul A’zam yoki Muhyiddin Piridastgir nomlari bilan mashhur bo‘lgan Abdulqodir Jiloniy haqida ham yozadi, barcha nazmiy asarlarida bo‘lgani kabi unga ham yuksak ehtiromni namoyish etgan holda murojaat qiladi. Shu o‘rinda ushbu shaxs haqidagi ma’lumotlarni umumlashtirgan holda quyidagilarni ma’lum qilish o‘rinlidir.

To‘liq ismi Abu Muhammad Muhyiddin Abdulqodir ibn Abu Solih Abdulloh bo‘lib, otalari Abu Solih binni Muso Jangido‘st sharif Hazrati Hasan (r.a) avlodlaridan, onalari Ummixayr Fotima sayyida binni Abu Abulloh Hazrati Husayn (r.a.) avlodlaridandir. Islom dunyosining aqtobi arbaa (to‘rt qutbi)ga mansub bu zot qodiriylik tariqatining muassisi bo‘lgan. Bu tariqatning bosh dasturi "mashg‘ullik ila forig‘lik» (o‘zing dunyo bilan mashg‘ul bo‘lgan paytda diling undan forig‘ bo‘lsin)dir. «Ahd» bilan kirilmog‘i lozim bo‘lgan bu tariqat Misr, Andalus, Shom, Bag‘dod, Onado‘li, Markaziy Osiyo va Hindiston hududlarida tarqalgan. Hazrati Navoiyning yozishicha, «Shayx Muhyiddin Abdulqodir Jiliy karomatlari tavotur (uzluksiz)… jahon shayxlarining birortasiga bunday karomatlar zohir bo‘lmagan» .

“G’avsul-A’zam” ismila mashhur bo‘lgan Shayx hazratlari Muso binni Yununiy, Nuriddin Ali Shattanafiy, Muhammad Todafiy, Muhammad Diloiy, Ibn Hojar, Mulukshoh Siddiqiy, Muhammad Mir Olim, Sharoniy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Xojazoda Ahmad Hilmiy kabi ulamolarning tazkira va maqomotlarida ulug‘langan.

Hazratning «Al-G’unyatu li-tolibi tariqul-Haq», «al-Fathu-r-Rabboniy val-Fayzu-r-Rahmoniy» («Sittin majolis»), «Futuhu-l-G’ayb», «Hizbi basharu-l-hayrot», «al-

Mavohibu-r-rahmoniyya val-Futuhu-r-rabboniya…», «Jalou-l-Xotu», «Yavoqutu-l-hikam», «Devoni Hazrati G'avsu-l-A'zam» («G'azaliyoti Muhyi») kabi asarlari ma'lum[1].

«Nigar ki zori mustaram, yo shoh Muhyiddin vali …» misrasi bilan boshlanuvchi g'azalida shoira G'avsul A'zamga murojaat qilarkan, uning diydoriga mushtoq ekanligini, firoqida ko'zlari yosh ekanligini oshkor etadi:

Nigar ki zori mustaram, yo shoh Muhyiddin vali,

Az furqatat chashm taram, yo shoh Muhyiddin vali.

Ham dardmandam ham g'arib shoho tuyi bar man tabib,

Diydori xudro kun nasib, yo shoh Muhyiddin vali [1962,79^{b} varaq].

Shoira o'zini dardmand va g'arib sifatida tavsiflarkan, pirini shoh va tabib sanab, undan davo istaydi. Tabiiyki, bu davo ko'ngil iztiroblariga malham bo'lgulik ruhiy yaqinlikdir. Keyingi misralarda ham aynan ushbu mohiyatni saqlab qolgan holda, shoira Abdulqodir Jiloniyni Muhammad payg'ambarning ko'zlaridagi nur deb e'tirof qilarkan, uni avliyolarning a'losi nisbati bilan ham maqtaydi:

Ey nuri chashmi Mustafo, ey dardmandonro davo,

Eй afzali kull avliyo, yo shoh Muhyiddin vali [1277,79^{b} varaq].

Miskinning «Maro xon az sakon, ey shoh, jamolatro namo, ey moh …» misrasi bilan boshlanuvchi g'azalida Abdulqodir Jiloniyning eng asosiy xislatiga urg'u beriladi, shoira uning dardlarni bartaraf etuvchi, kishilarning mushkulini oson qiluvchi hojatbaror sifatida tasvirlaydi:

Misoli murg'i nim bismil zi ishqat mubtalo in dil,

Ki doram qissai mushkil, ayo ma'shuqi rabboniy [1277,76^{b} varaq].

Mazkur misralarda shoiraning o'zi muammolar girdobida ekanligini, mushkul qissasi borligini bildirib, o'z piriga yuzlanadi. Keyingi misralarda esa undan ko'mak so'raydi, mushkulini oson qilishini so'raydi.

Bekun hal mushkili moro ravo kun hojati moro,

Nazar kun so'yi man, shoho, ayo ma'shuqi rabboniy [1277,76^{b} varaq].

Bunday iltijolar zamirida vasf etilayotgan manzurning «ma'shuqi rabboniy» ekanligi nazarda tutiladi.Mumtoz shoirlar ijodida kuzatilgani singari Muslihabegim Miskin she'riyatining ham asosiy obrazi lirik qahramon shoiraning o'zidir.

Shoira she'riyatida Yusuf (a.s.) Muhammad (a.s.) obrazidan keyin eng ko'p murojaat etilgan payg'ambar obrazi sanaladi. Ya'qub (a.s.)ning o'g'lidan ayrilib, g'am uyida iztirob chekishi bilan shoira Yusufsifat farzandlaridan ayrilganligi orasida uyg'unlik ko'radi. Ana shunday badiiy lavhalar tasvirida shoira bu ikki payg'ambar obrazidan ijodiy foydalanadi. U o'rni bilan Vomiq, Uzro, Farhod, Shirin, Layli, Majnun singari an'anaviy adabiy qahramonlarga murojaat etib, Muhammad (s.a.v) va G'avsul A'zam – Abduqodir Jeloniy, Og'oyi Buzurg – Qizbibi, Boboyi Samosiy singari pirlarga bo'lgan ma'naviy muhabbatini badiiylashtiradi. Nomlari keltirilgan pirlar obrazi ham

[1] Islom tasavvufi manbalari.Tasavvuf nazariyasi va tarixi, . – Toshkent,-2005.- . –B.13.

shoira she'riyatining muhim qahramonlaridir. Ular vositasida Muslihabegim Miskinning achchiq qismati o'quvchiga badiiy talqin etilishi bilan ular robitasida Allohning lutfiga sazovor bo'lish istagi badiiy talqin etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Islom tasavvufi manbalari.Tasavvuf nazariyasi va tarixi. – Toshkent,-2005. B.13.
2. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomid agi qo'lyozmalar fondi. Inv.1277. -132b.
3. Turaeva, L. O. (2021). Artistic and compositional features of harvest songs. *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH*, *10*(4), 629-634.
4. Тўраева, Л. О. (2024). ЎЗБЕК ДЕҲҚОНЧИЛИГИДА ТАҚВИМ РАМЗЛАРИ. *IMRAS*, *7*(1), 779-783.
5. Тўраева, Л. О. (2023). ЎЗБЕК ХАЛҚ ОҒЗАКИ ИЖОДИДА ДЕҲҚОН ОЛҚИШЛАРИНИНГ ЎЗИГА ХОС ИФОДАСИ. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, *2*(24), 22-25.
6. Тўраева, Л. О. (2023). ДЕҲҚОНЧИЛИК ҚЎШИҚЛАРИ ЖАНРИНИ БЕЛГИЛАШДА КАСБИЙ АТАМАЛАРНИНГ ЎРНИ. *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH*, *2*(22), 66-70.
7. Тўраева, Л. О. (2022, June). Мақолларда деҳқонлар ҳаётининг бадиий талқини. In *E Conference Zone* (pp. 71-73).
8. To'rayeva, L. (2021). ЎЗБЕК ЗИРОАТШИЛИГИДА МОШГА МУНОСАБАТНИНГ ФОЛЬКЛОРДАГИ БАДИИЙ ТАЛҚИНЛАРИ ХУСУСИДА. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, *7*(7).
9. Omonovna T. L. Artistic understanding of peasant life in proverbs //Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences. – 2022. – T. 9. – S. 47-49.
10. TORAYEVA, L. (2023). ЎРИМ ҚЎШИҚЛАРИНИНГ ОБРАЗЛАР ТАРКИБИ ВА БАДИИЙ-КОМПОЗИЦИОН ХУСУСИЯТЛАРИ. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, *42*(42).
11. Omonovna, T. R. L. (2024). A Hymn of Divine Ideas in the Wisdoms of Yassavi. *International Journal of Formal Education*, *3*(4), 34-39.
12. Omonovna, T. L. (2024). A PECULIAR EXPRESSION OF PEASANT APPLAUSE IN FOLKLORE. *THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY*, *2*(20), 199-204.
13. To'rayeva, L. (2024). O'ZBEK XALQ O'YINLARIDA "BOBODEHQON" KULTIGA OID QARASHLAR TALQINI. *THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY*, *2*(20), 234-241.

14. To‘rayeva, L. (2024, May). Jek Londonning “Hayotga muhabbat” hikoyasida hayotsevarlik g ‘oyalari. In *CONFERENCE ON THE ROLE AND IMPORTANCE OF SCIENCE IN THE MODERN WORLD* (Vol. 1, No. 4, pp. 250-259).

15. Tursunovna S. D. BUXOROLIK ZULLISONAYN SHOIRA //THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY. – 2024. – Т. 2. – №. 20. – С. 170-176.

16. Sodiqova D. Muslihabegim ijodida hadislarga murojaat //CONFERENCE ON THE ROLE AND IMPORTANCE OF SCIENCE IN THE MODERN WORLD. – 2024. – Т. 1. – №. 4. – С. 240-249.

17. Baxtiyorovna N. N. et al. JAMOL KAMOLNING “JAMILA” DOSTONIDA IJODKORNING BADIIY MAHORATI //Journal of new century innovations. – 2024. – Т. 53. – №. 2. – С. 81-85.

18. Norova N. Principal Directions of Studying the Problem of Style in Literature (on the Example of U. Kochkor's Lyrics) //JournalNX. – С. 913-915.

19. Norova N., Nigina M. OMON MATJON SHE’RLARIDA QUSHLAR TIMSOLI //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 13. – №. 3. – С. 27-30.

20. Nasiba N. UDC: 821.512. 133 TRADITION AND INNOVATION IN USMON KUCHKOR'S POEMS //SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY. – С. 100.

21. Norova N. B. Creative abilities of the artist in the application of the art (on the example of the lyrics of osman kochkar) //Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – Т. 4. – №. 5. – С. 214-221.

22. Norova N. Artistic skills in Usmon Kuchkor poetry //центр научных публикаций (buxdu. Uz). – 2022. – Т. 15. – №. 15.

23. Bakhtiyorovna N. N. CREATIVE ABILITIES OF THE ARTIST IN THE APPLICATION OF THE ART (ON THE EXAMPLE OF THE LYRICS OF OSMAN KOCHKAR).

24. Gaybulloevna D. S., Bakhtiyorovna N. N. PSYCHOLOGIST IN ULUGBEK HAMDAM'S NOVEL" FATHER.

25. Norova N. УСМОН ҚЎЧҚОР УСМОН ҚЎЧҚОРНИНГ “ЛАЗИЗЖОН МАРСИЯСИ” ШЕЪРИ ХУСУСИДА: УСМОН ҚЎЧҚОРНИНГ “ЛАЗИЗЖОН МАРСИЯСИ” ШЕЪРИ ХУСУСИДА //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 16. – №. 16.

26. Norova N. ҲОЗИРГИ ШЕЪРИЯТДАГИ ПОЭТИК ЯНГИЛАНИШЛАР ҲАҚИДА //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 16. – №. 16.

27. Norova N. Usmon Qo ‘chqor lirikasidagi obrazlar turkumi //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.

28. Baxtiyorovna N. N. USMON QOCHQOR LIRIKASIDA MUHABBAT MAVZUSINING TALQINI: DOI: 10.53885/edinres. 2021.71. 75.119 Norova Nasiba Baxtiyorovna, BuxDU Ozbek tili va adabiyoti kafedrasi tayanch doktoranti (Ozbekiston) //Научно-практическая конференция. – 2021.

29. Норова Н. Б. УСМОН ҚЎЧҚОР ШЕЪРИЯТИДА ТАБИАТ ТАСВИРИ ТАЛҚИНИ: Норова Насиба Бахтиёровна, Бух ДУ ўзбек адабиёти кафедраси ўқитувчиси,(PhD) //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2023. – №. 1.

30. Baxtiyorovna, N. N. ., & Latipov, H. R. . (2024). Expression of Common Ideas and Images in the Creations of Navoy and Pushkin. International Journal of Formal Education, 3(4), 46–53. Retrieved from http://journals.academiczone.net/index.php/ijfe/article/view/2479

31. Norova N. The Subject of Bukhara in the Poems of Osman Kochkar //Best Journal of Innovation in Science, Research and Development. – 2024. – T. 3. – №. 3. – C. 858-863. Norova N. The Subject of Bukhara in the Poems of Osman Kochkar //Best Journal of Innovation in Science, Research and Development. – 2024. – T. 3. – №. 3. – C. 858-863.

32. Sayliyeva Z. R., Murodova M. R. Q. LITERACY OF PRAISE IN THE VERSES OF ALISHER NAVOI //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2022. – T. 2. – №. 5. – C. 372-380.

33. Rakhmiddinovna S. Z., Qizi M. M. R. Prophet of the peace and blessings of allah be upon him (o prophet of the prophet hood…) //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 12. – №. 5. – C. 31-36.

34. Raxmiddinovna S. Z. et al. USTOZ-IBROHIM HAQQUL IJODIGA CHIZGILAR //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 21. – №. 2. – C. 113-117.

35. Rakhmiddinovna S. Z. EY, SAFHAYI RUXSORING AZAL XATIDIN INSHO //SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY. – C. 112.

36. Rakhmiddinovna S. Z., Manzura K. MUHAMMAD RAHIMKHAN FERUZ AND HIS DESCENDANTS //Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies. – 2022. – T. 1. – №. 2. – C. 142-146.

37. Rakhmiddinovna S. Z. CHU JILVA AYLADI UL HUSN ISTABON OSHIQ.. //SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY. – C. 132.

38. Бекова Н. Ж., Сайлиева З. Р. " Девони Фони": издания и исследования //Филология и лингвистика в современном обществе. – 2014. – С. 20-22.

39. Sohibova, Z., & Quvvatova, D. (2019). Symbolic description of the year seasons in Uzbek poetry. International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering, 8(9 S3), 1530-1534.

40. Nusratilloevna, S. Z. (2021). Some notes about the description of summer in uzbek poetry. World Bulletin of Social Sciences, 2, 73-77.

41. Sohibova, Z. (2020, December). IN AGAHI'S POEMS ABOUT SPRING ABOUT REPEATING IMAGES. In Конференции.
42. Сохибова, З. (2020). ЗУЛФИЯ ИЖОДИДА ДАРАХТ ОБРАЗИ ВА РАМЗИЙЛИК. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 3(1).
43. Sohibova, Z. N. (2020). THE SEASON OF AUTUMN AND THE MOTIVE OF PARTING IN THE WORKS OF NAVOIY. Scientific reports of Bukhara State University, 4(4), 213-218.
44. Nusratilloevna, S. Z. Description and Symbolic Meaning of Winter in Uzbek Poetry. International Journal on Integrated Education, 4(4), 327-334.
45. Садикова D. Muslihabegim Miskin Appeals to Historical Person-Hazrat Agoyi Buzurg //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
46. Садикова Д. Muslihabegim Miskin–XIX asr Buxoro adabiy muhitining iste'dodli zullisonayn shoirasi //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
47. Садикова Д. Muslihabegim Miskin–XIX asr Buxoro adabiy muhitining iste'dodli zullisonayn shoirasi //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
48. Tursunovna S. D., Pirimovich E. H. MUSLIHABEGIM MISKIN-ALISHER NAVOI'S FOLLOWER.
49. Eshonqulov H., Sodiqova D. Muslihabegim Miskin–XIX asr Buxoro adabiy muhitining iste'dodli zullisonayn shoirasi //Oltin bitiglar–Golden Scripts. – 2021. – Т. 3. – №. 3.
50. Садикова D. Muslihabegim Miskin Appeals to Historical Person-Hazrat Agoyi Buzurg //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №.
51. Sodikova D. T. GLIMPSES TO FEMININE LITERATURE DURING THE DYNASTY OF BUKHARA EMIRATE: ALL ABOUT A POETESS MUSLIKHABEGIM MISKIN AND HER LITERARY HERITAGE //АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ТЮРКОЛОГИИ: РОССИЯ И ТЮРКО-МУСУЛЬМАНСКИЙ МИР. – 2021. – С. 174-176.
52. Sodikova T. D. Depiction of Romantic Love in Muslihabegim Miskin's Poetry //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – Т. 8.
53. Содикова Д. Т. ПРОБЛЕСКИ ЖЕНСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ ВО ВРЕМЕНА ДИНАСТИИ БУХАРСКОГО ЭМИРАТА: ВСЕ О ПОЭТЕССЕ МУСЛИХАБЕГИМ МИСКИН И ЕЕ ЛИТЕРАТУРНОМ НАСЛЕДИИ //ББК 81.632 А43. – С. 174.
54. Eshankulov H., Sadikova D. Muslihabegim Miskin is a talented bilingual poetees during the literary period of the XIXth century in Bukhara //GOLDEN SCRIPTS OLTIN BITIGLAR. – С. 41.
55. Садикова D. MUSLIHABEGIM MISKIN-ALISHER NAVOI'S FOLLOWER //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.

56. Sodikova D. MUSLIHABEGIM MISKIN IS A ZULLISONAYN (WHO WROTE HER WORKS IN TWO LANGUAGES) POETESS //Журнал академических исследований нового Узбекистана. – 2024. – Т. 1. – №. 3. – С. 81-86.

57. Садикова Д. Muslihabegim Miskin–XIX asr Buxoro adabiy muhitining iste'dodli zullisonayn shoirasi //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.

7 – TOM 12 – SON / 2024 - YIL / 15 – DEKABR

XALQ QO'SHIQLARIDA RADIF IFODASI

To'rayeva Laylo Omonovna
BuxDU O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)

Annotatsiya: O'zbek xalq qo'shiqlari o'ziga xos mazmundorligi va ohangdorligi bilan betakror poetik tizim sifatida namoyon bo'ladi. Radif she'r poetik takrorturlaridan biri bo'lib, qo'shiq ritmini shakllantirishga, uning mazmunini teran anglashga xizmat qiladi. Maqolada radifning xalq qo'shiqlaridagi ifodasi va uning estetik tabiati haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: radif, qofiya, aruz vazni, barmoq vazni, so'z takrori, musiqiylik, ohangdoshlik, ritm, sarlavha.

Radif hodisasi, asosan, aruzda yaratilgan lirik matnlarga xosdir. Biroq barmoq vaznida yaratilgan xalq qo'shiqlarida ham radifning qo'llanilishini inkor etib bo'lmaydi. "Radif" arabcha so'z bo'lib, lug'aviy ma'nosiga ko'ra "orqasiga mingan, mingashgan" degan ma'nolarni bildiradi.

Radif asosan, she'riy asarlar badiiyatiga daxldor hodisa bo'lib, she'riy misralarda qofiyadan so'ng takrorlanib keladigan leksik so'z yoki sintaktik birlik sifatida, ma'noni kuchaytirishga, poetik fikrni ma'lum bir nuqtaga to'plashga, ohangdorlikni oshirishga xizmat qiladi. Radif har doim qofiyadan keyin misralararo yoki baytlar osha bir xilda, hech qanday o'zgarishsiz takrorlanib keladigan so'z, so'z birikmasi yoxud gapga nisbatan qo'llanadi. Uning she'r qurilishidagi o'rni hamisha qat'iyligi kuzatiladi. Radif she'rda doimo qofiyadan so'ng, hojibdan esa oldin joylashadi. Bu uning eng muhim belgisi bo'lib, shunga qarab she'rda tez aniqlanadi.

Radif she'rdagi kompozitsion unsurlardan biridir. U qofiya bilan bir qatorda she'rning musiqiy ohangini kuchaytirishga, ritmik harakatini belgilashga, badiiy mazmunni ifodalashga xizmat ko'rsatadi.

Radif – so'z takrorlaridan biri. Uning qofiyadosh so'zlardan so'ng bir xilda takrorlanib kelishi o'ziga xosligini belgilovchi yetakchi xususiyatidir. U asosan, she'riyat musiqiyligiga xos asosiy unsurlardan biri sanaladi. Shuning uchun radif ishtirok etgan she'riy asarlarning musiqiyligi yanada kuchli bo'ladi.

Radif nafaqat mumtoz lirik asarlarda, balki xalq qo'shiq va termalarda ham uchrashi mumkin. Mumtoz g'azaliyotda "radif" hatto o'zi qo'llanib kelayotgan matn uchun sarlavha vazifasini o'tash darajasigacha ko'tarilgan. Bunday imkoniyat natijasida g'azallar radifni, radiflar esa g'azalni mashhur qildi. Xususan, g'azal mulkining sultoni Alisher Navoiyning "Kelmadi", "Topmadim", Boburning "Qoldim-u?", Mashrabning "O'rtar" kabi radifli g'azallari ayni paytda sarlavha vazifasini o'tayotgan ana shu so'zlarning radif bo'lib kelishi orqali o'quvchilar xotirasida va

qalbida muhrlanib qolgan. Bundan ko'rinadiki, radif, avvalo, she'riy asarning xotirada muhrlanib qolishi uchun asosiy zamindar. Bunga esa uning o'ziga xos ohang yaratish imkoniyati asos bo'ladi.

Radif bo'lib kelgan so'zning sarlavha tarzida e'tirof etilishi xalq og'zaki ijodi namunalarida ham keng uchraydi. Jumladan, "Yaxshidir", "Do'mbiram" radifli termalar, "Nima-nima deysiz" radifli qo'shiq, "Gulyor" kabi qo'shiqlar bunga misol bo'la oladi.

Radifning sarlavha darajasiga ko'tarilishi sabablaridan yana biri, ko'pincha uning ritmik urg'u qabul qilishidir. Ya'ni, radif bo'lib kelgan so'zga ko'p hollarda mintaqaviy va ritmik urg'u tushadi-yu, u boshqa so'zlardan ovoz orqali ajratib aytiladi. Ayni paytda bu ajratish ushbu so'zning ma'nosini ham kichraytirib, uni e'tiborga yaqin qilib qo'yadi. Nihoyat, she'riy matndagi ushbu diqqatga yaqin so'z xotirada yaxshiroq o'rnashib qoladi-yu, uning yodga olinishini ta'minlaydigan sarlavhaga aylanadi.

O'zbek xalq qo'shiqlari mavzu ko'lamiga, ijro xususiyatiga va maqsadiga qarab rangba-rang: "alla", "yor-yor", "kelin salom", "o'lan", "ho'p mayda", "churey-churey", "tirey-turey" singari janrlarga bo'linar ekan, ularning bu tarzda umumiy nomlantirilishi qanday yuz berganligi e'tiborni tortadi. Bizningcha, o'zbek xalq qo'shiqlarining bu xilda umumiy nomlanmalar bilan atalishining asosiy sababi ularning yagona mazmun doirasida ma'lum ob'yektga qarata yaratilgan bo'lishi bilan birga, har tomonlama yaxlitlik kasb etuvchi mustaqil asar sifatida gavdalana olish xususiyati tufaylidir. Mazmun va shakl mohiyatiga ko'ra qo'shiqlarning bunday uyg'unlashuvini ta'minlaydigan asosiy unsur sifatida esa har bir mustaqil to'rtliklar oxiridagi ohangdosh so'zlardan keyin misralararo muttasil takrorlanib keluvchi maxsus so'z takrorining mavjudligi sabab bo'lib ko'rinadi. Jumladan, yor-yorlarda bu so'z takrori "yor-yor", allalarda "alla", ho'p maydalarda "mayda-yo mayda", churiyalarda "churey-churey" va hokazolar bo'lib, ular shu tipda yaratilgan qo'shiqlarni yaxlitlashtirish, turkumlash uchun yordam beradi. Bu so'z takrorlari ko'pincha qofiyadosh so'zlardan keyin kelishi esa ularni radifga tenglashtirishga asos bo'ladi.

Qozondagi qatlama,
Qatlanadi yor-yor.
Qizni olib yangasi
Otlanadi yor-yor.
Yoki:
Osmonda uchgan qushlar, alla,
Sekin chiqar tovushlar, alla,
Meni solma qayg'uga, alla,
Bolam to'ysin uyquga, alla.
Yana:
Esli molim – oqilim, turey-turey,
Yelkamdagi kokilim, turey-turey.

Shuncha molning ichida, turey-turey,

Bog'da ochilgan gulim, turey-turey.

Ko'rinyaptiki, o'zbek xalq lirikasi janrlari orasida qofiyadosh so'zlardan keyin unga ergashgan holda keluvchi aniq, maxsus so'z takrori mavjud bo'lgan namunalar ko'p uchraydi. Jumladan, yuqoridagi qo'shiq namunalarida ham buning yorqin ifodasini ko'rish mumkin. Birinchi qo'shiq "yor-yor" janri sanalib, uning qofiyalari qatlanadi \\ otlanadi ohangdosh so'zlaridan keyin yor-yor takrori qo'llanib kelgan. Xuddi shunday keyingi qo'shiqlarda ham o'ziga xos ohangdoshlik va radiflar takrorlanib kelgan. Qizig'i shundaki, bu qo'shiqlarga xos ushbu aniq, doimiy takrorlar g'oyaviy-estetik maqsadni ochib berishga, o'ziga xos ohang va musiqiylikni yuzaga keltirishga, qo'shiq ob'ektiga murojaat ifodasini shakllantirishga asos bo'lib xizmat qiladi. Ana shu asoslik darajasi esa ularni yetakchi bosqichga, umumlashma nom yoki sarlavha vazifasiga ko'taradi. Agar adabiyotshunoslikda qofiyadosh so'zlardan keyin kelib, ifodalanayotgan mazmunni va ohangni yanada shakllantirishga xizmat qiladigan so'z takrori – radif deb nomlanishi e'tiborga olinsa, yuqoridagi xalq qo'shiqlarida ham xuddi shu kabi sajiyada ko'zga tashlanayotgan so'z takrorlarini "radif" sifatida qarash mumkin bo'ladi. Chunki xalq qo'shiqlarida ham xuddi mumtoz g'azaliyotdagi kabi radif vazifasidagi muayyan so'zlarning umumlashtiruvchi nom (sarlavha) vazifasini bajarib kelayotganligi kuzatiladi. Ayni paytda shuni aytib o'tish kerakki, qo'shiq sajiyasini ifodalovchi radiflar qo'shiq mazmunidan ko'ra ko'proq uning shakli va ohangi uchun xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

57. Turaeva, L. O. (2021). Artistic and compositional features of harvest songs. *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH*, *10*(4), 629-634.

58. Тўраева, Л. О. (2024). ЎЗБЕК ДЕҲҚОНЧИЛИГИДА ТАҚВИМ РАМЗЛАРИ. *IMRAS*, *7*(1), 779-783.

59. Тўраева, Л. О. (2023). ЎЗБЕК ХАЛҚ ОҒЗАКИ ИЖОДИДА ДЕҲҚОН ОЛҚИШЛАРИНИНГ ЎЗИГА ХОС ИФОДАСИ. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, *2*(24), 22-25.

60. Тўраева, Л. О. (2023). ДЕҲҚОНЧИЛИК ҚЎШИҚЛАРИ ЖАНРИНИ БЕЛГИЛАШДА КАСБИЙ АТАМАЛАРНИНГ ЎРНИ. *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH*, *2*(22), 66-70.

61. Тўраева, Л. О. (2022, June). Мақолларда деҳқонлар ҳаётининг бадиий талқини. In *E Conference Zone* (pp. 71-73).

62. To'rayeva, L. (2021). ЎЗБЕК ЗИРОАТШИЛИГИДА МОШГА МУНОСАБАТНИНГ ФОЛЬКЛОРДАГИ БАДИИЙ ТАЛҚИНЛАРИ ХУСУСИДА. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, *7*(7).

63. Omonovna T. L. Artistic understanding of peasant life in proverbs //Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences. – 2022. – T. 9. – S. 47-49.

64. TORAYEVA, L. (2023). ЎРИМ ҚЎШИҚЛАРИНИНГ ОБРАЗЛАР ТАРКИБИ ВА БАДИИЙ-КОМПОЗИЦИОН ХУСУСИЯТЛАРИ. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, *42*(42).

65. Omonovna, T. R. L. (2024). A Hymn of Divine Ideas in the Wisdoms of Yassavi. *International Journal of Formal Education*, *3*(4), 34-39.

66. Omonovna, T. L. (2024). A PECULIAR EXPRESSION OF PEASANT APPLAUSE IN FOLKLORE. *THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY*, *2*(20), 199-204.

67. To‘rayeva, L. (2024). O’ZBEK XALQ O’YINLARIDA “BOBODEHQON” KULTIGA OID QARASHLAR TALQINI. *THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY*, *2*(20), 234-241.

68. To‘rayeva, L. (2024, May). Jek Londonning “Hayotga muhabbat” hikoyasida hayotsevarlik g ‘oyalari. In *CONFERENCE ON THE ROLE AND IMPORTANCE OF SCIENCE IN THE MODERN WORLD* (Vol. 1, No. 4, pp. 250-259).

69. Tursunovna S. D. BUXOROLIK ZULLISONAYN SHOIRA //THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY. – 2024. – T. 2. – №. 20. – C. 170-176.

70. Sodiqova D. Muslihabegim ijodida hadislarga murojaat //CONFERENCE ON THE ROLE AND IMPORTANCE OF SCIENCE IN THE MODERN WORLD. – 2024. – T. 1. – №. 4. – C. 240-249.

71. Baxtiyorovna N. N. et al. JAMOL KAMOLNING “JAMILA” DOSTONIDA IJODKORNING BADIIY MAHORATI //Journal of new century innovations. – 2024. – T. 53. – №. 2. – C. 81-85.

72. Norova N. Principal Directions of Studying the Problem of Style in Literature (on the Example of U. Kochkor's Lyrics) //JournalNX. – C. 913-915.

73. Norova N., Nigina M. OMON MATJON SHE’RLARIDA QUSHLAR TIMSOLI //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – T. 13. – №. 3. – C. 27-30.

74. Nasiba N. UDC: 821.512. 133 TRADITION AND INNOVATION IN USMON KUCHKOR'S POEMS //SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY. – C. 100.

75. Norova N. B. Creative abilities of the artist in the application of the art (on the example of the lyrics of osman kochkar) //Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – T. 4. – №. 5. – C. 214-221.

76. Norova N. Artistic skills in Usmon Kuchkor poetry //центр научных публикаций (buxdu. Uz). – 2022. – Т. 15. – №. 15.
77. Bakhtiyorovna N. N. CREATIVE ABILITIES OF THE ARTIST IN THE APPLICATION OF THE ART (ON THE EXAMPLE OF THE LYRICS OF OSMAN KOCHKAR).
78. Gaybulloevna D. S., Bakhtiyorovna N. N. PSYCHOLOGIST IN ULUGBEK HAMDAM'S NOVEL" FATHER.
79. Norova N. УСМОН ҚЎЧҚОР УСМОН ҚЎЧҚОРНИНГ “ЛАЗИЗЖОН МАРСИЯСИ” ШЕЪРИ ХУСУСИДА: УСМОН ҚЎЧҚОРНИНГ “ЛАЗИЗЖОН МАРСИЯСИ” ШЕЪРИ ХУСУСИДА //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 16. – №. 16.
80. Norova N. ҲОЗИРГИ ШЕЪРИЯТДАГИ ПОЭТИК ЯНГИЛАНИШЛАР ҲАҚИДА //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 16. – №. 16.
81. Norova N. Usmon Qo ‘chqor lirikasidagi obrazlar turkumi //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
82. Baxtiyorovna N. N. USMON QOCHQOR LIRIKASIDA MUHABBAT MAVZUSINING TALQINI: DOI: 10.53885/edinres. 2021.71. 75.119 Norova Nasiba Baxtiyorovna, BuxDU Ozbek tili va adabiyoti kafedrasi tayanch doktoranti (Ozbekiston) //Научно-практическая конференция. – 2021.
83. Норова Н. Б. УСМОН ҚЎЧҚОР ШЕЪРИЯТИДА ТАБИАТ ТАСВИРИ ТАЛҚИНИ: Норова Насиба Бахтиёровна, Бух ДУ ўзбек адабиёти кафедраси ўқитувчиси,(PhD) //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2023. – №. 1.
84. Baxtiyorovna, N. N. ., & Latipov, H. R. . (2024). Expression of Common Ideas and Images in the Creations of Navoy and Pushkin. International Journal of Formal Education, 3(4), 46–53. Retrieved from http://journals.academiczone.net/index.php/ijfe/article/view/2479
85. Norova N. The Subject of Bukhara in the Poems of Osman Kochkar //Best Journal of Innovation in Science, Research and Development. – 2024. – Т. 3. – №. 3. – С. 858-863. Norova N. The Subject of Bukhara in the Poems of Osman Kochkar //Best Journal of Innovation in Science, Research and Development. – 2024. – Т. 3. – №. 3. – С. 858-863.
86. Sayliyeva Z. R., Murodova M. R. Q. LITERACY OF PRAISE IN THE VERSES OF ALISHER NAVOI //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2022. – Т. 2. – №. 5. – С. 372-380.
87. Rakhmiddinovna S. Z., Qizi M. M. R. Prophet of the peace and blessings of allah be upon him (o prophet of the prophet hood…) //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 12. – №. 5. – С. 31-36.

88. Raxmiddinovna S. Z. et al. USTOZ-IBROHIM HAQQUL IJODIGA CHIZGILAR //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 21. – №. 2. – C. 113-117.
89. Rakhmiddinovna S. Z. EY, SAFHAYI RUXSORING AZAL XATIDIN INSHO //SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY. – C. 112.
90. Rakhmiddinovna S. Z., Manzura K. MUHAMMAD RAHIMKHAN FERUZ AND HIS DESCENDANTS //Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies. – 2022. – T. 1. – №. 2. – C. 142-146.
91. Rakhmiddinovna S. Z. CHU JILVA AYLADI UL HUSN ISTABON OSHIQ.. //SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY. – C. 132.
92. Бекова Н. Ж., Сайлиева З. Р. " Девони Фони": издания и исследования //Филология и лингвистика в современном обществе. – 2014. – С. 20-22.
93. Sohibova, Z., & Quvvatova, D. (2019). Symbolic description of the year seasons in Uzbek poetry. International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering, 8(9 S3), 1530-1534.
94. Nusratilloevna, S. Z. (2021). Some notes about the description of summer in uzbek poetry. World Bulletin of Social Sciences, 2, 73-77.
95. Sohibova, Z. (2020, December). IN AGAHI'S POEMS ABOUT SPRING ABOUT REPEATING IMAGES. In Конференции.
96. Сохибова, З. (2020). ЗУЛФИЯ ИЖОДИДА ДАРАХТ ОБРАЗИ ВА РАМЗИЙЛИК. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 3(1).
97. Sohibova, Z. N. (2020). THE SEASON OF AUTUMN AND THE MOTIVE OF PARTING IN THE WORKS OF NAVOIY. Scientific reports of Bukhara State University, 4(4), 213-218.
98. Nusratilloevna, S. Z. Description and Symbolic Meaning of Winter in Uzbek Poetry. International Journal on Integrated Education, 4(4), 327-334.
99. Садикова D. Muslihabegim Miskin Appeals to Historical Person-Hazrat Agoyi Buzurg //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
100. Садикова Д. Muslihabegim Miskin–XIX asr Buxoro adabiy muhitining iste'dodli zullisonayn shoirasi //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
101. Садикова Д. Muslihabegim Miskin–XIX asr Buxoro adabiy muhitining iste'dodli zullisonayn shoirasi //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
102. Tursunovna S. D., Pirimovich E. H. MUSLIHABEGIM MISKIN-ALISHER NAVOI'S FOLLOWER.
103. Eshonqulov H., Sodiqova D. Muslihabegim Miskin–XIX asr Buxoro adabiy muhitining iste'dodli zullisonayn shoirasi //Oltin bitiglar–Golden Scripts. – 2021. – Т. 3. – №. 3.

104. Садикова D. Muslihabegim Miskin Appeals to Historical Person-Hazrat Agoyi Buzurg //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №.
105. Sodikova D. T. GLIMPSES TO FEMININE LITERATURE DURING THE DYNASTY OF BUKHARA EMIRATE: ALL ABOUT A POETESS MUSLIKHABEGIM MISKIN AND HER LITERARY HERITAGE //АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ТЮРКОЛОГИИ: РОССИЯ И ТЮРКО-МУСУЛЬМАНСКИЙ МИР. – 2021. – С. 174-176.
106. Sodikova T. D. Depiction of Romantic Love in Muslihabegim Miskin's Poetry //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – Т. 8.
107. Содикова Д. Т. ПРОБЛЕСКИ ЖЕНСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ ВО ВРЕМЕНА ДИНАСТИИ БУХАРСКОГО ЭМИРАТА: ВСЕ О ПОЭТЕССЕ МУСЛИХАБЕГИМ МИСКИН И ЕЕ ЛИТЕРАТУРНОМ НАСЛЕДИИ //ББК 81.632 А43. – С. 174.
108. Eshankulov H., Sadikova D. Muslihabegim Miskin is a talented bilingual poetees during the literary period of the XIXth century in Bukhara //GOLDEN SCRIPTS OLTIN BITIGLAR. – С. 41.
109. Садикова D. MUSLIHABEGIM MISKIN-ALISHER NAVOI'S FOLLOWER //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
110. Sodikova D. MUSLIHABEGIM MISKIN IS A ZULLISONAYN (WHO WROTE HER WORKS IN TWO LANGUAGES) POETESS //Журнал академических исследований нового Узбекистана. – 2024. – Т. 1. – №. 3. – С. 81-86.
111. Садикова Д. Muslihabegim Miskin–XIX asr Buxoro adabiy muhitining iste'dodli zullisonayn shoirasi //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.

7 – TOM 12 – SON / 2024 - YIL / 15 – DEKABR

MUHAMMAD YUSUF SHE'RLARIDAIDA METAFORA USLUBIY VOSITA SIFATIDA

Maxammadiyeva Diyora Raxmatovna,
O'zbekiston-Finlandiy pedagogika instituti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi
Zulfizar Abduvayitova ,
Tillar fakulteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek xalq farzandi,insoniy fazilatlar, vatan, ishq-muhabbat kuychisi Muhammad Yusufning "Biz baxtli bo'lamiz" to'plamidagi "iftixor", "ne qilay", "yurak", "istak" "ota uy" she'rlarida qo'llanilgan metafora usulini ko'rib chiqamiz.Ma'lumki metafora ma'noni yanada yorqin va ta'sirli qilib yetkazib berish usuli sanaladi va bu usuldan Muhammad Yusuf she'riyatida mohirona foydalanilgan.

Kalit so'zlar: Metafora, she'riyat, o'xshatish, qiyoslash, obraz.

Metafora (grekcha metaphora ko'chirish**)** biror predmet belgisining, harakatning o'xshash tomonini boshqasiga ko'chirish demakdir. Metafora – o'xshatish ochiq bo'lganda tushunarli, o'xshatish hosil qilinganda tushunarsiz, o'xshatish yo'qolganda sezilarsiz bo'ladi. O'xshashlikning yo'qolishi metaforik qo'llanuvchi so'zlarni oddiy nomlarga aylantiradi. "Metafora" atamasi ilk bor Izokrat tomonidan "Evagorus" asarida qo'llanilgan. Ingliz olimi E.Ortoni kundalik hayotda metaforalardan foydalanishning quyidagi uch asosiy sababini ko'rsatgan:

1.Ular bizga qisqacha gapirishga yordam beradi.

2.Ular bizning nutqimizni yorqin qiladi.

3.Ular ifodalab bo'lmaydigan narsani ifodalashga yordam beradi.[1]

Metafora harakat-holat, xil-xususiyat, shakllarga o'xshatish-qiyoslash orqali vujudga keladi. She'riyatda metafora tasvir va ma'noning ta'sirchanligini oshiruvchi badiiy vositadir.U o'xshatishdan farqli o'laroq, biror narsa yoki hodisani boshqa narsa bilan bevosita qiyoslash orqali yangi obraz yaratadi. Metafora o'quvchini muayyan tuyg'u yoki fikrni noan'anaviy, o'ziga xos shaklda idrok qilishga undaydi. Metafora she'riyatga nafosat bag'ishlab, o'quvchini tasavvur va his qilishning yangi olamlariga olib kiradi. Shu bilan birga, har bir metafora o'zida ijodkorning dunyoqarashini aks ettiradi.[2]

Muhammad Yusuf zamonaviy o'zbek she'riyatining taniqli vakili, xalq shoiridir. Uning ijodi insoniy tuyg'ular, milliy qadriyatlar va tabiat go'zalligini tarannum etadi. Muhammad Yusuf she'rlari o'quvchini samimiyligi, sodda va ravon uslubi bilan jalb qiladi. Uning xalq orasida mashur bo'lgan "Biz baxtli bo'lamiz", "Ishq kemasi", "Yolg'onchi yor", "Iltijo", "Osmonimga olib ketaman" kabi bir qancha to'plamlari

mavjud. Shoir xalq dardini, mehr va muhabbatini, oddiy odamlar hayotini betakror tarzda tasvirlagan.Muhammad Yusufning bir qancha she'rlari qo'shiqlarga aylangan bo'lib, o'zbek xalqining yurak-yuragiga chuqur singib ketgan. Uning ijodi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Muhammad Yusuf she'riyatida metafora mazmunni chuqurlashtirish va badiiy ifodani boyitishda muhim vosita sanaladi. U o'z she'rlarida oddiy hayotiy voqealarni falsafiy qatlamlarga olib chiqishda, his-tuyg'ularni samimiy tarzda yetkazishda metaforalardan mohirona foydalanaladi. Metafora harakat-holat, belgi-xususiyat, ikki predmet o'rtasidagi shakliy o'xshashlik, ikki predmetning joylashish o'rni kabi ma'no ko'chishlarida o'z ifodasini yaqqol namoyon qila oladi. Xususan, shoir qalamiga mansub "Iftixor" she'ridan olingan to'rtlikda qatnashgan metaforalarni tahlil qilamiz.

Shirmon kulcha yuzlari,
Rayhon isdir bu elning.
Uzun sochli qizlari
To'marisdir bu elning.

Ushbu to'rtlikda qatnashgan metaforalarga aniqlik kiritish uchun, avvalo, biz birinchi misrada qatnashgan, "shirmon" va "kulcha" so'zlariga to'xtalamiz. "Shirmon"oliy navli unga no'xat unidan qo'shib sut va yog' solib tayyorlanadigan non turi. "Kulcha" bu doirasimon yog'li, tandirda yopilgan kichik non. Ko'rinib turibdiki, shoir yuz tasvirida metaforaning juda go'zal namunasidan foydalangan. Kulcha metaforasi aylana shaklga ega yuzni, shirmon esa silliq, toza teri sifatini bildiradi. Demak, bu misralar orqali shoir metaforaning shakliy o'xshashligidan foydalangan. Shuni qo'shimcha qilib aytishimiz mumkinki, O'rta Osiyo xalqlarida ayollar yuzining silliqligi va yumaloqligi go'zallikning mezoni sifatida qaralgan. Shuningdek, biz shoirning yana bir "yurak" deb nomlangan she'ridan olingan to'rtlikni tahlil qilamiz.

Toshga aylansa ham mening yuragim,
Baribir "Vatan" deb uraveradi

Ushbu tortlikni tahlil qilishimiz uchun, avvalo, tosh va yurak so'zlariga e'tiborimizni qaratsak

"Tosh" - qattiq va sovuq jism. "Yurak" bu barcha tirik jonzotlarning asosiy hayotiylik belgisi sanalib, yashash uchun eng kerakli bo'lgan a'zo hisoblanadi. Inson barcha his-tuyg'u, kechinmalarini shu yurak orqali his qiladi. Bu to'rtlikda shoir aytmoqchiki, yuragimiz tosh kabi qattiq bo'lsa ham, Vatan degan joyda yumshaydi. Vatan shunday tuyg'uki, u aytilganda har qanday kimsa u xoh qallob bo'lsin, xoh o'g'ri bo'lsin yuragi selday oqadi. Hech qanday sabab, Vatan degan tuyg'uni so'ndira olmaydi, hamma uni his qiladi, u bilan birga yashaydi. Tosh va yurak so'zlari orqali ularning xususiyat sifati haqida so'z olib borgan va shu orqali metaforaning ikki jism o'rtasidagi o'xshashlik xususiyatidan foydalangan. Shu o'rinda, buyuk jadid bobokolonimiz Abdulla Avloniyning "Vatanni suymak" risolasidagi bir parcha e'tiborimizni tortadi va unda shunday fikrlar keltiriladi "Har bir kishining tug'ilib

o‘sgan shahar va mamlakatini shul kishining vatani deyilur, har kim tug‘ilgan, o‘sgan joyini jonidan ortiq suyur. Hatto bu – Vatan hissi hayvonlarda ham bor”.

Shoirning yana bir “Istak” nomli she’ridan olingan to‘rtligiga nazar tashlasak:

Ko‘z yoshlari daryo bo‘ldi bu dunyo,
Tutab-tutab ado bo‘ldi bu dunyo
Tinch kunlarni sog‘indi bir odamda
Urushlardan zada bo‘ldi bu dunyo

Ushbu to‘rtlikda dunyoning “ko‘z yosh to‘kishi” va “tutashiga” e’tiborimizni qaratamiz, buning uchun biz ushbu sozlarning lug‘aviy ma’nosini bilishimiz lozim. Ko‘z yosh - bu inson nimadandir g‘am chekkanda, xafa bo‘lganda yoki juda kuchli xursand bo‘lganda ko‘zdan oqadigan suyuqlik. Shoir bu so‘zni “ ko‘z yoshlari daryo bo‘ldi” deb ishlatishlarini sababi shundaki, juda chuqur qayg‘uga tushgan holatni tasvirlashni maqsad qilgan. Yig‘ining cheksizligi, ko‘pligi va davomiyligini daryoga tenglashtirgan. “Tutab-tutab ado bo‘ldi” birikmasiga e’tiborimizni qaratadigan bo‘lsak, ushbu birikma yurt uzoq vaqtlar davomida jabr-zulmlardan ezilib, ich-ichidan yemirilishini ifodalagan. Demak, shoir dunyoni harakatga keltirib, ikki jism o‘rtasida harakat o‘xshashligi asosida urush va uning oqibatida to‘kilgan ko‘z yoshlarini ana shunday betakror usulda ifodalagan.

Shoirning yana bir “Ota uy” nomli she’ridan olingan to‘rtlikka e’tiborimizni qaratamiz.

Keng qasrga kelin bo‘l,
O‘z oshyoning bo‘lakcha .
Ota uyin oldida,
Bu dunyo bir ko‘lmakcha.

Shoir ushbu she’rida shaklga nisbatan juda chiroyli metaforadan foydalangan. Bilamizki, dunyo bu butun koinot ana shu butun bir boshli koinotni “ota uy” oldida oddiygina bir ko‘lmakchalik kichikligini tasvirlagan. Bu ifoda orqali shoir, siz keng qasrga kelin bo‘lasizmi, butun bir dunyo sizniki bo‘ladimi, foydasiz! Hech qanday saroy va hashamatli uy ota uyingizdek bo‘lmaydi. Ota uyingizda yashaganchalik erkin yashay olmaysiz, o‘zingizni erkin his qila olmaysiz. Ushbu to‘rtlikda shoir butun dunyoni ota uyi oldida arzimas ko‘lmakcha ekanligini ifodalashda shakliy metaforadan mohirona foydalangan. Shu o‘rinda sevimli shoirimiz Abdulla Oripovning “Tilla baliqcha” she’ri beixtiyor yodimizga tushadi. Shoir tilla baliqcha timsoli orqali insonning cheklangan sharoitlari va ulkan imkoniyatlarni anglamasligi, faqatgina shu ko‘lmakni butun bir dunyo deb biluvchi kishilarni baliqcha timsoli orqali tasvirlagan.

Muhammad Yusuf she’rlarida metaforalardan shu qadar chiroyli va o‘z o‘rnida foydalanganki, bu shoir she’riyatida inson qalbining nozik jihatlarini ifodalashda muhim o‘rin tutadi. U o‘z she’rlarida mazmun va tasvirni uyg‘unlashtirib, o‘quvchiga chuqur ta’sir qiluvchi badiiy obrazlar yaratgan. Shu bois, uning metaforalari milliy ruh va umuminsoniy qadriyatlarni yuksak badiiylik bilan aks ettiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1.B.Jo'rayeva, O.Sharipova. "Metaforaning tilshunoslikda namayon bo'lishi" Buxoro davlat universitsti.
2.G.K.Qobuljonova. "Metaforaning sistemaviy lingvistik talqini".
3.Muhamad Yusuf. "Biz baxtli bo'lamiz". T: - 2008.
4.Dilmurod Quronov. "Adabiyot nazariyasi".
5.O'zbek tilining izohli lug'ati. Mobil ilova. 3.1 versiya.

7 – TOM 12 – SON / 2024 - YIL / 15 – DEKABR

ONA TILI DARSLARIGA QO‘YILADIGAN ZAMONAVIY TALABLAR

СОВРЕМЕННЫЕ ТРЕБОВАНИЯ К УРОКАМ РОЖДНОГО ЯЗЫКА

MODERN REQUIREMENTS FOR MOTHER LANGUAGE LESSONS

Urazboyeva Sabohat Ortiqboyevna
Urganch innovatsion university o‘qituvchi-stajyori
Telefon: +998(99)1517997
sabohat@icloud.com

Уразбоева Сабохат Артикбоевна
Преподаватель-стажер Ургенчского инновационного университета
Телефон: +998(99)1517997
sabohat@icloud.com

Urazboyeva Sabohat Artikboyevna
Teacher-trainee at Urganch Innovation University
Phone: +998(99)1517997
sabohat@icloud.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kun yoshlarini darsga jalb etish va zamonaviy darslarni tashkil etish to‘g‘risida gapirilgan. Shu jarayonda zamonaviy darslarga qo‘yiladigan talablar, dars tashkil etishdagi mantiqiylik va izchillilik va usullar yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: zamonaviy, dars, talab, mahorat, didaktik talablar, metodlar, texnologiya, zamonaviy dars turlari, aralash dars, umumlashtiruvchi dars.

Аннотация: В данной статье говорится о привлечении современной молодежи к занятиям и организации современных занятий. В этом процессе выявляются требования к современным урокам, логике и последовательности в организации и методах урока.

Ключевые слова: современный, урок, потребность, умения, дидактические требования, методы, технология, виды современных уроков, смешанный урок, обобщающий урок.

Abstract. This article talks about attracting today's youth to classes and organizing modern classes. In this process, the requirements for modern lessons, logic and consistency in lesson organization and methods are highlighted.

Key words: modern, lesson, demand, skills, didactic requirements, methods, technology, types of modern lessons, mixed lesson, summarizing lesson.

Ona tili darslari orqali o‘quvchilarda tilga bo‘lgan qiziqish, uning ahamiyatini anglash va tilni o‘rganishga rag‘bat uyg‘otish, mustaqil fikrlashni shakllantirishga, o‘z fikrlarini ifodalashga, qarorlar qabul qilishga va o‘z bilimlarini kengaytirishga yordam beradi. Bu maqsadga erishish uchun darslarda turli xil kreativ metod va usullar qo‘llanadi. Shu tarzda, ona tili darslarini tashkil qilishdan maqsad o‘quvchilarni tilni o‘rganish bilan birga, ularni umumiy bilim va ko‘nikmalar bilan ta’minlashdir. Bu esa o‘z navbatida ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlariga asos bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar yoshlarini hisobga olib o‘quv ishlari turli xillaridan foydalanishga, yangi bilimlarni berishni avval ilgari o‘rganilganni mustahkamlash, takrorlash bilan birga olib borishga to‘g‘ri keladi. Hatto tekshirish darslari ham bu yerda ko‘pincha ishlar boshqa turlarini o‘z ichiga oladi: materialni og‘zaki yetkazish. qiziharli hikoyani o‘qish. Darsning aynan mana shu turi aralash (kombinatsiyalashgan), yoki murakkab tuzilishli deb ataladi. Kombinatsiyalashgan darsning taxminiy tuzilishi:uy vazifalarini tekshirish va o‘quvchilar bilan savol-javob, yangi materialni o‘rganish, o‘zlashtirishini dastlabki tekshirish, mashq misollari davomida yangi bilimlarini mustahkamlash, ilgari o‘rganilganlarni suhbat ko‘rinishida takrorlash, o‘quvchilar bilimlarini tekshirish va baholash, uyga vazifa berish. Yuqori sinf o‘quvchilari turli ijtimoiy va madaniy muhitlarda yashaydilar. Darslarda o‘quvchilarning kundalik hayotidagi tajribalari, ijtimoiy muammolar, madaniy o‘ziga xosliklar bilan bog‘liq mavzularni muhokama qilish ularning dunyoqarashini kengaytiradi va tilni o‘rganish jarayonini yanada qiziqarli qiladi.

Yuqori sinflarda ona tili darslarini tashkil qilishda o‘quvchilarni nafaqat til bilimlari, balki umumiy madaniyat, axloqiy va ijtimoiy qadriyatlar bilan ham tanishtirish zarur. Bu o‘quvchilarning kelajakdagi muvaffaqiyatlari va jamiyatga foydali fuqarolar bo‘lishiga asos bo‘ladi. Ona tili darslariga qo‘yiladigan zamonaviy talablar pedagogik yondashuvlarning rivojlanishi va ta’limning sifatini oshirishga qaratilgan. Hozirgi kunda ona tili darslariga quyidagi talablar qo‘yilmoqda:

1. **Kompyuter texnologiyalaridan foydalanish**: Zamonaviy ta’limda kompyuter texnologiyalaridan samarali foydalanish muhimdir. Ona tili darslarida multimedia, interaktiv dasturlar, internet resurslari va elektron darsliklardan foydalanish talab etiladi. Bu o‘quvchilarning didaktik materiallarni qabul qilish jarayonini jonlantiradi.
2. **Interaktivlik va faol ishtirok**: Darslarda o‘quvchilarni faollashtirish, ular bilan muhokama qilish, turli vaziyatlar va topshiriqlarni hal qilishga undash kerak. Shuningdek, o‘quvchilarni guruhlar bo‘yicha ishlashga, fikr almashishga, bir-birlarini tinglashga rag‘batlantirish zarur.
3. **Individual yondashuv**: Har bir o‘quvchining qobiliyat va ehtiyojlarini inobatga olib, ona tili darslarida individual yondashuv talab etiladi. O‘quvchilarni

ularning bilim darajasiga mos ravishda dars jarayoniga jalb qilish va o‘z vaqtida yordam berish zarur.

4. **Kreativ va analitik fikrlashni rivojlantirish**: O‘quvchilarga kreativ fikrlash, tahlil qilish, o‘z fikrlarini mantiqiy ravishda izhor etish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim. Ona tili darslari bu kabi ko‘nikmalarni shakllantirishga yordam berishi kerak.

5. **Didaktik maqsadlar va natijalar**: Darslarda aniq maqsadlar belgilanishi va ularni amalga oshirishga yo‘naltirilgan ishlanma tizimi mavjud bo‘lishi lozim. Bu maqsadlar grammatik bilimlar, til va nutq madaniyati, yozma va og‘zaki nutqni rivojlantirishni o‘z ichiga olishi mumkin.

6. **Nutq madaniyati va kommunikativ kompetensiya**: O‘quvchilarni til va nutq madaniyati, muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan faoliyat olib borish zarur. Ularning og‘zaki va yozma nutqini to‘g‘ri va ravon shakllantirish talab etiladi.

7. **Tillararo va madaniyatlararo yondashuv**: Zamonaviy darslarda, o‘quvchilarga ona tili va boshqa tillar o‘rtasidagi farqlarni tushuntirish, madaniyatlarni o‘rganish va tilni turli madaniyatlar kontekstida qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirish talab etiladi.

8. **Darsning kognitiv va emotsional jihatlari**: Ona tili darslari nafaqat bilimlarni o‘zlashtirishga, balki o‘quvchilarning hissiy va intellektual rivojlanishiga ham qaratilgan bo‘lishi kerak. Bu o‘quvchilarning tilga bo‘lgan munosabatini shakllantiradi va motivatsiyalarini oshiradi.

9. **Insonparvarlik va axloqiy qadriyatlar**: Ona tili darslari o‘quvchilarni axloqiy va insonparvarlik qadriyatlariga ham o‘rgatishi kerak. Bu o‘quvchilarni to‘g‘ri so‘zlashga, boshqalarga hurmat ko‘rsatishga va adolatli bo‘lishga o‘rgatadi.

10. **O‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish**: Ona tili darslari o‘quvchilarga ijtimoiy mas’uliyatni tushuntirish va ular bilan jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlarda ishtirok etishga yordam berish zarur. Bu orqali o‘quvchilarning muloqot va ijtimoiy ko‘nikmalari rivojlanadi.

Ushbu talablar orqali ona tili darslari o‘quvchilarni nafaqat til o‘rganish, balki ularni umumiy bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qilishi kerak.

Xullas, mustaqillikning dastlabki yillaridayoq “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturining qabul qilinishi ta’lim sohasida muhim qadam bo‘ldi. Har bir ijtimoiy tuzum kelajagi, insoniyat istiqboli, kishilarning hayot va turmush darajasi fan va madaniyat taraqqiyoti bilan bevosita bog‘liqdir. Fan va madaniyatning rivojlanishi esa ta’lim-tarbiya ishlarining qay yo‘sinda olib borilishidan kelib chiqadi. Shu bois mamlakatimizning istiqlol yo‘lidagi birinchi qadamlaridanoq buyuk ma’naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, demografik va boshqa milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosat olib borish yoshlarning zamon talablari bilan uyg‘unlashtirish asosida jahon andozalari darajasiga chiqarishga katta ahamiyat berib kelinmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qosimova N. Ona tili ta'limi va yangi pedagogik texnologiyalar. Buxoro, 2009, 103
2. Matchonov S. "Boshlang'ich sinflarda ona tili va uni o'qitish metodikasi" (Boshlang'ich ta'lim talabalari uchun darslik).T:Ishonchli hamkor,2021-y
3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent-"O'zbekiston" -2016. 56 B.
4. www.ziyonet.uz
5. www.edu.uz

7 – TOM 12 – SON / 2024 - YIL / 15 – DEKABR

COMPARATIVE ANALYSIS OF STUDENT ASSESSMENT METHODS IN EUROPEAN EDUCATION SYSTEMS

Natalya Valerevna Drobchenko
Samarkand State Architecture and Construction University, Samarkand, Uzbekistan
76natalyadrobchenko@gmail.com
Faxriddinov Muhammad Faxriddin o'g'li
Teacher of Uzbek-Finnish Pedagogical Institute, Uzbekistan
fakhriddinovmukhammad0@gmail.com

Annotation: This essay presents a comparative analysis of student assessment methods used across various European education systems, offering insights into the diversity of approaches to measuring student performance. The primary aim is to explore how different countries in Europe assess students' academic achievements, focusing on both summative (final exams, standardized tests) and formative (ongoing assessments, teacher feedback) methods. The essay also investigates the role of assessment in shaping the educational experience, as well as its impact on student learning outcomes and future opportunities.

Key words: student assessment methods, comparative education, European education systems, assessment models in Europe, standardized testing, formative assessment, summative assessment, holistic assessment, educational policies in Europe, assessment practices across Europe, competency-based assessment, student evaluation, educational reforms in Europe.

Teachers in European countries use a variety of methods to assess students and teach, depending on the country's education system, culture, and policies. Here's an overview of how teachers in some European countries generally assess students and deliver lessons:

1. United Kingdom (England, Wales, Scotland, and Northern Ireland)

Assessment:

• **Grades and Marks:** Teachers in the UK typically use letter grades (A, B, C, D, U for ungraded) or numerical scores. GCSEs (General Certificate of Secondary Education) and A-levels (Advanced Level) are critical assessments taken by students around age 16 and 18, respectively. The final marks for these are based on exams and coursework.

• **Formative Assessment:** In addition to exams, teachers use continuous assessment methods like homework, class participation, presentations, and projects.

• **Standardized Testing:** Students undergo national exams at various stages of their schooling, such as Key Stage 2 tests (age 11) and GCSE exams (age 16).

Teaching Methodology:

• **Student-Centered Learning:** Teachers often employ interactive teaching techniques, such as discussions, group work, and problem-solving.

• **Subject Specialization:** Teachers specialize in a specific subject, such as mathematics, science, or English, and deliver subject-specific lessons.

• **Technology Integration:** Many teachers use technology, including online resources, digital platforms, and educational apps, to enhance lessons and student engagement.

2. Germany

Assessment:

• **Grades and Marks:** Teachers in Germany use a 6-point grading scale: 1 (very good) to 6 (unsatisfactory). Marks are typically given for assignments, exams, and projects.

• **Abitur:** The Abitur is the final examination at the end of secondary school (around age 18), and it plays a significant role in determining university entrance.

• **Continuous Assessment:** Teachers assess students' progress through regular tests, homework, and projects. However, the final grade is usually heavily weighted toward final exams.

Teaching Methodology:

• **Traditional and Structured:** German teaching is often more traditional, with a strong focus on lectures, structured lessons, and individual work.

• **Dual Education System:** Germany's vocational education system combines classroom learning with practical work experience. Students can choose between academic paths or vocational training.

• **Active Participation:** Although traditional, some teachers use group activities, discussions, and critical thinking tasks to encourage engagement.

3. France

Assessment:

• **Grades and Marks:** The grading system in France ranges from 0 to 20, with a passing grade of 10. Exams, homework, and projects contribute to students' grades.

• **Baccalauréat:** The Baccalauréat (often referred to as the Bac) is the final exam students take after completing secondary school (age 18). It is crucial for university admission.

• **Continuous Evaluation:** Teachers evaluate students through ongoing assessments like homework, written assignments, oral presentations, and group work.

Teaching Methodology:

• **Lecture-Based Learning:** French schools are typically more teacher-centered, with lessons delivered through lectures and instruction.

• **Critical Thinking:** Teachers encourage students to analyze, critique, and debate ideas, especially in subjects like philosophy, history, and literature.

• **Structured Curriculum:** The curriculum is highly structured, and subjects are often taught in depth. Students in high school have specialized tracks, such as science, economics, or humanities.

4. Italy

Assessment:

• **Grades and Marks:** Teachers in Italy use a 10-point scale, with grades ranging from 1 (very poor) to 10 (excellent). Exams, homework, and class participation all contribute to the final grade.

• **Maturità Exam:** This is the final exam at the end of secondary school (around age 18), which is essential for university admission.

• **Ongoing Assessments:** Teachers also assess students through projects, presentations, and classwork. The final grade is often a combination of continuous assessment and the final exam.

Teaching Methodology:

• **Lecture and Interaction:** Like France, Italy also favors traditional teaching, with a focus on lectures, discussions, and reading assignments.

• **Creative Projects:** In some subjects, particularly in the arts and sciences, teachers encourage creative projects and hands-on learning.

• **Student Engagement:** Teachers use interactive methods, including debates and group activities, to engage students in learning.

5. Sweden

Assessment:

• **Grades and Marks:** Sweden uses a grading scale from A to F, with A being the highest and E the lowest passing grade. Marks are based on exams, coursework, and class participation.

• **National Exams:** In upper secondary school (age 16-18), students take national exams that contribute to their final grade.

• **Continuous Evaluation:** Swedish teachers assess students' progress through projects, assignments, and classroom observations.

Teaching Methodology:

• **Student-Centered Learning:** Swedish education is highly student-centered, with a focus on fostering independent learning and critical thinking.

• **Collaborative Learning:** Group work, peer learning, and discussions are integral to the Swedish classroom.

• **Inclusive Education:** Swedish teachers prioritize inclusivity, ensuring that all students, regardless of ability, are actively involved in lessons.

6. Spain

Assessment:

• **Grades and Marks:** The grading scale in Spain ranges from 0 to 10, with 5 being the minimum passing grade. Teachers assess students through exams, homework, and projects.

• **Selectividad Exam:** At the end of high school, students take the Selectividad exam (also called the EvAU), which is critical for university entrance.

• **Ongoing Assessments:** Continuous evaluation is common, with teachers using homework, presentations, and participation to assess progress.

Teaching Methodology:

• **Traditional with Modern Elements:** Spanish teaching often combines traditional methods with modern approaches like group work, multimedia, and discussions.

• **Focus on Literacy:** Language skills, especially Spanish and foreign languages, are emphasized throughout education.

• **Specialized Tracks:** In high school, students choose between different tracks, such as science, arts, or humanities, and teaching focuses on their chosen area.

7. Netherlands

Assessment:

• **Grades and Marks:** The grading scale in the Netherlands ranges from 1 (very poor) to 10 (excellent), with 5.5 being the minimum passing grade.

• **Final Exams:** Students take final exams in their senior year, and these exams heavily impact their final grades and university admission.

• **Continuous Evaluation:** Teachers assess students through a mix of assignments, projects, and class performance, with a strong emphasis on independent research.

Teaching Methodology:

• **Problem-Based Learning:** Dutch education emphasizes problem-solving and critical thinking, with students encouraged to explore real-world issues.

• **Interactive and Collaborative:** Dutch teachers use a blend of lectures, group work, and collaborative projects to engage students.

• **Individualized Learning:** There is a focus on personalized learning, with students often having the flexibility to pursue topics of personal interest within the curriculum.

Common Themes Across Europe:

• **Grade-Based Systems:** Most European countries use a numeric or letter-based grading system, with assessments from both exams and continuous evaluation methods.

• **Student-Centered Approaches:** Many countries are increasingly shifting toward more student-centered teaching styles, focusing on collaboration, problem-solving, and critical thinking.

• **Standardized Testing:** National exams play a significant role in many countries, particularly in the final years of secondary education, influencing university admissions.

• **Focus on Skills Development:** Teachers focus not just on content knowledge but also on skills like communication, creativity, and teamwork.

Each country adapts its teaching and assessment methods to suit its educational priorities, balancing tradition and innovation to ensure students receive a comprehensive education.

REFERENCES:

1. Drobchenko, N. V., & Olimova, O. (2024). Revealing the Diverse Evolution of Ornamental Safeguards Across Societies. *Sustainable Infrastructure and Construction Engineering Journal*, *1*(1), 1-90.

2. Drobchenko, N. V., & Fakhriddinov, M. F. (2022). USING THE COREL DROW COMPUTER PROGRAM TO DEVELOP STUDENTS'CREATIVE ABILITIES THROUGH DRAWING.

3. Faxriddin o'g'li, F. M. (2024). THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE PROCESS OF ARTISTIC PERCEPTION IN THE PREPARATION OF FUTURE TEACHERS OF DRAWING FOR PROFESSIONAL ACTIVITIES. *PEDAGOG*, *7*(11), 5-10.

4. Faxriddin o'g'li, F. M. (2024). BO 'LAJAK CHIZMACHILIK FANI O 'QITUVCHILARINING KASBIY TAYYORLASHDA PEDAGOGIK ASOSLAR. *FAN VA TA'LIM INTEGRATSIYASI (INTEGRATION OF SCIENCE AND EDUCATION)*, *2*(3), 158-162.

5. Faxriddin o'g'li, F. M. (2024). CHIZMACHILIKDA KOMPYUTERLI LOYIHALASH VA DIZAYN. *FAN VA TA'LIM INTEGRATSIYASI (INTEGRATION OF SCIENCE AND EDUCATION)*, *2*(2), 147-150.

6. Faxriddin o'g'li, F. M. (2024). COMPUTER GRAPHICS: EXPLORING COMPUTER GRAPHICS IN AREAS DRAWING AND ARTS. *Новости образования: исследование в XXI веке*, *2*(19), 43-46.

7. Shodiyev, F. (2024). BOSHLANG 'ICH SINF O 'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA DIDAKTIK O 'YINLARDAN SAMARALI FOYDALANISH USULLARI. *Научный Фокус*, *1*(12), 220-225.

8. Teshaevich, S. F. The Role of Didactic Games in the Training of Future Teachers. *International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology*, *7*(10), 62-64.

9. Faxriddin, S. (2024). BOSHLANG 'ICH SINFLARDA INTERFAOL DARSLAR OLIB BORISH TEXNOLOGIYASI. *Научный Фокус*, *1*(12), 214-219.

10. Faxriddin o'g'li, F. M. (2024). MUHANDISLIK KOMPYUTER GRAFIKASI VA CHIZMACHILIK FANIDAN DIDAKTIK OYINLI TEXNOLOGIYALARNING KREATIV AHAMIYATI. *Новости образования: исследование в XXI веке*, *2*(20), 6-12.

11. Faxriddin o'g'li, F. M. (2024). CHIZMACHILIK FANI SIR-ASRORLARINI O'QUVCHILARNING ONGIGA YETKAZISHNING ZAMONAVIY YECHIMLARI. *Новости образования: исследование в XXI веке*, *2*(19), 142-148.

12. Fakhriddinov, M. Convenience of working with AutoCAD Software in Drawing and Drawing Geometry. *Fan va ta'lim integratsiyasi jurnali*, 165-170.

13. Teshaevich, S. F. (2024). THE PHONETIC SYSTEM OF UZBEK, FINNISH, ENGLISH AND DIFFERENCES BETWEEN THE VOWEL SOUNDS OF THIS THREE LANGUAGES. *AMERICAN JOURNAL OF EDUCATION AND LEARNING*, *2*(4), 253-261.

14. Teshayevich, S. F., & Ro'ziqulovna, X. J. N. (2024). BOSHLANG 'ICH SINF O'QUVCHILARINI TA'LIMGA ADAPTATSIYA QILISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI*, *1*(2), 183-188.

15. Faxriddinov, M. F. (2023). The impact of modern technology on education. *FAN VA TA'LIM INTEGRATSIYASI (INTEGRATION OF SCIENCE AND EDUCATION)*, *2*(2), 42-46.

7 – TOM 12 – SON / 2024 - YIL / 15 – DEKABR

ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH-OB'EKTIV ZARURIYAT

Begimqulova Laylo Mashrabovna
Jismoniy tarbiya va sport bo`yicha
mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini
oshirish instituti Farg`ona filliali "Sport psixologiyasi,
ijtimoiy-tabiiy fanlar" kafedrasi dotsenti
Tel: 97 966 84 82 e-mail: begimqulova@internet.ru

Annotatsiya: Tarixdan dars berish metodikasi ilmiy pedagogik fan bo'lib, o'quvchi yoshlarga tarixdan puxta bilim berish, maktab yoki bilim yurtida o'qitiladigan tarix kursining maqsadini, mazmunini, metod va usullarini hamda tarix o'qitishning eng muhim vositalarini belgilab beradi.

Kalit so'zlar: Texnologiya, ЮNESKO, diagnostik texnologiyalar, multimediyali texnologiya, muammoli o'qitish texnologiyasi, differensiallash texnologiyasi, interfaol.

Jamiyat rivojidagi ilmiy- texnikaviy taraqqiyot ishlab chiqarishni texnologiyalashririshga olib keladi. Hozirgi davrda texnologiyalashrirish jarayoni hayotimizga shiddat bilan kirib kelmoqda. Texnologiyalashtirish ob'ektiv jarayon bo'lib, ishlab chiqarishning barcha sohalariga kirib boradi, ular evolyusiyasining yangi vazifalarini sifatli hal etilishiga asos soladi.

Texnologiyalashrirish tushunchasini bevosita pedagogik jarayonlar bilan bog'lasak, u holda ta'lim- tarbiya qonuniyatlarini amalga oshirish, ularning yangi qonuniyatlarining o'ziga xos qirralarini kashf etish asosida umumiy maqsadga erishish-ijobiy sifat o'zgarishlariga ega bo'lgan barkamol avlod shaxsini shakllantirish tushuniladi. Yoki pedagogik texnologizasiyani shaxsda yangi sifat o'zgarishlarini loyihalovchi, kutilajak natijani kafolatlovchi, ta'lim- tarbiyani tashkil etish, boshqarish va amalga oshirishning tizimli jarayoni, deb tushunish mumkin.

Texnologiya tushunchasi "Texnologiya"- grekcha "techne" so'zidan olingan bo'lib, mahorat, hunar va "logos"- tushuncha, ta'limot ma'nosini anglatadi.

Texnologiya samarali vositalar yordamida ishlab chiqarishda mahsulotning sifat o'zgarishga olib keluvchi tizimli usullar yig'indisidir.

Pedagogik texnologiya ta'lim modellarini optimallashtirish maqsadida, inson va texnika resurslari va ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yaratish, qo'llash va aniqlashtirishning tizimli usulidir. (ЮNESKO)

"Pedagogik texnologiya- ta'lim maqsadlariga va shaxsning rivojlanishiga qaratilgan pedagogik faoliyatni mutassil ravishda rivojlantirish tizimini loyihalashdir" (N.Azizxo'jaeva).

Pedagogik texnologiyalar ta'lim- tarbiya jarayoniga o'ziga xos bo'lgan innavasion yondashuvdir. U pedagogikada ijtimoiy- muhandislik tafakkurining ifodasi, o'qitish, tarbiyalash jarayonini ma'lum darajada standart holatga solib, uning optimal loyihasini tuzish bilan bog'liq tushunchadir. Jumladan, o'qitishning vazxonlik usulilaridan voz kechib, kompyuterlar, ta'limning texnik vositalari yordamida o'qitish, o'quvchining bilish faoliyatining boshqaruvchisi, tashkilotchisi, maslahatchisi, yakuniy natijaga erishishga yo'lovchi- o'qituvchi, ustoz rahbarligida o'quvchilarning ko'proq mustaqil faoliyatini tashkil etish va eng muhimi o'qituvchining deyarli har xil natijaga erishish imkoniyatining mavjudligidir. Ayniqsa, o'qitishga yagona davlat ta'lim standartlari joriy etilgan, jahonning barcha davlatlari andozalari talabiga javob bera oladigan mutaxassislar tayyorlashning hozirgi davrida keyingi holat alohida ahamiyat kasb etadi. O'quv jarayonini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilganda ta'lim maqsadlari belgilanadi yoki loyihalanadi, kutilayotgan yakuniy natija- ijobiy sifat o'zgarishi kafolatlanadi, o'quv jarayonining takrorlanuvchi sikli yaratiladi, tezkor qaytuvchi aloqa vujudga keladi, o'quv maqsadlari, o'quv jarayoniga kerakli tuzatishlar kiritilib borilaveradi.

Pedagogik jarayonni tafakkur asosida standartlash loyihasi g'oyasi XVI asrda yashagan slavyan pedagogi Ya.O. Komenskiy tomonidan ilgari surilgan edi. U o'zining "Buyuk didaktika" deb nomlangan mashhur asarida ta'lim- tarbiya jarayonini bir qolipga solmoqchi bo'lganki, unda "har bir usul va narsalar vaqt jihatidan" shunday joylashtirilishi kerak ediki, "butun pedagogik jarayon yaxshi sozlangan soat kabi bexato yurishi kerak" edi. Buyuk pedagog Ya.O.Komenskiy etmagan orzuga XX asr pedagoglari etib, pedagogik texnologiyalar yaratishdi. XXI asrda bu ijtimoiy voqelik innovasion pedagogik texnologiyalar nomini olib, butun dunyo pedagoglariga dasturamal bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

Amaliyotda qo'llanilayotgan pedagogik texnologiyalarni umumlashtirib, quyidagicha turkumlash mumkin.

- insonparvarlik va demokratik pedagogik munosabatga asoslangan pedagogik texnologiyalar (shaxsiy munosabatni shakllantirish, yakka holdagi yondoshuv, demokratik boshqaruv, insonparvarlikka yo'naltirilgan texnologiyalar)

- ta'lim oluvchilarni faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan pedagogik texnologiyalar (o'yinli texnologiyalar, muammoli o'qitish, kommunikativ o'qitish texnologiyalari kabi)

- o'qitish jarayonini samarali tashkil etish va boshqarishga asoslangan pedagogik texnologiyalar (dasturli o'qitish, differensiyali o'qitish texnologiyasi, yakka holda o'qitish, istiqbolli o'qitish, guruhli va jamoali o'qitish texnologiyasi, axborotli texnologiya kabi)

- o'quv materialini metodik taqqoslashtirish va didaktik rekonstruksiya qilishda pedagogik texnologiyalar. (aqliy harakatni shakllantirishning tartibli texnologiyasi, didaktik birlikni mustahkamlash texnologiyasi va boshqalar).

- xalq pedagogikasiga asoslangan texnologiyalar.

Ta'lim- tarbiya amaliyotida keng qo'llanilayotgan pedagogik texnologiyalarning turlaridan namunalar keltirish mumkin:

- kompyuterli- axborot texnologiyalari;
- modul texnologiyasi;
- diagnostik texnologiyalar;
- multimediyali texnologiya;
- muammoli o'qitish texnologiyasi;
- differensiallash texnologiyasi;
- dasturli ta'lim texnologiyasi;
- masofadan o'qitish texnologiyasi;
- mustaqil ta'lim texnologiyasi;
- bilimni baholash texnologiyasi;
- tarbiyalanganlik darajasini aniqlash texnologiyasi;
- pedagogik hamkorlik texnologiyasi;
- o'yinlar texnologiyasi; (imitasion o'yinlar, rolli o'yinlar, o'yin- munozara kabi).
- interfaol usulli texnologiyalar va boshqalar.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. "Ma'rifat" gazetasi, 1998 yil 19 avgust.
2. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T., "Sharq", - 1997 y.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini isloh qilish bo'yicha me'yoriy hujjatlar. I qism. - Toshkent, 1998 yil.
4. Nabiev A., Bo'riev O., Shaymardonov I.O'zbekiston tarixini o'qitishda etnografik materiallardan foydalanish. -T., "O'qituvchi", 1996, -127 s.
5. Rahmatullaev T. O'zbekiston xalqlari tarixini o'qitishda arxeologiya materiallaridan foydalanish: (O'qituvchilar uchun qo'llanma). -T. "O'qituvchi", 1994. -96 y.

7 – TOM 12 – SON / 2024 - YIL / 15 – DEKABR

“ BO’LAJAK O’QITUVCHILARDA BADIIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH METODOLOGIYASI VA MAZMUNI ”

Rasulova Homidabonu Nu’monxon qizi

Farg’ona Davlat Universiteti Musiqa ta’limi va san’at yo’nalishi fakulteti 2-bosqich magistranti

Ilmiy rahbar: **Murodova D.R.** *(PhD)*

Annotatsiya O‘qituvchi, muallim – turli yo‘nalishdagi o‘rta umumiy ta’lim maktablar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida o‘quvchilar bilan ta’lim-tarbiya ishlarini amalga oshiradigan mutaxassisdir. O‘qituvchilik kasbi juda qadim zamonlardan buyon inson faoliyatining alohida turi sifatida mavjud. Chunki inson faqat ta’lim tarbiya tufayligini hayotini davom ettirib, rivojlantira oladi.Shu sababdan ham, o’qituvchining tafakkuri keng va badiiy bo’lishi kerak. Mazkur maqolada bo’lajak o’qituvchining ana shu jihatlarini rivojlantish haqida so’z olib boriladi.

Kalit so’zlar: pedagog,tafakkur, aqliy faoliyat, saviya, badiiy tafakkur, kreativlik, badiiy estetika.

Абстракт Учитель - это специалист, осуществляющий воспитательную работу с учащимися школ, учебных заведений в разных направлениях. Профессия учителя существует с давних времён, как особый вид человеческой деятельности. Потому что человек развивает самого себя только благодаря образованию. Поэтому мышление учителя должно быть широким и художественным. В этой статье будет говорится о развитии этих навыков в будущем учителе.

Ключевые слова: педагог, мышление, умственное деятельность, художественнное мышленте, креативность, эстетичность.

Abstract A teacher is - a specialist, who carries out educational work with students in various directions. The teaching profession has existed since ancient times as a special type of human activity. Because a person can only continue and develop his passion due to education. For this reason, the teacher’s thinking should be broad and artistic. This article talks about the development of these aspects of the future teacher.

Key words: teacher,thinking, mental activity, level, artistic thinking, creativity, artistic aesthetics.

O‘qituvchilik kasbi juda qadim zamonlardan buyon inson faoliyatining alohida turi sifatida mavjud. Chunki inson faqat ta’lim tarbiya tufayligini hayotini davom ettira va rivojlantira oladi. Sharq mamlakatlari, jumladan, Turkiston o‘lkasida ham o‘qituvchi eng qadimiy va obro‘li kasb hisoblanib, „ustoz“ deb e’zozlangan. O‘lkaga

islom dini kirib kelishi bilan har bir qishloq, shaharlardagi har bir mahallada masjid va deyarli har bir masjid qoshida maktab tashkil etildi.

XIX asrning oxiridan, ya'ni o'lkada ma'rifatchilik harakati paydo bo'lishi bilan o'qtuvchining saviyasiga alohida e'tibor beriladigan bo'ldi. Turkistonda an'anaviy yo'sinda o'qitadigan o'qtuvchilar bilan birga Yevropa mamalakatlaridan o'zlashtirilgan usullarda dars beradigan yangi muallimlar ham faoliyat ko'rsata boshladi. Bu hol, ayniqsa, jadidchilik harakati avj olgan kezlarda ancha keng yoyildi. O'qtuvchilar saviyasining oshganligi millat ruhiyatida uyg'onish bo'lishiga, taraqqiyotning bir qadar tezlashuviga olib keldi.

Shuni aytish kerakki, o'qituvchi alohida ijtimoiy hodisa bo'lib, jamiyat a'zolarining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgani uchun ham uning shaxslik sifatlari kasbiy fazilatlaridan muhimroq hisoblanadi. Chunki u jamiyatning buguni va ertangi kuni qiyofasini shakllantiradi. Shuning uchun ham o'qituvchining professional jihatdangina yetuk bo'lishi kifoya qilmaydi. Uning ma'naviy olami o'quvchilarga singdirilishi ko'zda tutilgan ezgu insoniy sifatlarga to'yingan bo'lishi kerak. O'qituvchilar tayyorlanadigan o'quv yurtlarida ayni shu jihatga alohida e'tibor qaratiladi.

Hozirgi pedagogika fani o'qituvchining amaliyotchilik, tadqiqotchilik, tashkilotchilik, vositachilik, ijrochilik singari vazifalari borligini qayd etadi. Ana shu vazifalarni to'la uddalaydigan o'qituvchigina bugungi yosh avlodning barkamol shaxslar sifatida shakllanishiga ta'sir ko'rsata oladi. Istiqlol davri o'qituvchilarida ana shunday xususiyatlarni qaror toptirish mamlakat taraqqiyotini ta'minlash omilidir.

Komil insonni shakllantirish va tarbiyalash tushunchasi eng avvalo oila va jamiyat hayotidagi uzviylikka borib taqaladi. Farzandlarimizga ibrat qilib ko'rsatiladigan manbaalar qanchalik ular ruhiyatiga yaqin bo'lsa, shunchalik ularning ma'naviy tafakkuriga chuqurroq singib boradi.

Tafakkur — inson aqliy faoliyatining yuksak shakli bo'lib, u obyektiv voqelikning ongda aks etish jarayonini boshqaradi. Shuningdek atrof muhitni, ijtimoiy hodisalarni, voqelikni bilish quroli, inson faoliyatini amalga oshirishning asosiy sharti sanaladi. U sezgi, idrok, tasavvurlarga qaraganda voqelikni to'la va aniq aks ettiruvchi yuksak bilish jarayonidir. Tafakkur deb, voqelikdagi narsa va hodisalarni ular o'rtasidagi bog'lanishlarni fikran, umumlashtirib, vositali yo'l bilan aks ettirishga aytiladi. Voqelik tafakkurda, idrok va tasavvurgina nisbatan chuqurroq va to'laroq aks etadi. Biz sezgi, idrok vositasi bilan bilib olishimiz mumkin bo'lmagan narsa yoki hodisalarni, narsa yoki hodisalarning xususiyatlarini, ularning bog'lanish va munosabatlarini tafakkur vositasi bilan bilib olamiz. Tafakkur jarayonida insonda fikr, mulohaza, g'oya, faraz kabilar vujudga keladi va ular shaxsning ongida tushunchalar, hukmlar, xulosalar shaklida ifodalanadi. Tafakkur, til va nutq bilan chambarchas bog'liq ravishda namoyon bo'ladi. Fikrlash faoliyati nutq shaklida namoyon bo'ladi. Nutq aloqasi jarayonida insonning hissiy mushohada doirasi kengayib qolmay, orttirilgan tajriba boshqa kishilarga ham beriladi. Inson o'zining tafakkuri, nutqi hamda ongli xatti-harakati bilan boshqa

mavjudotlardan ajralib turadi. U fikr yuritish faoliyatida o‘zida aks ettirgan, idrok qilgan, tasavvur etgan narsa va hodisalarning haqiqiyligini aniqlaydi, hosil qilingan hukmlar, tushunchalar, xulosalar chin yoki chin emasligini belgilab oladi. Inson tafakkuri orqali voqelikni umumlashtirib, bevosita (bilvosita) aks ettiradi, narsa va hodisalar o‘rtasidagi eng muhim bog‘lanishlar, munosabatlar, xususiyatlarni anglab yetadi. Binobarin, inson muayyan qonun, qonuniyat va qoidalarga asoslangan holda ijtimoiy voqea va hodisalarning vujudga kelishi, rivojlanishi hamda oqibatini oldindan ko‘rish imkoniyatiga ega.

Tafakkur ko‘pgina fan sohalari (falsafa, mantiq, jamiyatshunoslik, fiziologiya, kibernetika, biologiya)ning tadqiqot ob’yekti hisoblanadi. Psixologiyada tafakkur voqelikni umumlashtirish darajasiga, muammoni yechish vositasi xususiyatiga, holatlarning inson uchun yangiligi, shaxsning faollik ko‘rsatish darajasiga ko‘ra bir necha turlarga (ko‘rgazmali harakat, ko‘rgazmali obrazli, amaliy, nazariy, ixtiyoriy, ixtiyorsiz, mavhum, ijodiy va hokazo) ajratib tadqiq qilinadi. Ijtimoiy hayotda, ta’lim jarayoni va ishlab chiqarish.da odamlar o‘rtasidagi aloqa va munosabatlar ham tafakkur yordamida namoyon bo‘ladi. Jamoada tanqidiy qarash, o‘zini o‘zi tanqid, baholash, tekshirish, o‘zini o‘zi tekshirish, nazorat qilish, o‘zini o‘zi nazorat qilish, guruhiy mulohaza yuritishdan iborat tafakkur sifatlari vujudga keladi. Insonning inson tomonidan idrok kilinishi ham tafakkur bilan uzviy aloqadadir. Ijodiy ishlar, kashfiyotlar, ixtirolar, takliflar tafakkurning mahsuli hisoblanadi. Psixologiya tafakkurning filogenetik (insoniyat paydo bo‘lishi davri), ontogenetik (kishi umri davomida) bilishga oid tarixiy jihatlarini ham o‘rganadi. Hozirgi zamon fanining juda ko‘p murakkab masalalari tafakkurdagi mantiqiy jarayonlarni yanada chuqurroq o‘rganishni taqozo etmoqda.

Tafakkurning chuqurligi deganimizda moddiy dunyodagi narsa-hodisalarning asosiy qonunlari, qonuniyatlari, xossalari, sifatlari ularning o’zaro bog’lanishlari, munosabatlari, tafakkurimizda to’liq aks etganligini tushunishimiz kerak. Tafakkur arsenalida joylashgan narsalarning qay yo’sinda sistemalashganligiga qarab to’g’ri va ratsional yo’l nazarda tutiladi, u yoki bu shaxsning tafakkur chuqurligi to’g’risida qat’iy bir qarorga kelish mumkin.

Tafakkurning kengligi o’zining mazmundorligi, chuqurligi kabi sifatlari bilan muntazam aloqada bo’ladi. Insonlardagi narsa va hodisalarning eng muhim belgi, xususiyatlarini o’zida mujassamlashtirgan o’tmish yuzasidan, hozirgi davr haqida, shuningdek, kelajak to’g’risida mulohazalar, muammolar va tushunchalarni qamrab olgan tafakkur keng tafakkur deyiladi. Fikr doirasi keng bilim saviyasi yuqori serg’oya ijodiy izlanishdagi kishilarni aql zakovatli, bilimdon yoki tafakkuri keng kishilar deb atash mumkin. Demak, insonning aql-zakovati, bilimdonligi mulohazadorligi uning tafakkurining kengligidan dalolat beradi.

Badiiy tafakkur inson tafakkuri bilan o‘zaro aloqadorlikda rivojlanadi. Ya’ni insonning tarix sahnasidagi ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy, siyosiy taraqqiyoti to‘g‘ridan-

to‘g‘ri badiiy obrazlarga ko’chib o’tgan bo’ladi. Badiiy tafakkurli inson yoki pedagog kreativ fikrlaydi, o’ziga xos badiiy ijod namunalarini yaratadi, borliqni badiiy estetik tarzda tasavvur qiladi. Badiy tafakkurli pedagog bilan tafakkurli inson arasia shunday farqlar mavjud.

Xulosa o’rnida shuni aytish kerakki, yuqorida aytib o’tilganidek insonning tafakkur doirasi qanchalik keng bo’lsa, uning aql-zakovatli, bilimdon, mulohazadorligida namoyon bo’ladi. Badiiy tafakkur esapedagogga kreativ fikrlash, zamon bilan ham-nafas bo’lgan xolda milliylikni yoshlarga singdirishda yordam beradi. Ushbu fazilatlar esa bo’lajak o’qituvchilar uchun eng kerakli hislat hissoblanadi, zero o’qituvchi qo’lida butun bir millat kelajagi turadi.

ADABIYOTLAR RO’YHATI:

1. Barkamol avlod orzusi. T.1998.
2. O’zbek pedagogikasi ontologiyasi. T.1999.
3. O’qituvchi kitobi. T. 1997.
4. O’zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2000-2005
5. “ Badiiy ijodiy tafakkur. A.S.Umarov maqolasi.

7 – TOM 12 – SON / 2024 - YIL / 15 – DEKABR

ESKROU (SHARTLI DEPONENTLASH) TUSHUNCHASI VA MOHIYATINING YURIDIK TAHLILI

Fayzullayev Muxriddinxon Sadriddinovich
Mustaqil tadqiqodchi: «Premium legal» advokatlik byurosi advokati –

Aslida, qon quyishdan oldingi muvofiqlik tekshiruvi asosan serologik testga asoslanadi, ammo kam uchraydigan qon guruhi antigenlarini tekshirish uchun ko‘plab antitelo reagentlari mavjud emas. Genotiplash serologiya cheklovlarini bartaraf etadi, yuqori o‘tkazuvchanlikli testni o‘tkazish imkoniyatiga ega va kam uchraydigan qon guruhi antigenlarini osonroq aniqlash imkonini beradi. Yuqorida aytib o‘tilganidek, PCR-RFLP, PCR-SSCP, DNK ketma-ketligini aniqlash va boshqalar qon guruhini aniqlash uchun ishlatiladigan umumiy genetik testlardir. Ular kam uchraydigan qon turlarini aniqlash va kam uchraydigan qon antigeni genlarining meros bo‘lib o‘tishi va chastotasini o‘rganish uchun qo‘llaniladi, masalan, real vaqt rejimidagi fluoressent PCR NGS ham maxsus antitelolarni bilmasdan kam uchraydigan qon turlarini aniqlash uchun mos keladi

Muhokama: Hozirgi kunda ko‘p sonli va yuqori o‘tkazuvchanlikka ega bo‘lgan tezkor va tejamkor genotiplash to‘plamlari mavjud bo‘lib, ular keng miqyosda kam uchraydigan qon guruhi genotiplashni amalga oshirish imkonini beradi. Bundan tashqari, ba’zi yangi aniqlash usullari ham oz miqdordagi namunalardan foydalangan

holda kam uchraydigan qon guruhlarini aniqlashi mumkin, masalan, Kleeneks qog‘oz sochiqqa asoslangan elyutsiya va to‘g‘ridan-to‘g‘ri oqim usullari, bromokrezol yashil qog‘oz tasma, nitrosellyulozaga asoslangan lateral oqim texnikasi (MDmulticardR), mikrooqimli ipga asoslangan analitik qurilma, SPR texnikasi va boshqalar. Ushbu kam uchraydigan qon guruhini aniqlash yondashuvlari eng istiqbolli strategiyalarni yoritib berishi mumkin.

Xulosa: Qisqa qilib aytganda, qon guruhlarini aniqlashning yangi texnologiyalari doimiy ravishda paydo bo‘lmoqda. Yangi qog‘oz tasmalari, biosensorlar, SPR, mikrofluid qurilmalar, mikrosxemalar, genlarni ketma-ketlash va boshqalar qon guruhlarini aniq va tez aniqlay oladi, ammo ularning qo‘llanilishiga uzoq muddat va/yoki yuqori xarajatlar to‘sqinlik qilishi mumkin. Qon guruhlarini aniqlash usullarining tasnifi va taqqoslanishi. Bundan tashqari, tezkor, tejamkor, oddiy va bevosita parvarish joyida qo‘llaniladigan qon guruhlarini aniqlash usullarini ishlab chiqish va tasdiqlash yotoq yonida qon quyishdan oldingi muvofiqlikni tekshirish, shuningdek favqulodda vaziyatlarda yoki laboratoriya imkoniyatlari mavjud bo‘lmagan chekka hududlarda qon turini tezkor aniqlash uchun foydali bo‘ladi. Umid qilamizki, qon guruhlarini aniqlash sohasidagi tadqiqotlar rivojlanishda davom etadi va yangi avlod yutuqlarini o‘z ichiga oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Dilshodovich K. H. SHIELD OF INTESTINAL MICROFLORA CHANGE EFFECT ON THE GLANDS //American Journal of Pediatric Medicine and Health Sciences (2993-2149). – 2023. – Т. 1. – С. 81-83.

2. Karabayev S. et al. SOG'LIQNI SAQLASHDA TELETIBBIYOT IMKONIYATLARI, XUSUSIYATLARI VA TO'SIQLARI //Уевразийский журнал медицинских и естественных наук. – 2023. – Т. 3. – №. 2 Part 2. – С. 41-46.

3. Шадманова Н. К., Халилов Х. Д. НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЙ ИНТЕРЕС ИЗУЧЕНИЯ ВЕГЕТАТИВНОЙ РЕГУЛЯЦИИ ДИЗАДАПТИВНЫХ РЕАКЦИЙ СЕРДЕЧНО-СОСУДИСТОЙ СИСТЕМЫ //Евразийский журнал академических исследований. – 2023. – Т. 3. – №. 8. – С. 126-134.

4. Xalilov H. et al. TELEMEDITSINANING PROFILAKTIK DAVOLANISHDA AHAMIYATI //Евразийский журнал академических исследований. – 2024. – Т. 4. – №. 4 Part 2. – С. 66-70.

5. Xalilov X. D., SHadmanova N. K., Qayumov M. N. Gipertireorizmni exsperemental modellashtirish. – 2023.

6. Dilshodovich K. H., Normurotovich K. M., Akromovich E. A. RELATIONSHIP BETWEEN THYROID DISEASE AND TYPE 2 DIABETES. – 2023.

7. Berdiyev O. V. et al. Telemeditsina Orqali Qalqonsimon Bez Kasalliklarini Boshqarish //Open Academia: Journal of Scholarly Research. – 2024. – T. 2. – №. 6. – C. 69-74.

8. Xalilov H. D. et al. GIPERTIROIDIZM VA YURAK ETISHMOVCHILIGI //Research and Publications. – 2024. – T. 1. – №. 1. – C. 60-63.

9. Normurotovich Q. M., Dilshod ogli X. H. RODOPSIN G OQSILLARI FILOGENETIK TAHLIL //Journal of new century innovations. – 2023. – T. 43. – №. 2. – C. 178-183.

10. Qayimov M., Ganjiyeva M. GIPOTIROIDIZM VA YURAK ETISHMOVCHILIGI //Eurasian Journal of Academic Research. – 2024. – T. 4. – Yo‘q. 5 3-qism. – 14-19-betlar.

11. Dilshod ogli X. H. et al. BOSH MIYA YARIMSHARLARI FIZIOLOGIYASI //International Journal of Education, Social Science & Humanities. – 2024. – T. 12. – №. 11. – C. 495-499.

12. Normurotovich Q. M., Uktam ogli T. F., Kurbanovna S. N. Covid-19 Davrida Sogliqni Saqlashda Telemeditsina //Journal of Science in Medicine and Life. – 2024. – T. 2. – №. 3. – C. 114-118.

13. Normurotovich Q. M., Sodiq ogli B. S. COVID-19 BILAN KASALLANGAN BEMORLARDA YURAK-QON TOMIR TIZIMIDA ASORATLAR KELIB CHIQISHI SABABLARI //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – T. 34. – №. 3. – C. 62-66.

14. Normurotovich Q. M. et al. Miokard Infarktida Telemeditsinaning ORni //Open Herald: Periodical of Methodical Research. – 2024. – T. 2. – №. 7. – C. 15-17.

15. Dilshod ogli X. H., Mirusmonovna M. N., Tojiddinovna J. M. QON QUYISHNING ZAMONAVIY USULLARI //JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH. – 2024. – T. 7. – №. 11. – C. 104-110.

16. OV X. B. E. R. B. M. B., Nortayev A. B. Operativ xirurgiya va uning vazifalari. xirurgik operatsiya turlari. – 2023.

7 – TOM 12 – SON / 2024 - YIL / 15 – DEKABR

QANDLI DIABETNING YOSHLAR O‘RTASIDA TARQALISHI SABABLARI VA QARSHI KURASH CHORALARI VA OQIBATLARI

Yusupova Maxira
Kultaev Shuxratjon Xolboevich
Movlonov Azizbek

Annotatsiya: Ushbu maqola qandli diabetning yoshlar orasida tarqalishi sabablarini va unga qarshi kurashish choralarini tahlil qiladi. Diabetning yoshlar orasida tez tarqalishining asosiy omillari noto‘g‘ri ovqatlanish, jismoniy faollikning kamligi, stress va genetika kabi faktorlar bilan bog‘liqdir. Yoshlarning o‘zgaruvchan hayot tarziga mos keladigan profilaktik chora-tadbirlar, jumladan, sog‘lom ovqatlanish, muntazam jismoniy faoliyat va stressni boshqarish orqali diabetning oldini olish mumkin. Maqolada shuningdek, qandli diabetni boshqarish bo‘yicha ta’lim va qo‘llab-quvvatlash dasturlarining roli ham yoritiladi. O‘zbekiston va boshqa mamlakatlardagi yoshlar o‘rtasida qandli diabetning tarqalishi va unga qarshi kurashishning samarali usullari haqida so‘nggi tadqiqotlarga asoslanilgan.

Kalit so‘zlar: Qandli diabet, yoshlar, noto‘g‘ri ovqatlanish, jismoniy faollik, stress, diabetga qarshi kurash, profilaktika, sog‘lom hayot tarzi, ta’lim dasturlari, diabetning oldini olish

Mavzuning Dolzarbligi: Qandli diabetning yoshlar o‘rtasida tarqalishi hozirgi kunda global sog‘liq muammolaridan biriga aylanmoqda. Yoshlar orasida bu kasallikning tez sur’atlarda ko‘payishi, kelajakda jiddiy sog‘liq muammolariga, shu jumladan, buyrak va ko‘z kasalliklar, kardiovaskulyar kasalliklariga olib kelishi mumkin. Shuning uchun diabetni yoshlar o‘rtasida oldini olish va profilaktika qilish, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish hozirgi va kelajakdagi sog‘liqni saqlash siyosatida muhim ahamiyatga ega. Bu mavzu nafaqat tibbiyot sohasidagi mutaxassislar uchun, balki yoshlar va ularning oilalari uchun ham dolzarb masaladir.Oxirgi yillarda qandli diabet, xususan, 2-toifa diabet yoshlar orasida tez sur’atda kengaymoqda. Ilgari ko‘proq o‘rta yosh va keksa odamlarda uchraydigan bu kasallik endilikda yosh avlodni ham ta’sir ostiga olmoqda. Yoshlar o‘rtasida diabetning tarqalish omillari murakkab bo‘lib, ular turmush tarzi, ovqatlanish odatlari, texnologiyalarning ta’siri va genetika bilan bog‘liq.

Diabet Tarqalishining Asosiy Sabablari

Noto‘g‘ri Ovqatlanish Odatlari Bugungi kunda yoshlar o‘rtasida tez tayyorlanadigan, qayta ishlangan va yuqori kaloriyali oziq-ovqatlarga talab ortgan. Fast food, gazlangan ichimliklar, shirinliklar va qand miqdori yuqori mahsulotlarni iste’mol qilish insulin qarshiligini kuchaytiradi va tana vaznining ortishiga sabab

bo‘ladi. Qandli diabetni rivojlanishida ortiqcha tana vazni va noto‘g‘ri ovqatlanish katta rol o‘ynaydi

Kam Harakatlilik va Texnologiyalarga Bog‘liqlik Kompyuter o‘yinlari, televizor va mobil telefonlarning o‘rni oshishi bilan yoshlar kamroq harakat qiladigan bo‘lib qolishdi. Jismoniy faoliyatning kamligi metabolizmning sekinlashishiga olib keladi, bu esa qandli diabet uchun xavf omilidir. Tadqiqotlarga ko‘ra, haftasiga kamida 150 daqiqa jismoniy faoliyat diabet xavfini kamaytiradi

Genetik Omillar Diabetga chalingan ota-onalarning farzandlarida diabet rivojlanish xavfi yuqori bo‘ladi. Ammo genetika o‘z-o‘zidan diabetni chaqirmaydi, balki xavfni oshiradi. Bunday sharoitlarda noto‘g‘ri turmush tarzi va yuqori kaloriyali oziqlanish diabetning rivojlanishini tezlashtirishi mumkin.

Stress va Uyqu Rejimining Buzilishi Stress hamda uyquning yetarli bo‘lmasligi yoshlarning endokrin tizimiga salbiy ta’sir qiladi va qandli diabet xavfini oshiradi. Stress gormonlarining ko‘tarilishi glyukozaning ko‘payishiga sabab bo‘ladi, bu esa insulin qarshiligini keltirib chiqaradi. Uyquning yetarli bo‘lmasligi esa bu jarayonni yanada kuchaytiradi

Qarshi Kurash Choralari

1. **Sog‘lom Ovqatlanish Odati** Yoshlarni yuqori kaloriyali va qayta ishlangan mahsulotlardan uzoqroq tutish kerak. Yangi sabzavot va mevalar, protein manbalari va sog‘lom yog‘lardan tashkil topgan oziqlanish rejasi tavsiya etiladi. Shuningdek, uglevodlarni kamaytirish va glyukemik indeksi past bo‘lgan oziq-ovqatlarni iste’mol qilish orqali qon shakar darajasini boshqarish mumkin
2. **Jismoniy Faollikni Oshirish** Har kuni kamida 30 daqiqa jismoniy mashqlar qilish, sport turlari bilan shug‘ullanish va kunlik yengil harakatlar diabet xavfini sezilarli darajada kamaytiradi. Jismoniy faoliyat nafaqat metabolizmni faollashtiradi, balki stressni kamaytirish va ruhiy barqarorlikni ta’minlashga ham yordam beradi
3. **Diabet Ta’limi va Rivojlangan Qo‘llab-quvvatlash Dasturlari** Ota-onalar va ta’lim muassasalarida qandli diabetning oldini olish va profilaktik chora-tadbirlar to‘g‘risida tushuntirish ishlarini olib borish muhimdir. DSMES (Diabetes Self-Management Education and Support) kabi dasturlar yoshlar va ularning oilalariga diabetni boshqarish bo‘yicha bilim beradi va kasallik xavfini kamaytirish uchun hayot tarzini yaxshilashga yordam beradi
4. **Uyqu Rejimini Tuzatish** Har kuni 7-8 soat davomida sifatli uyqu qandli diabet xavfini kamaytirishga yordam beradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, uyquni to‘g‘ri tashkil qilish va stressni boshqarish orqali qonda glyukoza darajasini me’yorda saqlash
5. **Stressni Boshqarish** Yoshlar uchun stressni kamaytirish va psixologik qo‘llab-quvvatlash muhimdir. Meditatsiya, yoga, va nafas olish mashqlari kabi usullar ruhiy barqarorlikni oshirishga va diabet xavfini kamaytirishga yordam beradi. Oila

a’zolari va yaqin do‘stlarning qo‘llab-quvvatlashi ham stressni kamaytirish uchun muhim omildir

Qandli diabet yoshlar orasida nazorat qilinmasa va unga qarshi kurash choralari ko‘rilmasa, bir qator jiddiy asoratlar yuzaga kelishi mumkin. Quyida ularning asosiylari keltirilgan:

1. **Kardiovaskulyar Kasalliklar**

Diabet nazoratsiz qolsa, qon tarkibidagi yuqori glyukoza miqdori qon tomirlari va yurakka salbiy ta’sir qiladi. Bu esa yoshlar o‘rtasida ham yurak-qon tomir kasalliklari, yuqori qon bosimi, ateroskleroz (qon tomirlarining torayishi) va yurak xurujlariga olib kelishi mumkin. Tadqiqotlarga ko‘ra, diabet bilan kasallangan odamlarning yurak xuruji va insultga chalinish xavfi yuqori bo‘ladi

2. **Buyrak Kasalliklari**

Diabet o‘z vaqtida boshqarilmasa, buyraklarga zarar yetkazishi mumkin. Diabetik nefropatiya, ya’ni diabetik buyrak kasalligi, qondagi shakar miqdorining yuqori darajada saqlanishi natijasida yuzaga keladi. Bu esa oxir-oqibat buyrak yetishmovchiligiga olib kelishi mumkin. Buyraklar organizmni tozalash va zararsizlantirishda muhim rol o‘ynaganligi sababli, bu jarayonning buzilishi umumiy sog‘liqqa jiddiy zarar yetkazadi

3. **Ko‘rish Muammolari**

Diabet bilan og‘rigan yoshlarda retinopatiya (ko‘z retinasining zararlanishi) rivojlanish xavfi yuqori. Bu asoratlar qonda glyukoza miqdorining yuqori darajasi tufayli paydo bo‘lib, oxir-oqibat ko‘rishni yo‘qotish xavfini oshiradi. Shuningdek, diabet bilan bog‘liq boshqa ko‘z kasalliklari, jumladan katarakta va glaukoma ham kelib chiqishi mumkin

4. **Asab Tizimi Kasalliklari**

Diabetdan kelib chiqadigan yana bir xavfli asorat — diabetik neyropatiya, ya’ni asab tolalari zararlanishidir. Qondagi yuqori shakar miqdori asablarga ta’sir qilishi va oyoq-qo‘llarda og‘riq, uyish va hatto sezgi yo‘qolishiga olib kelishi mumkin. Diabetning bu asorati tufayli bemorlar odatda jiddiy nogironlik holatiga tushib qolishi mumkin.

5. **Psixologik Asoratlar**

Diabet bilan uzoq vaqt yashash yoshlar o‘rtasida stress va ruhiy tushkunlikni keltirib chiqarishi mumkin. Tadqiqotlar diabet bilan yashovchi odamlar o‘rtasida depressiya va xavotir darajasi yuqori ekanligini ko‘rsatgan. Ushbu holat kasallikni boshqarishni yanada qiyinlashtirishi va sifatli hayot kechirishga to‘sqinlik qilishi mumkin

6. **Infeksiyalar va Jarohatlar**

Diabet bilan kasallanganlarda yaralarning sekin bitishi va infektsiyalar xavfi yuqori bo‘ladi, chunki yuqori qondagi glyukoza darajasi immun tizimini zaiflashtiradi. Bu esa infeksiyalar, teri kasalliklari va yaralar rivojlanishiga olib keladi. Hatto kichik

jarohatlar ham katta infeksiyalarga aylanib, oyoqlarni amputatsiya qilish darajasiga yetkazishi mumkin.

Xulosa: Diabetni yoshligidan nazorat qilish uning kelajakdagi jiddiy asoratlarini oldini olishga yordam beradi. Hayot tarzini o‘zgartirish, to‘g‘ri ovqatlanish, muntazam jismoniy faoliyat va shifokor ko‘rigidan o‘tib turish yoshlar o‘rtasida diabet xavfini kamaytirishning asosiy yo‘llari hisoblanadi. Shu sababli, diabetga qarshi kurashish o‘z vaqtida amalga oshirilishi muhim va uzoq muddatli sog‘liqni saqlashda samarali bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Dilshodovich K. H. SHIELD OF INTESTINAL MICROFLORA CHANGE EFFECT ON THE GLANDS //American Journal of Pediatric Medicine and Health Sciences (2993-2149). – 2023. – T. 1. – C. 81-83.

2. Karabayev S. et al. SOG'LIQNI SAQLASHDA TELETIBBIYOT IMKONIYATLARI, XUSUSIYATLARI VA TO'SIQLARI //Уевразийский журнал медицинских и естественных наук. – 2023. – Т. 3. – №. 2 Part 2. – С. 41-46.

3. Шадманова Н. К., Халилов Х. Д. НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЙ ИНТЕРЕС ИЗУЧЕНИЯ ВЕГЕТАТИВНОЙ РЕГУЛЯЦИИ ДИЗАДАПТИВНЫХ РЕАКЦИЙ СЕРДЕЧНО-СОСУДИСТОЙ СИСТЕМЫ //Евразийский журнал академических исследований. – 2023. – Т. 3. – №. 8. – С. 126-134.

4. Xalilov H. et al. TELEMEDITSINANING PROFILAKTIK DAVOLANISHDA AHAMIYATI //Евразийский журнал академических исследований. – 2024. – Т. 4. – №. 4 Part 2. – С. 66-70.

5. Xalilov X. D., SHadmanova N. K., Qayumov M. N. Gipertireorizmni exsperemental modellashtirish. – 2023.

6. Dilshodovich K. H., Normurotovich K. M., Akromovich E. A. RELATIONSHIP BETWEEN THYROID DISEASE AND TYPE 2 DIABETES. – 2023.

7. Berdiyev O. V. et al. Telemeditsina Orqali Qalqonsimon Bez Kasalliklarini Boshqarish //Open Academia: Journal of Scholarly Research. – 2024. – T. 2. – №. 6. – C. 69-74.

8. Xalilov H. D. et al. GIPERTIROIDIZM VA YURAK ETISHMOVCHILIGI //Research and Publications. – 2024. – T. 1. – №. 1. – C. 60-63.

9. Normurotovich Q. M., Dilshod ogli X. H. RODOPSIN G OQSILLARI FILOGENETIK TAHLIL //Journal of new century innovations. – 2023. – T. 43. – №. 2. – C. 178-183.

10. Qayimov M., Ganjiyeva M. GIPOTIROIDIZM VA YURAK ETISHMOVCHILIGI //Eurasian Journal of Academic Research. – 2024. – T. 4. – Yo‘q. 5 3-qism. – 14-19-betlar.

11. Dilshod ogli X. H. et al. BOSH MIYA YARIMSHARLARI FIZIOLOGIYASI //International Journal of Education, Social Science & Humanities. – 2024. – T. 12. – №. 11. – C. 495-499.

12. Normurotovich Q. M., Uktam ogli T. F., Kurbanovna S. N. Covid-19 Davrida Sogliqni Saqlashda Telemeditsina //Journal of Science in Medicine and Life. – 2024. – T. 2. – №. 3. – C. 114-118.

13. Normurotovich Q. M., Sodiq ogli B. S. COVID-19 BILAN KASALLANGAN BEMORLARDA YURAK-QON TOMIR TIZIMIDA ASORATLAR KELIB CHIQISHI SABABLARI //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – T. 34. – №. 3. – C. 62-66.

14. Normurotovich Q. M. et al. Miokard Infarktida Telemeditsinaning ORni //Open Herald: Periodical of Methodical Research. – 2024. – T. 2. – №. 7. – C. 15-17.

15. Dilshod ogli X. H., Mirusmonovna M. N., Tojiddinovna J. M. QON QUYISHNING ZAMONAVIY USULLARI //JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH. – 2024. – T. 7. – №. 11. – C. 104-110.

16. OV X. B. E. R. B. M. B., Nortayev A. B. Operativ xirurgiya va uning vazifalari. xirurgik operatsiya turlari. – 2023.

7 – TOM 12 – SON / 2024 - YIL / 15 – DEKABR

FIZIOLOGIYA FANI RIVOJLANISHI TIBBIYOTDAGI AHAMYATI. FIZIOLOGIYADA TADQIQOT USULLARI.

Yusupova Maxira
Xalilov Hikmatulla Dilshod o`g`li
Berdiyev Otabek Vahob o`g`li
Abdug'afforova Lobar Sheraliyevna

Annotatsiya: Fiziologiya fanining rivojlanishi va uning tibbiyotdagi ahamiyati bugungi kunda nafaqat ilmiy yutuqlarga, balki insonlarning hayot sifatini yaxshilashga ham katta ta'sir ko'rsatmoqda. Fiziologiya yordamida organizmning normal va patologik jarayonlari o'rganilib, kasalliklarning paydo bo'lish mexanizmlari, ularning davolash usullari va oldini olish choralari aniqlandi. Zamonaviy fiziologiya usullari, xususan, apparat va laboratoriya diagnostikasi, molekulyar biologiya, biokimyo va genetik tadqiqotlar sohasidagi yutuqlar yordamida yangi va samarali davolash usullarini yaratishga imkon berilgan. Fiziologiyaning zamonaviy usullari nafaqat tibbiyotda, balki boshqa biologik va ilmiy sohalarda ham keng qo'llanilmoqda ,ushbu maqola orqali ushu usullarnni yoritdim.

Kalit so'zlar Fiziologiya, tibbiyot, tadqiqot usullari, apparat diagnostikasi, molekulyar biologiya, genetik, biokimyo, laboratoriya usullari.

Mavzuning dolzarbligi Fiziologiya fani inson organizmining normal va patologik jarayonlarini o‘rganib, ko‘plab kasalliklarning sabablarini va ularni davolash usullarini aniqlashda katta ahamiyatga ega. XXI asrda tibbiyotning rivojlanishi, yangi diagnostik usullar va davolash metodlarining kashf etilishi fiziologiyaning amaliy ahamiyatini yanada oshirdi. Bu fanni o‘rganish, nafaqat zamonaviy tibbiy amaliyotda, balki biologiya va farmatsiya sohalarida ham muhim o‘rin tutadi. Fiziologiya fani yordamida inson sog‘ligini saqlash, kasalliklarning oldini olish va davolashda yangi imkoniyatlar ochilmokda.

Fiziologiya fanining rivojlanishi va uning tibbiyotdagi ahamiyati

Fiziologiya fani rivojlanishining bosqichlari: - Antik davr: Fiziologiya qadimgi Yunoniston va Misrda, asosan, tabiatshunoslik va anatomiya bilan bog‘liq bo‘lib, Gippokrat, Galen kabi olimlar inson organizmi va uning faoliyatiga oid ilk nazariyalar yaratganlar.

- O‘rta asrlar va Renessans: Ilm-fan taraqqiyoti sekinlashgan bo‘lsa-da, Renessans davrida Andrey Vesalius va William Harvey kabi olimlar qon aylanishi tizimi va inson organizmining strukturasi haqida yangi bilimlar kiritganlar.

- XVI–XVIII asrlar: Fiziologiya ko‘proq tajriba va eksperimentlarga asoslanib rivojlanadi. Keyingi yillarda Xayneken, Descartes va boshqa fizik olimlar fiziologiyaning muhim prinsiplarini ishlab chiqqanlar.

- XIX asr va zamonaviy fiziologiya: Fiziologiya ilmiy metodlar va texnologiyalar yordamida tobora rivojlanib, organik tizimlarning faoliyatini yorituvchi bir nechta asosiy sohalarga bo‘linadi.

Fiziologiyaning tibbiyotdagi ahamiyati:

- Organizmning normativ faoliyatini tushunish: Fiziologiya inson organizmining normal holatdagi faoliyatini o‘rganadi. Bu tibbiyotda kasalliklarning sabablarini tushunishda, diagnostika va davolashda asosiy ma'lumot manbai bo‘ladi.

- Kasalliklarni aniqlash va davolash: Kasalliklar fiziologik buzilishlar natijasida yuzaga keladi. Fiziologiya yordamida organizmda yuz berayotgan o‘zgarishlar tahlil qilinadi va mos davolash usullari ishlab chiqiladi.

- Tibbiy texnologiyalarning rivojlanishi: Fiziologiya zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqishda, masalan, yurak, mushak, asab tizimlari faoliyatini monitoring qilishda katta ahamiyatga ega. Elektrokardiogramma (EKG), elektroensefalogramma (EEG) kabi usullar fiziologiyaning asosiy kashfiyotlaridan biridir.

- Preventiv tibbiyot: Fiziologiyaning ilmiy asoslari orqali sog‘liqni saqlash tizimi va kasalliklarning oldini olish metodlari, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishda muhim rol o‘ynaydi.

- Reabilitatsiya va sport tibbiyoti: Fiziologiya yordamida organizmning tiklanishi, mushak tizimining ishlashi va energiya sarfini boshqarish tizimlari o‘rganiladi, bu esa sportchilarni tayyorlash va reabilitatsiya jarayonlarini optimallashtirishda yordam beradi.

Fiziologiyada tadqiqot usullari

1. Eksperimental usullar:

- Hayvonlar ustida eksperimentlar: Fiziologiyaning rivojlanishida hayvonlar ustida o‘tkazilgan eksperimentlar katta ahamiyatga ega. Organizmning turli tizimlarini o‘rganish uchun hayvonlarni eksperimental modellar sifatida ishlatish keng tarqalgan. Bunga qon aylanishi, asab tizimi va ichki organlarning ishlashini o‘rganish misol bo‘la oladi.

- Jismoniy va kimyoviy stimuliyalar: Tizimlarning javoblarini tushunish uchun fiziologlar jismoniy (harorat, bosim) va kimyoviy (gormonlar, dorilar) stimuliyalarni qo‘llab, turli tizimlarning faoliyatini o‘rganadilar.

2. Fizik usullar:

- Elektrofiziologik tadqiqotlar: Yurak va mushaklarning elektr faolligini o‘rganish uchun EKG, EMG kabi usullar ishlatiladi. Bu usullar orqali mushaklarning qisqarish jarayonlari, asab impulslarining tarqalishi aniqlanadi.

- Kardiografiya: Yurak faoliyatini va qon aylanish tizimini o‘rganish uchun ishlatiladigan usul. Bu orqali yurakning elektr faolligi va qon bosimi monitoring qilinadi.

3. Biokimyoviy usullar:

- Fermentlar va gormonlarni o‘rganish: Fiziologiya organizmdagi biokimyoviy jarayonlarni, masalan, ferment faolligini va gormonlarning ta'sirini o‘rganish uchun biokimyoviy metodlarni qo‘llaydi. Bu usul endokrin tizimni va uning kasalliklarini o‘rganishda muhim.

- Analitik kimyo: Qon va boshqa biologik suyuqliklar tarkibini tahlil qilish orqali organizmning kimyoviy muvozanatini o‘rganish imkonini beradi.

4. Fiziologik monitoring va tasvirlash usullari:

- Ultratovush va rentgenografiya: Organdagi anatomik o‘zgarishlarni va fiziologik jarayonlarni kuzatish uchun ultratovush va rentgen metodlari ishlatiladi.

- Magnit-rezonans tomografiya (MRT): Bu usul yordamida miya va boshqa organlar faoliyatini tasvirlash va analiz qilish imkoniyati mavjud.

5. Biologik modellar:

- Matematik modellar: Fiziologik tizimlarni modellashtirish va ularning xatti-harakatlarini oldindan prognoz qilish uchun matematik usullar, masalan, differensial tenglamalar, ishlatiladi. Bu modellar yordamida murakkab fiziologik tizimlar o‘rganiladi.

6. Morfologik usullar:

- Mikroskopiya: Fiziologiya organizmdagi hujayra va to‘qimalarning tuzilishini o‘rganishda mikroskopik usullardan foydalanadi. Buning yordamida hujayra darajasidagi o‘zgarishlarni tahlil qilish mumkin.

1. Klassik fiziologiya usullari va tajribalar:

*Ivan Pavlov (1849-1936)

Hamma vaqtning eng buyuk fiziologlaridan biri hisoblanadi. Pavlovning "shartli reflekslar" haqida olib borgan tadqiqotlari, uning kashfiyotlari fiziologiyaning psixofiziologik sohasini shakllantirgan. Pavlovning tajribalari shunday metodni yaratishga imkon berdi: fiziologik jarayonlarni, masalan, ovqatlanish va ichaklar faoliyatini tahlil qilish uchun hayvonlar ustida tajriba o‘tkazish. Uning shartli reflekslar haqidagi kashfiyotlari organizmning ishlashiga oid juda muhim bilimlarni ochib berdi.

*Walter Cannon (1871-1945)

"Homeostaz" tushunchasini ishlab chiqgan. Cannon organizmning ichki muhitini barqaror saqlashni ta’minlovchi fiziologik mexanizmlar haqidagi ilmiy asoslarni yaratdi. Uning o‘rganish metodlari o‘zgarishlarga qanday javob berilishini aniqlash va tizimlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqani tushunishga yordam berdi. Bu metodlar nafaqat fiziologiyada, balki psixologiya va tibbiyotda ham keng qo‘llanilmoqda.

2. Zamonaviy apparat diagnostikasi:

*Wilhelm Röntgen (1845-1923)

Rentgen nurlarini kashf etdi, bu esa tibbiy tasvirlash (diagnostika) usullarining rivojlanishiga asos bo‘ldi. Bugungi kunda rentgen tasvirlari, kompyuter tomografiyasi (KT), magnit-rezonans tomografiyasi (MRT) va boshqa apparat usullarini rivojlantirishda Röntgenning ishining muhim ahamiyati bor.

*Nikolay Korotkov (1874-1920)

Qon bosimini o‘lchash metodini takomillashtirgan. Korotkovning usuli orqali shifokorlar hozirda insonning qon bosimini aniq va tez o‘lchash imkoniyatiga ega. Bu diagnostik usulni allaqachon yirik klinik amaliyotlarda qo‘llashmoqda.

3. Molekulyar va genetik fiziologiya:

*James Watson va Francis Crick (1953)

DNA tuzilmasini kashf qilishdi. Watson va Crickning bu kashfiyoti fiziologiyaning molekulyar asoslarini tushunishga katta hissa qo‘shdi. Ularning ishlarining natijasida genetik kasalliklar, ularning fiziologik mexanizmlari va davolash usullari o‘rganilishi boshlandi.

*Erwin Chargaff (1905-2002)

DNA strukturasi va genetik materialning biologik mohiyati bo‘yicha muhim tadqiqotlar olib borgan. Chargaffning ishlari, ayniqsa, DNA tuzilmasi va genetik ma’lumotlar almashinuvi haqida tushunchalarni rivojlantirishga yordam berdi. U, shuningdek, nuklein kislotalarning tarkibi bo‘yicha asosiy qonunlarni ishlab chiqdi, bu esa genetik tadqiqotlarga asos bo‘ldi.

*Barbara McClintock (1902-1992)

Transpozitsiyani, ya'ni genlarning o‘zgarishini kashf etdi. McClintockning ishlarining natijasida genetikaning molekulyar jihatlari, jumladan, genetik ma’lumotlarning dinamik o‘zgarishlari to‘g‘risida yangi tasavvurlar yuzaga keldi. Bu bilimlar fiziologiya sohasida keng qo‘llanilmoqda, xususan, hujayra va genetik fiziologiyada.

4. Eksperimental fiziologiya:

*Hans Selye (1907-1982)

Stress fiziologiyasini yaratdi. Selye, stressni organizmning adaptiv javobi sifatida tahlil qilgan va organizmning stressga qarshi javobini o‘rganish uchun eksperimental fiziologiya metodlarini joriy qilgan. Uning ishlariga ko‘ra, stressning organizmning umumiy sog‘lig‘iga qanday ta’sir qilishini tushunishga yordam beradi.

*Andrew Huxley va Hugh Huxley (1950-yillar)

Hujayra fiziologiyasi va miya tizimini o‘rganishdagi ishlari, ayniqsa, mushaklar kontraktsiyasini va neyronlarning elektr faolligini o‘rganish bilan mashhur. Ularning ishlari fiziologik jarayonlar, masalan, impulslarning tarqalishi va mushaklarning qisqarish mexanizmlarini o‘rganishda katta ahamiyatga ega.

Fiziologiya rivojiga hissa qushgan o’zbek olimlari :

*Bek Tashmukhammedov

Hujayra fiziologiyasini,ion kanallar o’tkazuvchanligi ,neytrotoksinlarning biologik membranaga tasirini urgangan

*Ziyo Tursunov (1945-1956)

Asosiy fiziologik jarayonlarning issiqlik sharoitida kechishi to’g’risida ish olib brogan

FOYDALINILGAN ADABIYOTLAR

1. Dilshodovich K. H. SHIELD OF INTESTINAL MICROFLORA CHANGE EFFECT ON THE GLANDS //American Journal of Pediatric Medicine and Health Sciences (2993-2149). – 2023. – Т. 1. – С. 81-83.

2. Karabayev S. et al. SOG'LIQNI SAQLASHDA TELETIBBIYOT IMKONIYATLARI, XUSUSIYATLARI VA TO'SIQLARI //Уевразийский журнал медицинских и естественных наук. – 2023. – Т. 3. – №. 2 Part 2. – С. 41-46.

3. Шадманова Н. К., Халилов Х. Д. НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЙ ИНТЕРЕС ИЗУЧЕНИЯ ВЕГЕТАТИВНОЙ РЕГУЛЯЦИИ ДИЗАДАПТИВНЫХ РЕАКЦИЙ СЕРДЕЧНО-СОСУДИСТОЙ СИСТЕМЫ //Евразийский журнал академических исследований. – 2023. – Т. 3. – №. 8. – С. 126-134.

4. Xalilov H. et al. TELEMEDITSINANING PROFILAKTIK DAVOLANISHDA AHAMIYATI //Евразийский журнал академических исследований. – 2024. – Т. 4. – №. 4 Part 2. – С. 66-70.

5. Xalilov X. D., SHadmanova N. K., Qayumov M. N. Gipertireorizmni exsperemental modellashtirish. – 2023.

6. Dilshodovich K. H., Normurotovich K. M., Akromovich E. A. RELATIONSHIP BETWEEN THYROID DISEASE AND TYPE 2 DIABETES. – 2023.

7. Berdiyev O. V. et al. Telemeditsina Orqali Qalqonsimon Bez Kasalliklarini Boshqarish //Open Academia: Journal of Scholarly Research. – 2024. – Т. 2. – №. 6. – С. 69-74.

8. Xalilov H. D. et al. GIPERTIROIDIZM VA YURAK ETISHMOVCHILIGI //Research and Publications. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 60-63.

9. Normurotovich Q. M., Dilshod ogli X. H. RODOPSIN G OQSILLARI FILOGENETIK TAHLIL //Journal of new century innovations. – 2023. – Т. 43. – №. 2. – С. 178-183.

10. Qayimov M., Ganjiyeva M. GIPOTIROIDIZM VA YURAK ETISHMOVCHILIGI //Eurasian Journal of Academic Research. – 2024. – Т. 4. – Yo‘q. 5 3-qism. – 14-19-betlar.

11. Dilshod ogli X. H. et al. BOSH MIYA YARIMSHARLARI FIZIOLOGIYASI //International Journal of Education, Social Science & Humanities. – 2024. – Т. 12. – №. 11. – С. 495-499.

12. Normurotovich Q. M., Uktam ogli T. F., Kurbanovna S. N. Covid-19 Davrida Sogliqni Saqlashda Telemeditsina //Journal of Science in Medicine and Life. – 2024. – Т. 2. – №. 3. – С. 114-118.

13. Normurotovich Q. M., Sodiq ogli B. S. COVID-19 BILAN KASALLANGAN BEMORLARDA YURAK-QON TOMIR TIZIMIDA ASORATLAR KELIB CHIQISHI SABABLARI //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – Т. 34. – №. 3. – С. 62-66.

14. Normurotovich Q. M. et al. Miokard Infarktida Telemeditsinaning ORni //Open Herald: Periodical of Methodical Research. – 2024. – T. 2. – №. 7. – C. 15-17.

15. Dilshod ogli X. H., Mirusmonovna M. N., Tojiddinovna J. M. QON QUYISHNING ZAMONAVIY USULLARI //JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH. – 2024. – T. 7. – №. 11. – C. 104-110.

16. OV X. B. E. R. B. M. B., Nortayev A. B. Operativ xirurgiya va uning vazifalari. xirurgik operatsiya turlari. – 2023.

7 – TOM 12 – SON / 2024 - YIL / 15 – DEKABR

SPORT O‘YINLARIDA MASHG‘ULOT JARAYONINI INDIVIDUALLASHTIRISH

B.A. Begaliyev

Qarshi davlat universiteti, Jismoniy tarbiya va sport kafedrasi dotsent vazifasini bajaruvchi

Annotatsiya. Maqolada sport o‘yinlarida trening jarayonini individuallashtirish masalasi chuqur tahlil qilingan. Sportchilarning funktsional imkoniyatlari, fiziologik va psixologlagik xususiyatlari, genetik potentsiali va sport mahoratining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda trening mashg‘ulotlarini tashkil etishning zamonaviy va samarali usullari bayon etilgan. Maqolada zamonaviy texnologiyalardan (kinematik tahlil, biomexanika, funktsional testlar), yuklamaning optimal taqsimoti, sportchining regressiyadan saqlanishi, tiklanish jarayonlarini boshqarish va psixologik tayyorgarlikning ahamiyati kabi masalalar muhokama qilingan. Tadqiqot natijalari sport o‘yinlari murabbiylari uchun amaliy tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: Individualizatsiya, trening, sport o‘yinlari, fiziologiya, psixologiya, texnologiyalar, yuklama.

Аннотация. В статье проводится углубленный анализ индивидуализации тренировочного процесса в спортивных играх. Изложены современные и эффективные методы организации тренировочных занятий с учётом функциональных возможностей спортсменов, их физиологических и психологических особенностей, генетического потенциала и индивидуальных характеристик спортивного мастерства. Рассмотрены вопросы использования современных технологий (кинематический анализ, биомеханика, функциональные тесты), оптимального распределения нагрузки, предотвращения перетренированности, управления процессами восстановления и значения психологической подготовки. Результаты исследования включают практические рекомендации для тренеров спортивных игр.

Ключевые слова: Индивидуализация, тренировка, спортивные игры, физиология, психология, технологии, нагрузка.

Abstract. This article provides an in-depth analysis of the individualization of the training process in sports games. Modern and effective methods of organizing training sessions are presented, taking into account the functional capabilities of athletes, their physiological and psychological characteristics, genetic potential, and individual characteristics of sports skills. The article discusses issues such as the use of modern technologies (kinematic analysis, biomechanics, functional tests), optimal load distribution, preventing overtraining, managing recovery processes, and the importance of psychological preparation. The research results include practical recommendations for coaches of sports games.

Key words: Individualization, training, sports games, physiology, psychology, technology, load.

Kirish. Yuqori darajadagi sport o‘yinlarida muvaffaqiyatga erishish uchun sportchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda mashg‘ulot jarayonini individuallashtirish muhim ahamiyatga ega. Umumiy standartlashgan mashg‘ulotlar metodikalari samarasiz bo‘lishi mumkin, chunki sportchilarning genetik imkoniyatlari, fiziologik va psixologik xususiyatlari, shuningdek, sport mahoratining rivojlanish sur`ati farqlidir. Individuallashtirilgan yondashuv sportchining genetik salohiyatini ro‘yobga chiqarish va uning sportdagi maksimal imkoniyatlarini namoyon etishga yordam beradi [1,2,3].

Asosiy qsim. Individuallashtirilgan mashg‘ulot jarayonini tashkil etishda quyidagi omillarni hisobga olish zarur:

Genetik potentsial: sportchilarning genetik moslashuvchanligi va sport mahoratining genetik asoslarini o‘rganish. Genetik testlar sportchilarni tanlash va ularni maxsus tayyorlashda yordam beradi.

Fiziologik xususiyatlari: yurak-qon tomir tizimining holati, nafas olish tizimining funktsional imkoniyatlari, mushaklarning kuchi va chidamliligi, tezligi va motorikasi, anaerob va aerob imkoniyatlari. Fiziologik testlar va monitoring tadqiqotlari orqali shaxsiy mashqlarni optimallashtirish mumkin [4].

Psixologlagik xususiyatlari: xarakteri, temperamenti, emotsional barqarorligi, stressga chidamliligi, motivatsiyasi, o‘z-o‘zini baholash darajasi, komandada ishlash qobiliyati. Psixologik testlar va konsul`tatsiyalar sportchining psixologik tayyorgarligini yaxshilashga yordam beradi [4,5].

Biomexanikali tahlil: harakatlar texnikasini tahlil qilish va uni takomillashtirish uchun videotasvirlarni tahlil qilish va 3D-modellashtirishdan foydalanish.

Yuklamaning optimal taqsimoti: ma’lum bir vaqt oralig‘ida mashg‘ulot yuklamasini individual tarzda belgilash va uni bosqichma-bosqich oshirib borish.

Tiklanish jarayonlarini boshqarish: ma’lum bir vaqt oralig‘ida tiklanish jarayonlarini nazorat qilish va sportchida ortiqcha yuklamani oldini olish [4,5].

Uslub va materiallar: Zamonaviy texnologiyalarning sport o‘yinlarida mashg‘ulotlarni individuallashtirishdagi asosiy qo‘llanilishi:

Sport o‘yinlarida mashg‘ulotlarni individuallashtirish – har bir sportchining fiziologik, psixologlagik va biomexanik xususiyatlarini, shuningdek, o‘yin mahorati darajasini inobatga olgan holda trening jarayonini tashkil etishga yo‘naltirilgan murakkab va ko‘p qirrali jarayondir. Ushbu jarayonning samaradorligi ko‘p jihatdan murabbiyning bilim va tajribasiga, zamonaviy texnologiyalardan foydalanishga, vaqt o‘tishi bilan sportchining holatini kuzatish va o‘zgartirishlar kiritishga bog‘liq [1].

1. GPS-trekerlar va akselerometrlar: Bu texnologiyalar sportchining harakat parametrlarini (masofa, tezlik, tezlanish, yo‘nalish) aniq va batafsil o‘lchash

imkoniyatini beradi. Olingan ma'lumotlar sportchining yuklamasini baholash, trening intensivligini optimallashtirish va holatini kuzatish uchun ishlatiladi. Bu yondashuv orqali murabbiy sportchining energiya sarfini, tezligi va masofasini aniqroq nazorat qilib, mashg'ulot rejimini individuallashtirishga erishadi.

2. Kinematik tahlil tizimlari: Videotasvirlarni tahlil qilish orqali sportchining harakat texnikasini baholash imkoniyatini beradi. Bu yondashuv kamchiliklarni aniqlash va ularni tuzatishga yo'naltirilgan individual mashqlarni ishlab chiqishga yordam beradi.

Videotahlil nafaqat texnikani baholashga, balki harakatlar dinamikasini, mushaklarning faolligini va energiya sarfini ham tahlil qilishga imkon beradi.

3. Fiziologik monitoring vositalari: Yurak urishining o'zgarishi, nafas olish tezligi, terining harorati kabi fiziologik parametrlarni o'lchash imkoniyatini beradi. Bu ma'lumotlar sportchining holatini nazorat qilish, yuklamaning optimal darajasini aniqlash va ortiqcha yuklanishning oldini olishga yordam beradi. Masalan, yurak urishining o'zgarishiga asoslangan trening yuklamasi sportchining funktsional imkoniyatlariga moslashtirilishi mumkin.

4. Komp'yuterli modellashtirish: Sport o'yinlarining turli stsenariylarini modelirovanie qilish va sportchilarning taktik va texnik tayyorgarligini baholash imkoniyatini beradi. Bu nazariy va amaliy mashg'ulotlarni individual tashkil qilishga yordam beradi.

Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish individuallashtirilgan trening jarayonini yanada samaraliroq qiladi. Masalan, kinematik tahlil, biomexanika va funktsional testlar sportchining kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlashga, maqsadli trening yuklamalarini belgilashga va sportchining rivojlanishini kuzatishga imkon beradi [1,2,4].

Xulosa. Sport o'yinlarida yuqori natijalarga erishish uchun trening jarayonini individuallashtirish muhimdir. Sportchining barcha individual xususiyatlarini hisobga olgan holda trening jarayonini rejalashtirish va uning samaradorligini zamonaviy texnologiyalar yordamida nazorat qilish kerak. Bu sportchilarning sportdagi salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishga va yuqori natijalarga erishishga yordam beradi. Zamonaviy texnologiyalar sport o'yinlarida mashg'ulot jarayonini individuallashtirish uchun muhim vosita hisoblanadi. Ular sportchilarning individual xususiyatlarini aniqlash, trening yuklamalarini optimallashtirish va jarohatlarning oldini olishga yordam beradi. Sport murabbiylari ushbu texnologiyalardan samarali foydalanishni o'rganish va ularning imkoniyatlaridan to'liq foydalanish kerak.

АДАБИЁТЛАР:

1. Гаврюшкин А. Н., Кутимский А. М. Влияние технологий на тренировочный процесс //Успехи гуманитарных наук. – 2020. – №. 11. – С. 85.

2. Ермолов Ю. В., Заварзин В. А., Ушаков А. Г. Особенности тренировочных нагрузок при подготовке спортсменов //Омский научный вестник. – 2008. – №. 2 (66). – С. 151-153.

3. Прокопьев Н. Я. и др. Физиологические подходы к оценке функциональных нагрузочных проб в спорте //Фундаментальные исследования. – 2014. – №. 2. – С. 146-150.

4. Солодков А. С. Особенности утомления и восстановления спортсменов //Ученые записки университета им. ПФ Лесгафта. – 2013. – №. 6 (100). – С. 131-143.

5. Якубов М. Д., Далимова Д. А. Генетическое тестирование в спорте //Образовательная инициатива как ключевой фактор развития сферы знаний. – 2019. – С. 275-278.

7 – TOM 12 – SON / 2024 - YIL / 15 – DEKABR

BO`LAJAK “TARBIYA” FANI O`QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA ABDULLA AVLONIYNING “TURKIY GULISTON YOXUD AXLOQ” ASARINING O`RNI VA AHAMIYATI

M. N. A`zamova

FarDU Pedagogika yo`nalishi talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada “Tarbiya” fanining huquqiy va metodologik asoslari, ushbu fan mutaxassislariga qo`yiladigan talablar, “Tarbiya” fanining mazmuni hamda bo`lajak tarbiya fani o`qituvchilarining shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda, ularning ertangi faoliyatlari davomida maqsadga olib boruvchi yo`lda muhim vosita bo`lib xizmat qiluvchi pedagogic manbaalar, shuningdek Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asarining pedagogic ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit sozlar: tarbiya, konsepsiya , pedagog, manbaa, metodika, pedagogic, o`quvchi, “Tarbiya” fani, tahlil, axloq, jamiyat, ilm, tamoyil.

Yosh avlod tarbiyasini to`g`ri va tizimli tashkil etish hamma zamonlarda ham jamiyatning dolzarb vazifasi sifatida qarab kelingan. Shuningdek, yurtimizda ham ushbu masalaga bo`lgan jiddiy e`tibor turli islohotlarni amalga oshirishga omil bo`lib xizmat qilmoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev 2020-yil 30-sentyabr kuni o‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan nutqida ushbu masalaga alohida to‘xtalib o‘tgan: “Hammamizga ayonki, bugungi murakkab globallashuv davrida jamiyatimizda milliy g‘oya va mafkuraviy immunitetni kuchaytirish, yoshlarimizni turli zararli g‘oya va tahdidlardan asrash, ularni o‘z mustaqil fikriga ega, irodali, fidoyi va vatanparvar insonlar etib tarbiyalash har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.Shu sababli biz birinchi marta umumta’lim maktablarida “Tarbiya” fanini joriy etmoqdamiz. Ma’rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning asriy qadriyatlarimiz asosida yaratgan “Turkiy Guliston yoxud axloq” asari sharqona tarbiyaning noyob qo‘llanmasi sifatida bugungi kunda ham o‘zining qadri va ahamiyatini yo‘qotgan emas. Biz “Tarbiya” fanining nazariy asoslariniishlab chiqishda mana shunday bebaho asarlardan samarali foydalanishimiz zarur”. Ushbu fikrlarning amaliy ifodasi sifatida, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan 2020-yilda o’zbek “Pedagogika” fani tarixida ilk bor “Tarbiya” yangi fani ishlab chiqildi. Bu borada O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 6 iyuldagi 422-sonli “Umumiy o’rta ta’lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Qarori qabul qilindi va mazkur Qaror bilan “Umumiy o’rta ta’lim muassasalari o’quvchilari uchun “Tarbiya” fani Kontsepsiyasi” tasdiqlandi. Qarorga binoan “Tarbiya” fani amaldagi quyidagi fanlarni qo’shish

hisobiga tashkil etildi:

1.Boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan "Odobnoma" va "Vatan tuyg'usi" o'quv fanlari;

2.Yuqori sinflarda o'qitiladigan "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslar" hamda "Dunyo dinlari tarixi" o'quv fanlari.

Buning natijasida yangi fan shakllantirildi. Ushbu "Tarbiya" fanining metodologik asoslarini quyidagilar tashkil etadi:

- ta'lim-tarbiyaga oid me'yoriy hujjatlar;
- tarbiya asoslari va manbalari;
- tarbiya qonuniyatlari, metodlari va texnologiyalari;
- tarbiyaning amaliy masalalari.

Aynan mazkur asoslar o'quv fanining negizini tashkil etadi. Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilari bu asoslarni talab darajasida o'zlashtirishi kerak. Aks holda, ularning mazkur fan metodikasi bo'yicha kasbiy tayyorgarligi talab darajasida bo'lmaydi. Shuningdek, qaror bilan 2021-2022 o'quv yilidan boshlab "Tarbiya" fani bo'yicha pedagog kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi.

2021-yildan OTMlarda yangi "Pedagogika" yo`nalishi tashkil etilib, ushbu yo`nalish bitiruvchilari kelajakda umumiy o`rta ta`lim maktablarida "Tarbiya" fani mutaxassisi sifatida faoliyat olib borishlari ko`zda tutilgan. Yo`nalish talabalariga to`rt yil davomida oliy ta`limda asosan pedagogic, psixologik, ijtimoiy, fiziologik, ekologik, huquqiy, texnologik, filologik, tarixiy bilimlar bilan bir qatorda o`zbek milliy tarbiyasini yuksaltirish va yot g`oyalardan asrashga qaratilgan, buyuk allomalarimiz tomonidan yozilgan ko`plab asarlarni o`qib o`rganish, tahlil etish, ulardagi ma`no mazmundan kelib chiqqan holda kelgusidagi faoliyatlarini maqsadli tashkil etish talabi qo`yilgan. Shuningdek, ta`lim jarayonida talabalar "Tarbiya fanini o`qitish metodikasi" fanini chuqur egallash asosida o`zlarida haqiqiy "Tarbiya" fani o`qituvchisi siymosini ko`radilar.

"Tarbiya fanini o`qitish metodikasi" fanini o`rganish davomida bo`lajak mutaxassislarda tarbiya fanining maqsadi, metodlari, tamoyillari, vazifalari hamda ilmiy tadqiqot metodlari haqidagi chuqur bilim, ko`nikma, malaka va kompetensiyalar tarkib topadi. Yetuk mutaxassislarni jamiyatga yetkazib berishda pedagog olimlar tarixiy tajriba hamda zamonaviy texnologiyalardan foydalanar ekanlar, bunda "Tarbiya fanini o`qitish metodikasi" fanining ilmiy tadqiqot metodlariga ham alohida to`xtalib o`tish maqsadga muvofiqdir. Bular quyidagilardan iborat:

- tarbiyaga oid pedagogik merosni o'rganish;
- tarbiyaga oid jahon xalqlari pedagogikasi tajribalarini o'zlashtirish;
- tarbiyaga oid me'yoriy hujjatlarni bilish;
- tarbiyachining o'z individual tarbiyaviy tajribasining bo'lishi.

Bulardan, avvalo, tarbiyaga oid milliy pedagogic merosimizni o`rganish jarayoni talabalarda milliy vatanparvarlik ruhiga o`ralgan dunyoqarashni rivojlantirish, ularda

milliy g`urur, milliy iftixor tuyg`usini kuchaytirish, xalqiga sodiqlik, fidokorlik, yurtini asrab avaylash va o`zbek yoshlari tarbiyasini jahonga namuna darajasiga ko`tarishdek vazifani uddalashda muhim ahamiyat kasb etishini e`tiborga olish darkor. Shu kungacha yaratilgan tarbiyaga oid milliy merosimiz orasida O`rta Osiyo xalqlarining ta`lim tarbiyaga doir tarixiy manbaasi hisoblangan "Avesto", islom dinining muqaddas kitobi "Qur`oni Karim" hamda payg`ambarimiz Muhammad(s.a.v.)ning qilgan ishlari, aytgan so`zlari va ma`qullagan amallari jamlangan hadislar , shuningdek buyuk turon allomalarining odob-axloqqa bag`ishlangan turli asarlari alohida ta`kidga munosibdir. Islom ta`limoti orqali kishilar o`z faoliyatlarini isloh etib, to`g`ri yo`lda yurishga intilsalarda, hadislar orqali eng ezgu amallarga ergashsalarda, o`sib borayotgan yosh avlodga ushbu manbaalardan to`g`ri xulosalarni olishni o`rgatish maqsadga muvofiqdir. Islomiy aqidalardan hayotda to`g`ri foydalanish, ularni tarixiy tajriba bilan uyg`unlashtirgan holda farzandlar tarbiyasiga tatbiq etish uchun o`zbek mumtoz allomalari bilan birgalikda jadid adabiyoti vakillari ham ko`plab asarlarni yozib qoldirganlar. Bulardan Mahmudxo`Ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Fitrat, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Qodiriy, Is`Hoqxon Ibrat, Cho`lpon va Abdulla Avloniy kabi ma`rifatparvarlarning ilmiy va adabiy xazinasida tarbiya fanining mazmunini ochib berishga xizmat qiladigan salmoqli manbaalar mavjud. Ayniqsa , Abdulla avloniy tomonidan yozilgan "Turkiy guliston yoxud axloq" asari ta`lim tarbiyaga bag`ishlangan yetuk yozma meros sifatida alohida e`tiborga molikdir.

Abdulla Avloniy - iste'dodli shoir, dramaturg, pedagog, jurnalist, o'zbek madaniyati va adabiyotining asoschilaridan biri. U 1878-yilning 12-iyulida Toshkentning Mergancha mahallasida kosib oilasida dunyoga keldi Abdulla yetti yoshdan O'qchidagi eski maktabda ta'lim olgan. U tarjimai holida bu haqida shunday yozgan: *"12 yoshimdan O'qchi mahallasidagi madrasada dars o'qir edim. 14 yoshimdan boshlab o'sha zamonga muvofiq har xil she'rlar yoza boshladim. Bu zamonlarda "Tarjumon" gazetasini o'qib, zamondan xabardor bo'ldim"*

Abdulla Avloniy maktab uchun yaratgan "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim" "Turkiy Guliston yoxud axloq", "Maktab Gulistoni" kabi darslik va o'qish kitoblari xarakterli bo'lib,yaxlit bir tadqiqot uchun manba bo'la oladi. Avloniyning barcha asarlari vatanga sadoqat, insonparvarlik, sabr- qanoat, shukronalik, ilm-ma'rifatga intilish, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, bag'rikenglik, huquqiy madaniyat, tadbirkorlik, innovatsion, kreativ fikrlash kabi fazilatlarni tarbiyalash farzandlarimizni ham, xalqimizni ham baxtli, farovon qilishiga qaratilganligi bilan ahamiyatliligi, ta'lim-tarbiyada o'z ahamiyatini, dolzarbligini yo'qotmaydi .Ayniqsa uning "Turkiy Guliston yoxud axloq" asari axloqiy va ta'limiy tarbiyaviy asardir. Asar 1913-yilda yozilgan bo'lib,insonlarni "yaxshilikka chaqiruvchi,yomonlardan qaytaruvchi" bir ilm- axloq haqida fikr yuritiladi..

Ushbu asar yosh avlodni tarbiyalashda muhim o`rinni egallaydi. Axloqiy tarbiyaviy mavzuga bag`ishlangan ushbu pandnoma faqatgina nasihat ruhida emas,

yurtni qo`zgatmoq ,uyg`otmoq va chorlash ruhida yozilgan. Chunonchi tarbiya bobida muallif, yurt ichidagi befarq va bilimsiz ota onalarni qoralaydi. O`sha paytdagi bilimsiz kishilarga nafrat bilan qaraydi. O`z so`zlarini dalillash va asoslash maqsadida muallif Qur`oni Karim oyatlaridan, payg`ambarimiz s.a.v.ning hadislaridan, turli iste`dodli shoirlarning she`rlaridan, maqollardan, hikmatli so`zlardan foydalanadi.

Asar avvalida yozuvchi shunday deydi: “Men bu asari nochizonimni birinchi maktablarimizning yuqori sinflarida ta’lim bermak ila barobar ulug’ adabiyot muhiblari, axloq havaskorlarining anzori oliylarina taqdim qildim”. Demak asar asosan yuqori sinf o`quvchilari hamda katta yoshlilar tarbiyasini isloh etmoqlik uchun muhim manbaa sifatida xizmat qiladi. Shu o`rinda “Tarbiya” fanining mazmuniga nazar tashlaydigan bo`lsak, yuqori sinf o`quvchilari uchun A2+ / “Tarbiya” fanini o`rganishning kuchaytirilgan tayanch hamda B1/“Tarbiya” fanini o‘rganishning umumiy darajasi ishlab chiqilgan. Bunga ko`ra, **A2+ darajasi ya`ni 9-sinf bitiruvchisi:**

- Maqsad qo‘ya oladi va uni amalga oshirishga harakat qiladi;
- mas‘uliyat va majburiyatiga amal qiladi;
- hislarini anglaydi va nazorat qila oladi;
- mustaqil sog‘lom fikrga ega bo‘ladi;
- pul topish ko‘nikmalari shakllanadi;
- liderlik sifatlarini namoyon etadi;
- biznes va tadbirkorlik g‘oyalarini ilgari sura oladi;
- kreativ sifatlarini namoyon qiladi;
- to‘g‘ri qaror qabul qiladi;
- sog‘lom turmush tarziga rioya qiladi va uni targ`ib qiladi;
- faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘ladi;
- axborotni tahlil qila oladi va axborot xavfsizligidan himoyalana oladi
- bag‘rikenglikni namoyon qila oladi

Bl daraja ya`ni 11-sinf bitiruvchisi esa:

- ish o‘rinlarini yaratishga intiladi, mchnat jamoasi va mutaxassislar bilan samarali hamkorlik qila oladi
- ijtimoiy sharoitlarga moslasha oladi;
- o‘z-o‘zini rivojlantiradi,bilimini muntazam ravishda oshirib borishni tizimlashtira oladi;
- burch, majburiyat va huquqlarini biladi, ularga rioya qiladi;
- faol fuqarolik pozitsiyasini namoyon qiladi;
- ijtimoiy hayotga tayyorligini namoyon qila oladi;
- hissiyotlarini boshqara oladi, nizoli vaziyatlarda o‘zini o‘zi idora qila oladi;
- muammolami tinch yo‘l bilan hal etishga harakat qiladi;
- mustaqil tafakkurga ega bo‘ladi, o‘z xatti-harakatlarini tanqidiy baholay oladi;
- ma‘naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo‘ladi va targ‘ib qila oladi.

Yuqoridagi daraja bosqichlarni amalga oshirish va yuqori sinf o`quvchilarini yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ularda tarbiyaviy natijaga erishishda “Turkiy guliston yoxud axloq” asaridan foydalanish pedagog tarbiyachilarga keng imkoniyatlarni taqdim etadi. Xususan, asar mazmunini tahlil etadigan bo`lsak, bunda, avvalo, Avloniy tarbiyani uchga : badan tarbiyasi, fikr tarbiyasi, axloq tarbiyasiga bo`ladi. Har bir tarbiya turi yuzasidan atroflicha fikr yuritadi. Boblarda fatonat, diyonat, islomiyat, matonat, sadoqat, nazofat, sa`y-g`ayrat, riyozat, shijoat, qanoat kabi ezgu fazilatlar bilan bir qatorda g`azab, shaxvat, jaholat, atolat(dangasalik), xasosat(xasislik), raxovat(g`ayratsizlik), anoniyyat(manmanlik) kabi yomon xulqlarni ham ta`riflab , oqibatlari bilan chuqur tarzda misollar orqali tushuntiriladi.

Mustaqil hayot bo`sag`asidagi yosh avlodda ilm egallash borasida hozirgi kunda kuzatilayotgan g`ayratsizlik, mas`uliyatsizlik, vaqtdan unumli foydalanmaslik, ilmning foydalarini xolis baholay olmaslik, ilm egallash yo`lidagi qiyinchiliklarga dosh bermaslik kabilar yosh avlodning yuksalish yo`lidagi muvaffaqiyatlariga va shu bilan birga jamiyat ravnaqiga ham to`siq bo`lib kelmoqda. Asarda ilm egallashning foydalari to`g`risida shunday yoziladi:

“Ilm deb o’qimak, yozmakni yaxshi bilmak, har bir kerakli narsalarni o’rganmakni aytilur. Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidur. Ilm inson uchun g’oyat oliy va muqaddas bir fazilatdur. Zeroki, ilm bizga o’z ahvolimizni, harakotimizni oyina kabi ko’rsatur. Zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o’tkur qilur . Ilm dunyoning izzati oxiratning sharofatidir.Ilm inson uchun g’oyat oliy muqaddas bir fazilatdir.Zeroki,ilm bizga o’z ahvolimizni harakatimizni oyna kabi ko’rsatadi.Ilmsiz inson mevasiz daraxt kabidir”.Avloniy ilmni amaliy va hayotiy foydalarini aytib, “Bizlarni jaholat,qorong’ulikdan qutqarar.Madaniyat insoniyatni ma’rifat dunyosiga chaqirar,yomon fe’llardan buzuq ishlardan qaytarar,yaxshi xulq va odob sohibi qiladi. Butun hayotimiz, saodatimiz,maishatimiz,himmatimiz,g’ay-ratimiz,dunyo va oxiratimiz ilmga bog’liqdir”, deya ta`kidlaydi . Avloniy o’z ilmini amalda qo’llay oladigan kishilarga yuksak baho beradi,ularni “dono insonlar” deb ataydi. Hozirgi zamon talablaridan biri ham olingan bilimlardan hayotiy vaziyatlarda, muammoli jarayonda to`g`ri qo`llay olish, egallangan bilimlardan kishilar hayotini o`zgartirish va farovon etishda foydalanishdir. Rivojlanayotgan davlatlarning ta`lim va tarbiya tizimida tamoyil sifatida ushbu prinsip o`quvchilarni imtihonga emas, balki hayotga tayyorlash vazifasini pedagoglar oldiga ko`ndalang qilib qo`ymoqda va bu o`z samarasini berganini ushbu davlatlardagi keskin ijobiy o`zgarishlar orqali ko`rishimiz mumkin. Bunday davlatlarga Singapur hamda Finlyandiyani misol qilib ko`rsatish mumkin.

Jamiyat uchun qayg`urish hissi kishida bolalikdan shakllansada, o`smirlikdan keyingi davrda, ayniqsa, vatanparvarlik , o`zligini anglash, milliy g`urur va iftixor, fidokorlik kabi ezgu tushunchalar yanada rivoj topishi muqarrar.

Vatan ta`rifi, vatanning madhi va ulugligi turli kishilar tomonidan turli mazmunda hikoya qilinadi. Avloniy vatan to`g`risida, vatanni suymak haqida shunday yozadi-ki, uni o`qigan har bir o`quvchining ich-ichidan vatanparvarlik hissi beixtoyor jo`sh uradi. “Vatan. Har bir kishining tug’ulub o’skan shahar va mamlakatini shul kishining vatani deyilur. Har kim tug’ulgan, o’sgan yerini jonidan ortiq suyar. Hatto bu vatan hissi-tuyg’usi hayvonlarda ham bor. Agar bir hayvon o’z vatanidan – uyuridan ayrilsa, o’z yeridagi kabi rohat-rohat yashamas, maishati talx bo’lub, har vaqt dilining bir go’ shasida o’z vatanining muhabbati turar.

Biz turkistonlilar o’z vatanimizni jonimizdan ortiq suydigimiz kabi, arablar arabistonlarini, qumlik, issig’ cho’llarini, eskimular shimol taraflarini, eng sovuq qor va muzlik yerlarini boshqa yerlardan ziyoda suyarlar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi, tiriklik oson yerlarga o’z vatanlarin tashlab hijrat qilurlar edi”. ushbu so`zlar Vatan uchun bitilgan qasida singari kishini Vatan uchun chin yurakdan xizmat qilishga, uning yuksalishi uchun ter to`kishga chorlaydi.

Asarda yomon xulqlarni qoralash barobarida ulardan qaytarish, o`z fe`lini isloh etishlikka chorlash, jamiyatdagi turli xil illatlarga birgalikda kurashishga da`vat etish kayfiyati yaqqol ko`zga tashlanadi.

Xulosa qilib aytganda, asarni o`qigan har bir o`quvchida shubxasiz ezgu sifatlar shakllanadi, turli illatlardan forig` bo`lishga intilish qaror topadi. Bo`lajak pedagoglar tomonidan asar mazmuni o`rganilib, tahlil qilinar ekan, undagi har bir fikr e`tibordan chetda qolishi aslo mumkin emas. O`tgan asr kishisining barcha fikrlari hozirgi zamaonaviy davr uchun naqadar mosligini kuzatar ekanmiz , jadid ma`rifatparvarlaridagi haqiqiy milliy shijoat ruhiga guvoh bo`lamiz. Asarni shunchaki o`qish emas,balki, bo`lajak pedagoglar bilan birgalikda chuqur mulohazalar, asar yuzasidan muhokamalar olib borish va amaliyotga tatbiq etish orqali undagi pedagogic maqsadni amalga oshishiga zamin yaratish mumkin.

FOYDALANILAGAN ADABIYOTLAR:

1.Abdulla Avloniyning “Turkiy Guliston yoxud Axloq” asari Toshkent: 2008.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 30-sentabrdagi nutqi.”Xalq so‘zi” gazetasi.

3.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 06.07.2020 yildagi 422-son

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 31.12.2019 yildagi 1059-son

5. G.B. Saidnazarova “TARBIYA FANINI O‘QITISH METODIKASI” o‘quv qo‘llanma “KAMOLOT” nashriyoti Buxoro-2024

7 – TOM 12 – SON / 2024 - YIL / 15 – DEKABR

MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHNING MAZMUNI

Komilova Dilnozaxon Abdulxaevna
Komilovadilnoza3@gmail.com
ASU, teacher of the Faculty of Preschool Education

Annotasiya The article substantiates the relevance of the formation of communicative competence in preschoolers, describes the factors and principles of the formation of communicative competence in children. Teachers are given pedagogical requirements and tasks for the formation of professional competence in children.

Keywords: communicative, competence, intensive, manipulation, method, excursion, diagnostics, monologue, dialog city, speech, plot-role, motive, social motive, reflexivity.

Jahonda maktabgacha yoshdagi bolalarni kompleks rivojlantirishda maktab ta'limiga intensiv tayyorlash yo'llarini ishlab chiqish, maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish darajasini oshirish, muloqotga kirishuvchanlik ko'nikmalarini rivojlantirishning innovatsion texnologiyalardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish kabi turli masalalarda muhim manfaatdor tomonlar shug'ullanmoqda. Jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bolalar jamg'armasi (UNICEF)ning "Early Childhood Development" dasturi doirasida bolalarning o'yin, o'qish va psixomotor rivojlanishi uchun zarur sharoitlarni yaratish, Birlashgan Millatlar Ta'lim, Fan va Madaniyat Tashkiloti (YUNESKO) ning "2030-yilga qadar barqaror rivojlanish maqsadlari" doirasida bolalar ta'limining dastlabki bosqichlaridan to oliy ta'limgacha bo'lgan jarayonni qo'llab-quvvatlash, Global Partnership for Education (GPE) ning "Education Cannot Wait" dasturi asosida bolalarni rivojlanishiga imkon beruvchi dasturlarni amalga oshirishga qaratilgan ko'plab tashabbusli loyihalarni amalga oshirilmoqda.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida, jumladan AQSh va Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish texnologiyalari takomillashtirishda bolalarga lingvistik (til) qobiliyatlarni mustahkamlashga yordam beradigan fonetik bilimlar, leksik va grammatik qoidalarni o'rgatish, bolalarning o'z fikrlarini og'zaki ifodalash qobiliyatlarini shakllantirish, Finlandiya va Kanada kabi davlatlarda maktabgacha yoshdagi bolalarning kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish uchun multimodal ta'lim texnologiyalari qo'llash, Janubiy Koreya, Yaponiya mamlakatlarida esa bolalar o'rtasida kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish uchun raqamli vositalardan foydalanish, jumladan, robototexnika va sun'iy intellektdan foydalanishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarning erkin fikrlashi, atrofdagi voqelikka ongli

munosabatda bo‘lish, kommuniktivlik va ijtimoiy faollik kabi sifatlarni rivojlantirishda mutlaqo yangi texnologiyalarni joriy etish masalalari dolzarbligicha qolmoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilgan islohotlar natijasida, jumladan, 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “Maktabgacha ta’lim tizimida ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish, maktabgacha ta’lim sifatini oshirish, pedagog kadrlarning bilim va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish” kabi maqsadlar belgilangan. Bu o‘z navbatida, maktabgacha ta’lim tizimining integrallashgan mazmuniga zamonaviy yondashuvlarni singdirish, maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq va muloqotchanlikni xorijiy tajribalar asosida rivojlantirish, “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi hamda “Ilm yo‘li” variativ dasturi asosida tarbiyalanuvchilarda kommunikativlik hamda shaxslararo muloqot ko‘nikmalarini tarkib toptirish, nutqini rivojlantirish bilan bog‘liq faoliyat usullarini ishlab chiqishni taqozo qiladi. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida “Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama: intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, maktabgacha ta’lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish” kabi ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Mazkur maqolada maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish texnologiyalarini takomillashtirishga qaratilgan metodik tavsiyalar kommunikativ o‘yinlarni faoliyatda qo‘llashning kommunikativ vazifalarni shaxsiylashtirish va individuallashtirish asosida bolalarning muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish, ularni maktab ta’limiga tayyorlash va ijtimoiy muhitga moslashishga qaratilgan yondashuvlar asosida tavsiyalar ishlab chiqilgan.

“Ilk qadam” maktabgacha ta’lim muassasasining Davlat o‘quv dasturiga asosan *“Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi”* sohasida bolalar “o‘z imkoniyatlari va yoshi bilan bog‘liq jismoniy rivojlanish me’yorlariga mos ravishda jismoniy faollik ko‘rsatadi; turli harakatchanlik faolligini uyg‘un ravishda va maqsadli bajarishni biladi; turli hayotiy va o‘quv vaziyatlarida mayda motorika ko‘nikmalaridan foydalanadi; o‘z harakatlarini hissiyot va sezgi organlari yordamida boshqaradi; shaxsiy gigiyena malakalarini qo‘llaydi; sog‘lom turmush tarzi va ovqatlanish asoslarini biladi; xavfsiz hayotiy faoliyat asoslari qoidalariga rioya qiladi”. Bugun mamlakatimizda ta’lim-tarbiya, jumladan, maktabgacha ta’lim sohasida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Bolalarni maktabga tayyorlash jarayonlarida ularning tengdoshlari va atrofdagilar bilan muloqotga kirishishida bir qator muammolarga duch kelinmoqda. Ayni paytda, maktabgacha ta’limdan boshlang‘ich maktabga o’qitishga o‘tish bola psixikasi uchun juda qiyin sinov hisoblanadi.

Masalani o‘rganish va kuzatishlarimiz natijasida quyidagi muammolar aniqlandi:

– maktabgacha katta yoshdagi bolalarda lug‘at boyligining maktabda o‘qitiladigan umumta’lim fanlarini egallashi uchun yetarli emasligi;

– bolalarning o‘z fikrini erkin ifodalashi, nutqiy muhitga mos so‘zlashish ko‘nikmalarini rivojlantirishiga oid didaktik ta’minotning talab darajasiga javob bermasligi;

– ota-onalarning o‘z farzandini maktab ta’limiga nutqiy jihatdan tayyor bo‘lishining mezonlari va talablaridan yetarlicha xabar topmaganliklari;

– maktabgacha katta yoshdagi bolalarning muloqot jarayonida o‘z fikri, hissiyotlari va taassurotlarini namoyon eta olmayotganligi;

– maktabgacha katta yoshdagi bolalarning iltimos yoki ma’lumotlarni o‘z tengdoshlariga tugal aytolmasligi, tanish insonlari bilan muloqotga dadil kirisha olmasligi;

– maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kompetensiyaviy ko‘nikmalarni maqsadli shakllantirishga yo‘naltirilgan o‘quv va didaktik topshiriqlarning tizimlashtirilmaganligi;

– maktabgacha katta yoshdagi bolalarda nutqning dialogik shaklini yetarli darajada shakllanmaganligi hamda kommunikativlikni rivojlantirishga mo‘ljallangan metodik manbalarning yetishmasligi;

– maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishi uchun ijtimoiy-hissiy, nutqiy, muloqot, o‘qish va yozish malakalariga qo‘yiladigan davlat talablarini ular tomonidan samarali egallanishini ta’minlovchi didaktik tizimning ishlab chiqilmaganligi;

– maktabgacha ta’lim tashkilotlarida katta maktabgacha yoshdagi bolalarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga yo‘naltirilgan texnologiyalar aniqlanib, amaliyotga joriy etilmaganligi;

– maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglari tomonidan kommunikativ kompetensiyaning ijtimoiy-ruhiy aspektlari to‘liq anglanmayotganligi.

Yuqorida qayd etilgan muammo va kamchiliklar maktabgacha ta’lim mazmuni, unga qo‘yilgan davlat talablari ko‘lami doirasida bartaraf etiladi. Ushbu jarayonning texnologik tuzilmasi va didaktik ta’minoti tarbiyachi-pedagoglarda kasbiy kompetensiyalar va nutqiy madaniyatning shakllanganligiga ham bevosita bog‘liqdir. 2020-yil 22-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 802-son Qarori talablarida *bola kompetensiyasi* tushunchasiga ma’lum bir yosh davriga xos bo‘lgan vazifalarni maqsadli bajarish uchun yetarli bo‘lgan bolaning bilimi, ko‘nikmasi, malakalari hamda qadriyatlari deb ta’rif beriladi. Maktabgacha ta’lim-tarbiya jarayonida mazkur kompetensiyani bajarish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Maktabgacha ta’lim muassasasining “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturida maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishining soha kompetensiyalari tarkibida kommunikativ kompetensiya alohida mezon sifatida belgilab berilgan bo‘lib, u muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko‘nikmasi deb izohlangan. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda maktabgacha ta’lim

talablaridan biri sifatida zamonaviy ta'lim tendensiyalariga tayaniladi. Davlat talablarining "Ijtimoiy-hissiy rivojlanish sohasi"da maktabgacha katta yoshdagi bolalar tengdoshlari va kattalar bilan muloqot malakalarini rivojlantirishga qodirligi, muloqot davomida o'z fikrini, hissiyotlari va tassurotlarini namoyon etishi, tanish insonlar bilan oson muloqotga kirishishi, ijtimoiy xulqning qoida va me'yorlarga bo'ysunishi ko'rsatilgan.

Jumladan,*"Ijtimoiy-hissiy rivojlanish"* soha kompetensiyasida bola o'z "MEN"i va boshqa insonlarning hayotiy faoliyat muhitidagi roli to'g'risida tasavvurga ega bo'ladi; o'z hissiyotlarini boshqaradi va ularni vaziyatga mos ravishda ifodalaydi; o'zgalarning hissiyotlarini farqlaydi va ularga mos ravishda javob beradi; kattalar va tengdoshlar bilan vaziyatga mos ravishda muloqot qiladi; murakkab vaziyatlardan konstruktiv chiqish kabilarni o'zlashtiradi. O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, ushbu soha kompetensiyasi kommunikativ ko'nikmalarning shakllanganligi bilan bog'liq ravishda rivojlanadi. Ushbu soha kompeteniyasining rivojlanishi MTTda tashkil etiluvchi mashg'ulotlarning barcha turlarida amalga oshiriladi. Eng muhimi, ijtimoiy-hissiy kompetensiyaning har bir bolada rivojlanishi lozimligini tarbiyachi pedagoglar teran anglamog'i lozim, chunki maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartida tarbiyalanuvchining intilishlari, qobiliyati va qiziqishlari ustuvorligi, bolalarning noyobligini inobatga olish alohida tamoyili sifatida belgilangan. Bunda o'quv tarbiyaviy faoliyat davomida bolalarning turli faoliyatlarini kommunikativ yo'nalgan holda tashkil etish muhim omil hisoblanadi. Bola shaxsiy "MEN"nini ichki kechinmalari orqali namoyon etishda turli shakllardagi (verbal, noverbal, aralash) muloqot komponentlaridan foydalanadilar. Bolalar tomonidan bildirilgan murojaatlar, hatto imo-ishoralar ham tashqi olamga munosabatining namoyon bo'lishidir. Imo-ishoralar boladagi passiv lug'at zaxirasi hisoblanadi. Tarbiyachilar aynan ushbu lug'atni ham faol lug'at darajasiga chiqarish uchun mos yondashuvlarni tanlashi lozim. Tilshunos olim Abduhamid Nurmonovning asarlarida tilning kommunikativ vazifasidan kelib chiqqan holda fikr ifodalashda tilga yondosh bo'lgan, funksional jihatdan uni kompensatsiya qiluvchi yoki kuzatib boruvchi paralingvistik vositalar haqida to'xtalib, aloqa-aralashuvda ahamiyatli bo'lgan ovozning sifatiy, miqdoriy xususiyatlari, shuningdek, imo-ishoralarning nutqdagi ahamiyati haqida qimmatli ma'lumotlar beriladi. Albatta, til orqali muomalaga kirishish aloqa-aralashuvda boshqa vositalarni to'la ravishda chetlab o'tmaydi, chunki aloqa-aralashuvi murakkab jarayon bo'lib, inson ma'lum axborotni tinglovchiga yetkazishda tabiiy holda turli vositalardan foydalanadi. Bular noverbal vositalar bo'lib, muloqotda ma'no ifodalovchi imo-ishoralar, mimika, gavda harakatlari, ovozdagi turli holatlar: uning baland yoki pastligi, ohang, pauza kabi vositalar bilan amalga oshiriladi. Ular kommunikatsiyada ishtirok etuvchi qo'shimcha (yondosh) vositalar sanaladi va aloqa-aralashuvda ma'lum axborotni uzatish, mazmunan to'ldirish, aniqlik kiritish kabi vazifalarda keladi. Ushbu vositalar ichida til tabiiy, shu til sohiblari uchun tushunarli tayyor holdagi aloqa vositasi sanaladi. Shu

sababli noverbal vositalar aloqa-aralashuv vazifasini bajarishidan qat'i nazar kommunikatsiyada ikkilamchi vosita hisoblanadi.

Agar bola ertakdagi voqea-hodisalarning mohiyatini anglatuvchi so‘zlar va tushunchalarni bilmasa, noverbal muloqot shakli yuzaga keladi. Shu o‘rinda tarbiyachi bolalarga so‘zlarni aniq va ravon eshittirishi (fonetik-fonematik idrok), anglatishi (leksik-semantik), qayta talaffuz qildirish metodik talab hisoblanadi.

"Ilk qadam" maktabgacha ta'lim muassasasining Davlat o‘quv dasturida *"Nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari"* soha kompetensiyasi tarkibi quyidagicha ko‘rsatiladi:

Bola "O‘z nutqida to‘g‘ri talaffuz, qulay grammatik shakllar va xilma-xil gap konstruksiyalaridan foydalanadi; badiiy adabiyot asarlariga qiziqish namoyon qiladi; nutqni eshitadi va tushunadi; so‘zning lug‘aviy, bo‘g‘inli va fonetik tuzilishi to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘ladi; turli ma'no shakllarini mustaqil ravishda tuzish va so‘zlab berishni biladi". Sanab o‘tilgan axborot almashish jarayonining muhim mezonlari kommunikativ ko‘nikmalarning shakllanishini taqozo etadi. O‘quv-tarbiyaviy faoliyat davomida nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalarini rivojlantirish texnologiyalarini rivojlantirish tadqiqotimizning konsepsiyasini tashkil etadi va keyingi bandda kengroq yoritiladi.

"Bilish jarayonining rivojlanishi" soha kompetensiyasi tarkibi quyidagi mezonlardan tarkib topgan bo‘lib, ularning bolalarda shakllanishi uchun kommunikativ ko‘nikmalar muhim sanaladi shu bois, kommunikativ ko‘nikmalarni maktabgacha katta yoshdagi bolalarda shakllantirishning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida kognitiv komponent tanlab olindi..

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi PQ-4312-son Qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 10.05.2019-y., 07/19/4312/3106-son. http:www.lexuz.uz.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida"gi PF-4947-son farmoni. – T.: Adolat, 2017. – 112 b.

3. Mirziyoyev Sh.M. 2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida Qaror. 29.12.2016-y., PQ-2707, O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 1-son, 11-modda; 35-son, 923-modda. http:www.lexuz.uz.

4. Mirziyoyev Sh.M. Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida Qaror. 9.09.2017-y., PQ-3261, "Xalq so‘zi" gazetasi. 2017-y., 11 sentabr. – № 181(6875).

5. Abduraximova D.A. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni axloqiy ruhda tarbiyalashda xalq ertaklaridan foydalanish: Pedag. fan. nom. ... diss. avtoref. – T., 1998. – 25 b.

6. Abdullayeva N.SH. Maktabgacha ta'limni variativ yondashuv asosida takomillashtirish: Pedag. fan. nom. ... diss. avtoref.– T., 2019. – 26 b.

7. Azizova Z. F. Qo'g'irchoq teatri vositasida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirish: Pedag. fan. b. f. dok. (PhD) ... diss. avtoref. – T., 2019. – 26 b.

8. Arushanova A. G. Rech i rechevoye obsheniye detey: Razvitiye dialogicheskogo obsheniya: Metod. posobiye dlya vospitatelya. – 2-ye izd., ispr. i dop. – M., 2005. – 128 s.

9. Alifanova YE. M. Formirovaniye kommunikativnoy kompetentnosti detey doshkolnogo i mladshego shkolnogo vozrasta sredstvami teatralizovannix igr: Avtoref. diss. kand. ped. nauk. – Volgograd, 2001. – 15.s.

7 – TOM 12 – SON / 2024 - YIL / 15 – DEKABR

ПАННО «БАЙРАМ» ИЗ КОЛЛЕКЦИИ ГОСУДАРСТВЕННОГО МУЗЕЯ ПРИКЛАДНОГО ИСКУССТВА И ИСТОРИИ РЕМЕСЛЕННИЧЕСТВА УЗБЕКИСТАНА

И.И.Юсупов

Директор Государственного музея прикладного искусства и истории ремесленничества Узбекистана

Аннотация: В статье описывается панно «Байрам» из коллекции Государственного музея прикладного искусства и истории ремесленничества Узбекистана а также школы, мастеров золотошвейного искусства.

Ключевые слова: композиция, панно, бархат, аппликация, техника, эскиз, гулдузи-заминдузи, профессионал, обыватель, гармония, «байрам», «чор-чирок», инструмент, стилизован, рельефный, фигура, произведения, тематика, традиция.

Государственный музей прикладного искусства и истории ремесленничества Узбекистана расположен в здании, в котором в конце XIX века жил дипломат по особым поручениям А. А. Половцев-младший. Данный объект культурного наследия находится в столице Узбекистана, в городе Ташкенте.

В настоящее время в сокровищницах музея собраны жемчужины прикладного искусства, созданные мастерами, и охватывают период с XIX века и до наших дней. Одним из такого произведения искусства является золотошвейное панно «Байрам» («Праздник»).

Автор эскиза - народный художник Узбекистана В. П. Столяров, соавтор М. Ахмедова. Бухара, 1957 - 1958 гг.

Панно «Байрам». Панно выполнено золотой и серебряной мишурой на красном бархате и аппликацией из синего бархата в технике зардузи-гулдузи-заминдузи по эскизу народных художников Узбекистана В. П. Столярова, под руководством М. Ахмедовой с участием 23 (двадцати трех) мастеров золотошвейного искусства, которое присуще только для бухарского региона.

В 1957 - 1958 годах мастера бухарской золотошвейной фабрики подготовили к Декаде узбекской литературы и искусства три уникальных панно по эскизам народного художника Узбекистана В. П. Столярова в соавторстве с Максумой Ахмедовой. Одним из них является панно «Байрам», которое, по мнению многих искусствоведов и художников, было шагом вперед на пути создания тематических произведений в декоративно-прикладном искусстве. На всех выставках, смотрах и в экспозиции музея это панно привлекает внимание и пользуется неизменным успехом как у профессионалов, так и простых обывателей. Уникальное панно «Байрам» в 1961 году в Москве на Выставке Достижений Народного Хозяйства на тематическом смотре «Народное искусство» было отмечено двумя золотыми медалями: большая золотая медаль - автору, малая - соавтору. Композиция панно «Байрам» удачно решена декоративная и тематические задачи - в ярком выражении в цветной насыщенности, гармоничности, жизнерадостности. Образная выразительность достигнута условным «языком», свойственным золотошвейному искусству. Традиционный узор «чор-чирок», в котором цветом бархата все четыре угла выделены, при этом обобщая композицию всего панно. В центре представлен хлопок,

его окружает виноград, который созревает в это же время года. Затем - 2 круга, образованных из 124 (ста двадцати четырех) стилизованных человеческих фигур. Эти фигуры символизируют веселье, праздник. Первый круг представляет веселый хоровод девушек, которые танцуют и радуются, что успели собрать богатый урожай. Второй круг - музыканты, играющие на различных национальных узбекских музыкальных инструментах. По углам стилизованный дастархан, вокруг которого сидят четыре парных фигур с пиалами в руках и между ними чайник. Узкая кайма состоит из отдельных синих кругов «чилеляк» с бархатной аппликацией. В каждый круг введен условный рельефный узор - яблоки, виноград, коконы. Все детали в панно удачно скомпонованы и оформлены традиционными золотыми швами.

7 – TOM 12 – SON / 2024 - YIL / 15 – DEKABR

CONCEPTUAL BASIS OF POLITICAL PROCESSES

Mardanov Sardorbek Zafar ugli
National University of Uzbekistan
named after Mirzo Ulugbek
Faculty of Social Sciences
Department of Political Science
Group Policy-22/A1 3rd year student

Abstract: This article examine conceptual approaches to the concept of political process, scientific works and foundations of political processes, and other scientific information scientific to the political process, and elements and components to create a portrait of the concept of the "political process" as a whole. It is explained how it is in the interpretation of political science as a symbiosis.

Key words: Politics, political process, political system, political institution, political subjects, state, public administration, political power.

КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ ПОЛИТИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ

Марданов Сардорбек Зафар угли
Национальный университет Узбекистана
имени Мирза Улугбека.
Факультет социальных наук.
Направление Политологии,
Группа "Политика-22/А1"
Студент 3 курса

Аннотация: В данной статье рассматриваются концептуальные подходы к понятию "политический процесс", научные работы и основания политических процессов, а также другая научная информация, специфичная для политического процесса, а также элементы и компоненты для создания портрета понятия "политический процесс" как в целом объясняется, как это происходит в трактовке политической науки как симбиоза.

Ключевые слова: Политика, политический процесс, политическая система, политический институт, политические субъекты, государства, государственное управления, политическая власть.

SIYOSIY JARAYONLARNING KONSEPTUAL ASOSLARI

Mardanov Sardorbek Zafar o‘g‘li
Mirzo Ulug‘bek nomidagi
O‘zbekiston Milliy universiteti
Ijtimoiy Fanlar fakulteti
Siyosatshunoslik yo‘nalishi
Siyosat-22/A1 guruhi 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada siyosiy jarayon tushunchasiga konseptual jihatdan yondashuvlar, siyosiy jarayonning ilmiy asoslari va turli tadqiqotchi olimlarning siyosiy jarayonlar borasida olib borgan ilmiy ishlari va asoslari hamda siyosiy jarayonga xos bo‘lgan boshqa ilmiy ma’lumotlar ko‘rib chiqiladi va bu yaxlit “siyosiy jarayon” tushunchasining portretini yaratish uchun element va komponentlarning sembiyozi sifatida siyosatshunoslik talqinida qanday ekanligi tushuntirilib beriladi.

Kalit so‘zlar: Siyosat, siyosiy jarayon, siyosiy tizim, siyosiy institut, siyosat subyektlari(aktorlari), davlat, davlat boshqaruvi, siyosiy hokimiyat.

INTRODUCTION
ВВЕДЕНИЕ
KIRISH

Siyosiy fanlar siyosatni tushintirish va o‘rganishning turli xil usullaridan tashqari uni yo‘nalishlar va qismlarga bo‘lib o‘rganishga imkon beradi. Shu ma’noda “siyosiy jarayon” siyosatshunoslikning “siyosiy tizim”, “siyosiy madaniyat” va boshqa muhim yo‘nalishlarga doir tushunchalari bilan bir qatorda, ijtimoiy hayotning murakkab sohasini xarakterlaydi. Siyosiy jarayon tushunchasini aniqlashtirishimiz uchun “siyosat”, “jarayon”, “siyosiy jarayon” tushunchalariga to‘xtalib o‘tishimiz maqsadga muvofiqdir. “Siyosat” tushunchasi grek va arab manbalarida hamda lotin adabiyotlarida “davlat boshqaruvi san’ati” degan ma’nolarda va shunga doir bilimlarni qamrab oluvchi soha sifatida tushunilgan. “Jarayon” tushunchasining lug‘aviy ma’nosi lotincha “processus – protsess” “oldinga harakat”ni anglatib, siyosiy fanlarda qandaydir holat va hodisaning izchil qonuniyatli ravishda o‘zgarishi”[9] deb tushuniladi. Siyosiy jarayon – jamiyat siyosiy tizimini o‘zgartirishga, rivojlantirishga (yoki inqirozga) olib boruvchi, hokimiyat doirasida institutlashgan va institutlashmagan subyektlarning o‘ziga xos funksiyalarini amalga oshirishga doir xatti-harakatlar majmuasining ifodalanishidir.[10] Har bir siyosiy jarayonlar siyosat maydonida muayyan siyosiy tizim, davlat boshqaruvi va hokimiyati usullarini o‘zgarishiga, transformatsiyalashuvi va

[9] Локшина С.М. Краткий словарь иностранных слов. – 10-е изд., стер. – Москва: Рус.яз., 1988. -С.406.
[10] В.П. Пугачева. Основы политической науки. Учебное пособие. Под.ред. Част II. – Москва: МГУ, 1996. – С.139-140.

modernizatsiyasiga hamda qulashiga, bardod bo‘lishiga, inqirozga yuz tutishiga sabab bo ‘ladi. Amaliy siyosiy strukturalarga va siyosiy vaziyatga, siyosiy hodisaga baho berishda tadqiqotchi va olimlar bir qator ilmiy tadqiqot va ishlarida “siyosiy jarayonlar” borasida alohida to‘xtaladilar. Zero, bu tushuncha ularning butun ilmiy ishlari uchun fundamental asos bo‘lib xizmat qiladi.

METHODOLOGY AND RESEARCH METHOD
МЕТОДОЛОГИЯ И МЕТОД ИССЛЕДОВАНИЯ
TADQIQOT USULI VA METODOLOGIYASI.

Siyosiy jarayonlarda siyosiy institutlar faoliyati aniq bir jamiyat uchun xarakterli bo‘lgan siyosiy jarayon sikllari ro‘y berib turishini ta’minlaydi. Aniqroq aytadigan bo‘lsak, umumdavlat, umumjamoaviy qarorlarni ishlab chiqish va amala oshirish jarayoni, avvalambor, yetakchi siyosiy institutlar tomonidan amalga oshiriladi. Masalan, demokratik mamlakatlarda siyosiy jarayon, qoidaga binoan, saylovlar sikllariga bog‘liq holda shakllanadi va yashaydi. Aholining eng faol davri davlat hokimiyatining oliy qonun chiqaruvchi va ijroiya organlariga saylovlar davridir. Siyosiy jarayonlarda siyosiy institutlarning funksiyalarini mukammal modelini amerikalik taniqli olilar G.Almond va G.Pauellar tomonidan ishlab chiqilgan. Unga ko’ra, bu 2-bosqichdan: manfaatlar artikulyatsiyasi va agregatsiyasidan iborat hisoblanadi. 1-bosqichda asosan barcha manfaatlarni to‘plash hisoblanadi. Bunga kasaba uyushmalari, tadbirkorlik birlashmalari kiradi. 2-bosqichda esa manfaatlar saralanadi va yaxlit manfaat ishlab chiqiladi. Bunga asosan, siyosiy partiyalar kiradi.[11] Shu tariqa, siyosiy jarayonni barcha tasniflari, shuningdek, uning siyosiy jarayonni modellashtirish va sharhlash uchun zarur bo‘lgan asosiy komponentlari bir joyga yig‘ilsa, unga quyidagi o‘lchamalr kiradi:

- Omillar (yoki muhit)
- Aktorlar va ishtirokchilar
- Ularning ta’siri va o‘zaro ta’siri
- Munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi me’yorlar
- Muozanat darajasi va nihoyat, uning oqimi doirasi kontinuumi (makon va zamon). Ularning har biri har qanday siyosiy jarayonni modellashtirishda muhim o‘rinni egallaydi.[12]

Barcha siyosiy o‘zgarishlarning o‘ziga xos nerv markazi bo‘lgan siyosiy qarorlar ishlab chiqish jarayoni siyosiy jarayon mazmunini, uning ichki tuzilishi va tabiatini ochib beruvchi yirik tuzilmaviy bo‘g‘inlarini bir-birlaridan ajratib tahlil qilishga imkoniyat yaratadi.

Birinchi ana shunday bog‘in sifatida guruhlar va fuqarolarning siyosiy manfaatlarini siyosiy qarorlar qabul qiluvchi institutlarga taqdim etish bosqichini aytish mumkin. Bunda siyosiy jarayon mazmunini o‘zlarining hokimiyat kasb etadigan

[11] Comparative Politics Today: A world View/Ed. By Almond G., Powell G. New York, 1996. – P. 9-10.
[12] Дегтярев А.А. Основы политической теории. – Москва: 2001 – С.154-156.

manfaaatlarini artikulyatsiya va agregatsiya qiluvchi turli uyishmalar, birlashmalar va individiumlar syosiy ishtirokining turli shakllarida xarakterlaydi.

Siyosiy jarayonning ikkinchi unsuri – siyosiy tizim va umuman sotsiumning siyosiy maqsadlarini ifodalovchi siyosiy qarorlar ishlab chiqish va qabul qilish bosqichidir.

Siyosiy jarayonning ikkinchi unsuri – hokimiyat resurslarini safarbash etish, ommani uyushtirishda "yuqori" va "quyi" qatlamlarning o'zaro murakkab xatti-harakatlari, shuningdek, aholi siyosiy xulqini muvofiqlashtirish va me'yorlash, elita faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish, siyosiy yo'lga tuzatishlar kiritish va uning natijalarini yakunlash kabi siyosiy qarorlarni amalga oshirish bosqichini ifodalaydi.[13]

Siyosiy tizim jarayonini har tomonlama baholash va tasniflash, uning turli turlarini tahlil etish bilan bog'liqdir. Umumiy shaklda yondashganda siyosiy jarayonlar ikkita turda bo'ladi: tashqi siyosiy va ichki siyosiy. Birinchisi maxsus xalqaro siyosat mavzusida ko'rib chiqiladi. Ichki siyosiy jarayonlarning xususiyatlarini tushunish uchun siyosiy ishtirok va qarorlar qabul qilishning institutlashgan shakllarining yetakchilik roli va ahamiyatini e'tiborga olish zarur.[14]

Boshqa ilmiy adabiyotlarda siyosiy jarayon klassifikatsiyasi, siyosatning tashqi, xalqaro hamda ichki siyosat kabi turlarga bo'linishi holatidan kelib chiqib, siyosiy jarayonning quyidagi ikki ko'rinishini ajratish mumkin: 1-dan global, mintaqaviy darajadagi siyosiy jarayon; 2-dan mamlakat doirasidagi siyosiy jarayon. Siyosiy jarayonlarning bu ko'rinishida muvozanatni ta'minlashda siyosiy jarayonlarning barqarorlik va beqarorlik darajalari muhim o'ringa ega hisoblanadi.[15]

Barqaror va beqaror siyosiy jarayonlar. Ijtimoiy va siyosiy tuzilmalar o'zaro aloqalari asosiy shakllarining barqarorligi, hokimiyat subyektlari funksiyalarining bo'linishi va o'zaro munosabatlaridan kelib chiqib, siyosiy jarayonlar barqaror va beqaror turlarga bo'linadi. Barqaror jarayon siyosiy safarbarlik va fuqarolar xulqining barqaror institutlashgan shakllarga egaligi, shuningdek siyosiy qarorlar qabul qilishning funksional jihatlaridan ishlab chqilgan mexanizmlarning mavjudligi bilan xarakterlanadi. Odatda, bunday siyosiy jarayon yaxshi shakllangan ijtimoiy tuzilma, idora etishning legitim rejimi, jamiyatda hukmron bo'lib turgan madaniy me'yorlarning yuqori samarali ekanligi, avvalombor, siyosiy jarayonlar ishtirokchlarining o'zaro hurmat va ishonchi kabilarga asoslanadi.[16]

Hozirgi kunda siyosiy manfaatlarga mos ravishda jamiyatda kechayotgan siyosiy va ijtimoiy jarayonlarni boshqarish va nazorat qilishda turli siyosiy texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda.[17] Siyosiy jarayonlarda siyosiy texnologiyalarni qo'llash, siyosiy jarayonlarning dinamik harakatlari ssenariysini aniq,

[13] Bo'tayev. U.X. Siyosatshunoslik[Matn]: darslik. – Toshkent: Info capital Books, 2024. – 237 b.
[14] Qirg'izboyev.M Siyosatshunoslik: oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik. O'zJOKU. – Toshkent: "Sharq", 2024. – 275 b.
[15] Bito'rayev O'.B. Siyosatshunoslikka kirish. O'quv qo'llanma. Toshkent: Barkamol fayz media", 2017. 71 b.
[16] K.M.Mirzaaxmedov. Siyosiy jarayonlarning tizimli tahlili. Ma'ruza. 2023. 3-4 b.
[17] Siyosiy texnologiyalarning rivojlanishi. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. – Toshkent: "Complex Print", 2022. – 4 b.

miqdoriy, sifatiy ko‘rsatkichlarda aniqlash imkonini beradi. Umuman olganda siyosiy jarayonlarga siyosiy texnologiyalarni tadbiq etish, qo‘yilgan muammoga yondashishningusullar majmuasini ochib beradi.[18]

Siyosiy jarayon davlat siyosatini ishlab chiqish jarayoni(policymaking process) ni ham qamrab oladi. Davlat siyosatini amalga oshirish bevosita siyosiy qarorlar qabul qilish orqali namoyon bo‘ladi. Biroq jarayon sifatida (decusion-making processdan farqli ravishda) quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

- Siyosiy muammolarni aniqlash. Jamoatchilik hukumatdan asosiy muammolarni aniqlashtirib olishni talab qiladi.
- Siyosiy takliflarni shakllantirish. Siyosiy takliflar turli siyosiy-rejalashtirish tashkilotlari, manfaatdor guruhlar, hukumat organlari, qonunchilik hokimiyati, prezident singari kanallar orqali aniqlashtirilib olinadi.
- Davlat siyosatini legitimlashtirish. Davlat siyosati hukumat bayonatlari, hukumat faoliyati, hamma darajadagi tayinlanadigan va saylanadigan organlar faoliyati orqali legitimlashtiriladi. Bu o‘z ichiga ijro buyruqlari, qonunlar, qoidalar, nizomlar va boshqalarni qamrab oladi.
- Davlat siyosatini amalga oshirish. Siyosat davlat byurokratik organlar va davlat jamg‘armalari xarajatlari hisobidan amalga oshiriladi.
- Davlat siyosatini baholash. Siyosat hukumat idoralari, tashqi konsultantlar, manfaatdor guruhlar, ommaviy axborot vositalari va jamoatchilik tomonidan rasmiy tartibda baholanadi.[19]

Siyosiy hokimiyat tashkilotining tizimlilik sifati nuqtai nazaridan siyosiy jarayonlar ikkita katta turlarga bo‘linadi:

- Demokratik.
- Nodemokratik.

Siyosiy jarayonlarning yana bir xususiyati shundaki, ularni yaxlit bir tizim holida o‘rganib bo‘lmaydi. Siyosiy jarayonlar o‘z xarakteriga ko‘ra 2 turga bo‘linadi:

- Umumiy siyosiy jarayonlar.
- Xususiy siyosiy jarayonlar.[20]

Siyosiy jarayon hokimiyatni harakatda o‘rganadi. Shu tufayli, siyosiy jarayon mavjudligining 3 ta tartibi ajratiladi: turg‘unlik, rivojlanish, inqiroz tartiblari.

1) Turg‘unlik tartibida shakllanib bo‘lgan siyosiy munosabatlar odattdagi chegaralarda tutib turiladi. Bu tartibda siyosat subyektlari faoliyatida konservatizm va an’analarga sodiqlik yetakchi bo‘ladi.

[18] R.Jumayev, Sh.Yovqochev. Siyosiy texnologiyalar; o‘quv qo‘llanma. – T.: TDShI, 2018. – 45b.
[19] Politics and the policymaking Process// http://catalogue.pearsoned.ca/assets/hip/ushiip_uspearsonhighered/samplechapter/0205011616.pdf.
[20] Otamurodov S., Ergashev I., Akromov Sh., Qodirov A. Politologiya: O‘quv qo‘llanma. – T., 2002. 64 b.

2) Rivojlanish tartibidagi jamiyat ichidagi va xalqaro munosabatlardagi o‘zgarishlariga muvofiq ravishda siyosiy tizimning boshqaruv va amal qilish uslublari o‘zgara boshlaydi.

3) Inqiroz tartibi – siyosiy yaxlitlikning yo‘qolishi, markazdan qochma kuchlarning ortib borishi, hokimiyat qabul qilayotgan qarorlarning bajarilmasligi, siyosiy hokimiyat legitimligi yo‘qolib borilishini anglatadi.[21]

Mazkur dinamika siyosiy jarayon bosqichlari sifatida ham e’tirof etiladi av unga nisbatan tadqiqotchi D.Iston boshqacha yondashgan. Uning fikricha, siyosiy jarayon natijasida jamiyatning institutsional tizimi yangi holatlarga moslashib, o‘zini-o‘zi yanada qayta tashkil qilib, o‘zgarib boradi. Shu bois jarayon bir-biriga bog‘liq 4 bosqichdan iborat bo‘lshi mumkin deb, hisoblaydi.

Bular quyidagilar:

1. Siyosiy tizimni shakllanishi.
2. Mavjud siyosiy tizimning faoliyat yuritishi.
3. Siyosiy tizimning rivojlanishi.
4. Siyosiy tizim rivojining pasayishi.[22]

DISCUSSION AND RESULTS
ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ
MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Siyosiy jarayon – siyosiy fanning markaziy va o‘ziga xos kategoriyalaridan biridir. Ayrim olimlar siyosiy jarayon tushunchasini siyosat bilan bir xil deb hisoblaydilar (R. Douz). Ayrimlari esa siyosiy jarayonlarning o‘ziga xosliigini yohud siyosiy jarayon faoliyati natijasini (T. Parsons), yoki guruhlarning maqom yohud resurslar uchun raqobati va kurashi dinamikasi (R.Darendorf), yoki subyektlarning o‘z manfaatlari va maqsadlarini amalga oshirish chog‘idagi xulq-atvor jihatlaridan (Ch. Merman) izlaydi. Ana shunday xilma-xil yondashuvlar doirasida siyosiy jarayon o‘zining eng muhim manbalari, holatlari, tarkibiy qismlarini namoyish etadi.[23] Siyosatshunos olim Yu Irxinning keltirishicha, siyosiy jarayon jamiyatda siyosiy hokimiyatni egallash, undan foydalanish va uni mustahkamlashga qaratilgan siyosiy hodisalar va voqealikning izchil ravishda o‘zaro ichki bog‘langan zanjiri, shuningdek, turli siyosat subyektlarining izchil xatti-harakatlari jamlanmasi. Umuman olganda, siyosiy jarayon: muayyan siyosiy maqsadlarni amalga oshirishga intilayotgan turli siyosiy kuchlar (siyosat subyektlari) va oqimlarining xatti- harakatlari yig‘indisi, siyosiy hodisalarning rivojlanib borishi; makon va zamonda tadrijiy rivojlanib borayotgan muayyan jamiyat siyosiy tizimining amal qilish shaklidir; huquqiy, iqtisodiy va boshqalardan farqli bo‘lgan ijtimoiy jarayonlardan biri; muayyan miqyosdagi jarayonning oxirgi natijasining aniq va

[21] Farmonov R.F., Tulaganova N.O‘., Turdiyev M.T., Jo‘rayev Q.A., Muhammadiyev U.N., Zamonaviy siyosatshunslik: nazariya va amaliyot. O‘quv qo‘llanma. – 2006. 69 b.
[22] G‘ofurov S.M., Xaydarov A.A., To‘laganova N.O‘. Siyosatshunoslik asoslari : o‘quv qo‘llanma. – T: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasining nashriyoti; Toshkent davlat sharqshunoslik institute. 2006. 112 b.
[23] V.P. Pugachyov, A.I.Solovyov. Siyosatshunoslikka kirish. Darslik “o‘zbekcha nashri” T.: “Yangi asr avlodi” 2004. 386 b.

ravshan belgisidir (inqilob, jamiyatni isloh etish, siyosiy partiyalarni shakllantirish, saylov kompaniyasi va hakazo).[24] Taniqli ingliz olimi E.Xeyvudning fikricha, “siyosiy jarayon” tushunchasi ijtimoiy (davlat, hukumat) siyosati “yaratiladigan” mexanizmga taaluqlidir. Uningcha, siyosat ishlab chiqarishni jarayon sifatida ikki xil ma’noda tushunish mumkin. Birinchidan, u tadbir yoki xatti-harakatning ketma-ket izchilligi haqida bo‘lishi mumkin. Bu zanjir u yoki bu g‘oya tug‘ilishidan boshlanib, uning dastlabki rasmiylashuvi, muhokama, tahlil va baholash sifatida davom etishi, rasmiy qarorlar qabul qilish, oldindan o‘ylangan muayyan xatti-harakatlar vositasida ularni amalga oshirilishi bilan tugallanadi. Ikkinchidan, jarayon siyosat ishlab chiqarish vositasi hamdir.[25] Rus olimi E. Meleshkina siyosiy jarayon masalasida u shunday deydi: “O‘zgarishlarning tezligi va muddatiga binoan siyosiy jarayonlar inqilobiy, ya’ni o‘zining tez harakat va chuqur o‘zgarishlariga moyilligi ajralib turilishi mumkin va evolyutsion asta – sekinlik bilan davomli o‘zgarishlar jarayoni mansub bo‘lgan turlarga ham bo‘linadi.”[26] Barqaror va beqarorligi masalasida taniqli olim Xadeniusning fikricha, siyosiy jarayon barqarorligining eng ishonchli asosi kishilarning demokratik qadriyatlarga berilganligi bo‘lib, bu qadriyatlar “ko‘pchilik fuqarolar va partiya tashkilotlarini birlashtiruvchi umumiy mafkura” sifatida namoyon bo‘lishi lozim.[27]

CONCLUSION

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

XULOSA

Siyosiy jarayon bu – muayyan izchil xatti-harakatlarni ko‘zlovchi ijtimoiy birliklar, ijtimoiy-siyosiy guruhlar va tashkilotlar, alohida shaxslarning izchil, birgalikdagi umumiy faoliyati; tor ma’noda – ijtimoiy va institutsional siyosat subyektlarining muayyan vaqtlar oralig‘idagi muddatda siyosiy qarorlarni amalga oshirish bilan aloqadorlikdagi va muayyan bir maqsadga qaratilgan faoliyatdir. Siyosiy jarayon siyosatning mazmunini uning subyektlari funksiyalari ijrosining turli shakllari vositasida ochib beradi. Bunda rollarni amallga oshirish siyosiy tizimning ba’zi unsurlarini takroran namoyon bo‘lib turishini, boshqalarning buzilib ketishini, siyosiy jarayon siyosiy tizimning tashqi yoki ichki o‘zgarishlarini ochib beradi, uning bir holattdan ikkinchi holatga o‘tishini xarakterlaydi. Shuning uchun siyosiy jarayon, umuman olganda, siyosiy tizimning harakati, o‘zgarish sur’ati va evolyutsiyasidir.[28] Siyosiy jarayonlar barcha siyosat subyektlarining maqsadli harakatlarning boshi va yakunini o‘zida ifodalavchi siyosiy fenomen hisoblanib, ilmiy tadqiqotlar izchilligida asosiy mexanizmlarni ko‘rsatuvchi hisoblanadi.

[24] Ирхин Ю.В., Зотов В.Д. Зотова Л.В. Политология: Учебник. – М.: Юристь, 2002. – С. 370-371.
[25] Хейвуд Э. Политология: учебник для студентов вузов/Пер.с англ.под.ред. Г.Г.Водолазова, В.Ю.Белского-Москва: ЮНИТИ-ДАНА, 2005. – С.489.
[26] Мелешкина Е. Политический процесс // http:// igf.chuvsu.ru /bibl/meleshkina_polit.pdf
[27] Hadenius A. Democracy and capitalism: collective action theory a structural analysis Scand. Polit. Studies. – Jslo, 1999, Vol. 11, №1. – P.33.
[28] K.M.Mirzaaxmedov. Davlat boshqaruvi asoslari. Ma’ruza. 2022. 7-9 b.

REFERENCES:
СПИСОК ССЫЛОК:
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1) Локшина С.М. Краткий словарь иностранных слов. – 10-е изд., стер. – Москва: Рус.яз., 1988. -С.406.

2) В.П. Пугачева. Основы политической науки. Учебное пособие. Под.ред. Част II. – Москва: МГУ, 1996. – С.139-140.

3) Comparative Politics Today: A world View/Ed. By Almond G., Powell G. New York, 1996. – P. 9-10.

4) Дегтярев А.А. Основы политической теории. – Москва: 2001 – С.154-156.

5) Bo‘tayev. U.X. Siyosatshunoslik [Matn]: darslik. – Toshkent: Info capital Books, 2024. – 237 b.

6) Qirg‘izboyev.M Siyosatshunoslik: oliy o‘quv yurti talabalari uchun darslik. O‘zJOKU. – Toshkent: “Sharq”, 2024. – 275 b.

7) Bito‘rayev O‘.B. Siyosatshunoslikka kirish. O‘quv qo‘llanma. Toshkent: Barkamol fayz media”, 2017. 71 b.

8) K.M.Mirzaaxmedov. Siyosiy jarayonlarning tizimli tahlili. Ma’ruza. 2023. 3-4 b.

9) Siyosiy texnologiyalarning rivojlanishi. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent: “Complex Print”, 2022. – 4 b.

10) R.Jumayev, Sh.Yovqochev. Siyosiy texnologiyalar; o‘quv qo‘llanma. – T.: TDShI, 2018. – 45b.

11) Politics and the policymaking Process// http://catalogue.pearsoned.ca/assets/hip/uship_uspearsonhighered/samplechapter/0205011616.pdf.

12) Otamurodov S., Ergashev I., Akromov Sh., Qodirov A. Politologiya: O‘quv qo‘llanma. – T., 2002. 64 b.

13) Farmonov R.F., Tulaganova N.O‘., Turdiyev M.T., Jo‘rayev Q.A., Muhammadiyev U.N., Zamonaviy siyosatshunslik: nazariya va amaliyot. O‘quv qo‘llanma. – 2006. 69 b.

14) G‘ofurov S.M., Xaydarov A.A., To‘laganova N.O‘. Siyosatshunoslik asoslari: o‘quv qo‘llanma. – T: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasining nashriyoti; Toshkent davlat sharqshunoslik institute. 2006.112b.

15) V.P. Pugachyov, A.I.Solovyov. Siyosatshunoslikka kirish. Darslik “o‘zbekcha nashri” T.: “Yangi asr avlodi” 2004. 386 b.

16) Ирхин Ю.В., Зотов В.Д. Зотова Л.В. Политология: Учебник. – М.: Юристь, 2002. – С. 370-371.

17) Хейвуд Э. Политология: учебник для студентов вузов/Пер.с англ.под.ред. Г.Г.Водолазова, В.Ю.Белского-Москва: ЮНИТИ-ДАНА, 2005. – С.489.

18) Мелешкина Е. Политический процесс // http:// igf.chuvsu.ru /bibl/meleshkina_polit.pdf
19) Hadenius A. Democracy and capitalism: collective action theory a structural analysis Scand. Polit. Studies. – Jslo, 1999, Vol. 11, №1. – P.33.
20) K.M.Mirzaaxmedov. Davlat boshqaruvi asoslari. Ma'ruza. 2022. 7-9b.

THE THEME ANALYSIS IN THE NOVELS "FAREWELL CHILDHOOD" (BY TAHIR MALIK) AND "THE BLUEST EYE". (BY TONY MORRISON).

Ismailova Fotima Tohirjon qizi
Namangan State Institute of Foreign Languages
Supervisor: PhD, **Z.X Botirova**

Bunda t_1 akslantirish yordamida z vektorni α burchakka burib t_1 vektorga ega bo‘lamiz, t_2 yordamida t_1 vektorni m marta uzaytirib, t_2 nuqtaga ega bo‘lamiz. So‘ngra w akslantirish yordamida t_2 ni b vektorga parallel siljitib w nuqtani hosil qilamiz. (6-chizma):



6-chizma

$$w = t_2 + b = mt_1 + b = m \cdot e^{i\alpha} \cdot z + b = az + b$$

Yuqorida keltirilgan hollardan ko‘rinadiki, $w = az + b$ chiziqli funksiya yordamida akslantirish $\overline{C_z}$ tekislikdagi sohani «parallel ko‘chirish», «burchakka burish» hamda «cho‘zish yoki siljitishni» amalga oshirish ekan.

Faraz qilaylik, $w = f(z)$ funksiya biror (E$\subset \overline{C}$)sohada Eberilgan bo‘lsin.

Ta'rif-2: Agar $a \in E$ nuqtada $f(a) = a$ tenglik bajarilsa, $z = a$ nuqta $w = f(z)$ akslantirishning *qo'zg'almas nuqtasi* deyiladi.

Yuqorida keltirilgan

$$w = az + b$$

chiziqli akslantirish:

1) $a = 1$ bo'lganda $z = \infty$ qo'zg'almas nuqtaga ega.

2) $a \neq 0$ ikkita $z_1 = \infty$, $z_2 = \frac{b}{1-a}$ qo'zg'almas nuqtalarga ega bo'ladi.

Faraz qilaylik (1.1) akslantirish uchun $z = z_0$ nuqta qo'zg'almas nuqta bo'lsin, ya'ni $z_0 = az_0 + b$ bo'lsin. U holda quyidagi ko'rinishni hosil qilishimiz mumkin:

$w - z_0 = a(z - z_0)$.

Ta'rif-3: $w - z_0 = a(z - z_0)$ ko'rinish chiziqli akslantirishni *kanonik ko'rinishi* deyiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Azlarov T., Mansurov H. Matematik analiz. 1-tom. Toshkent, «0'zbekiston», 1994, 1995.

2. Xudayberganov G., Varisov A., Mansurov H. Matematik analiz. 1- va 2-qismlar. Qarshi, «Nasaf», 2003.

3. Бицадзе А. В. Основы теории аналитических функций комплексного переменного. М. «Наука», 1972.

4. Xakimov R., Maxammadaliyev M. Kompleks o`zgaruvchili funksiyalar nazariyasi. O`UM. Namangan. Universitet, 2019.

5. Xakimov R., Sattarov I. Kompleks o`zgaruvchili funksiyalar nazariyasidan mashqlar. Uslubiy qo`llanma. N. Universitet, 2017.

7 – TOM 12 – SON / 2024 - YIL / 15 – DEKABR

MAKTABGACHA YOSH DAVRDAGI BOLALAR PSIXOLOGIYASI VA NUTQNING RIVOJLANISH HUSUSIYATLARI.

Fozilova Vaziraxon Raximjonovna
Fargona viloyati Ushkoprik tumani
5 MTT tarbiyachi
Namangan shaxar UBS Unversiteti pedagogika va Psixalogiya fakulteti
3-bosqich talabasi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni psixologiyasi va ularning nutqini shakllanish va rivojlanish xususiyatlari haqida so’z boradi.

Kalit so’zlar. Bolalar, maktabgacha yosh, nuqt, psixologiya, ta’lim, tarbiya, o’yin.

Bolaning 3 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan maktabgacha yoshi bolalik davrining katta bir qismini tashkil etadi. Asosan mana shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyatlari rivojlanadi hamda shaxsiy individual xususiyatlari (shaxsiy fazilatlari) tarkib topa boshlaydi. Rus pedagoglaridan P.F.Lesgaftning fikricha, insonning maktabgacha yoshidagi davri shunday bir davrki, ana shu davr mobaynida kelgusida qanday xarakter xislatlari paydo bo‘lishi belgilanadi va axloqiy sifatlarining asoslari yuzaga keladi.

Uch yoshli chaqaloq allaqachon o'zini odam kabi his qiladi. U birinchi marta shaxs ekanligini, oilaning to'la huquqli a'zosi ekanligini tushuna boshlaydi. U ijro etishni o'rganadi oilaviy majburiyatlar kattalarga yordam berish. O'zi qaror qabul qilishga harakat qiladi. Bu atrofdagi voqelikni eng katta idrok etish davri. Bolaning rivojlanishi juda tez. Maktabgacha yoshdagi ushbu besh yil davomida u o'yindan ta'lim faoliyatiga qayta tashkil etish uchun vaqtga ega bo'lishi kerak. Ota-onalarning yordami zarur bilim, ko'nikma va malakalarni berishdir. Maktabgacha yoshdagi asosiy faoliyat - bu o'yin. Uch-to'rt yoshida bola rolli o'yinni o'zlashtiradi, ammo hozirgacha taqlid darajasida. U o'yinchoqlarni olib, hayotda yoki multfilmlarda ko'rgan vaziyatlarni takrorlaydi. Agar bu yoshda bu sodir bo'lmasa, otaonaning vazifasi qanday o'ynashni o'rgatishdir. Katta maktabgacha yoshdagi bolaning psixologiyasi 5-6 yoshda rolli o'yinlar endi taqlid qilmaydi. Bolaning o'zi o'yin syujetini, qahramonlarning ismlarini o'ylab topadi. Bu ikkala hayotiy hikoyalar (do'konda xarid qilish, poezdda sayohat) va hayoliy voqealar bo'lishi mumkin. O'yinda bola odamlar bilan muloqot qilishni o'rganadi, sotsializatsiya sodir bo'ladi. Bola o'zini kattalar rolida sinab ko'radi, o'yin darajasida qaror qabul qilishni o'rganadi. Shuning uchun bu davrni o'tkazib yubormaslik juda muhimdir. Agar yoshroq maktabgacha yoshda kichkina odam ko'pincha o'zini o'zi o'ynasa, besh yoki olti yoshida bola o'zi bilan muloqot qilishni xohlaydigan tengdoshlarini tanlaydi. Bolalar ikki yoki uch kishidan iborat kichik guruhlarga yig'ilib, o'ynashadi.Bu yoshda bola rasm chizishga, modellashtirishga, ertak

tinglashga qiziqa boshlaydi. U o'qishga qiziqmaydi, garchi o'yin shaklida ta'lim faoliyati elementlari to'rt yoshdan boshlab kiritilishi mumkin. Bolani barcha harakatlarida qo'llab-quvvatlash juda muhimdir

Mana shu davrda qilingan butun tarbiya, tarbiya jarayonining 90% ini tashkil etadi, degan edi. Haqiqatan ham bolaning maktabgacha yoshidagi davri shu qadar mazmundor va faol davrdirki, bu davr bolaning kelgusi o‘sishida albatta o‘z aksini qoldiradi. Shuning uchun maktabgacha yoshidagi davr ta’sir o‘tkazish kuchi jihatidan g‘oyat mas’uliyatlidir.

Maktabgacha yoshdagi bolaning tanasi, xususan, oyoqlarining uzayishi tufayli gavdasidagi umumiy mutanosiblik o‘zgaradi. Maktabgacha yosh davrida bolaning oyoqlari nisbatan ko‘proq o‘sadi. Biroq shunday bo‘lsa ham 6–7 yoshgacha bo‘lgan bolaning suyaklari hali yaxshi qotmagan, ya’ni tog‘aysimon holatda bo‘ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning pay va muskullari hali baquvvat emasligiga qaramay juda harakatchan bo‘ladilar. Bola 7 yoshga yetgach, umurtqa suyagining bo‘yin qismida oldinga tomon, ko‘krak qismida esa orqaga tomon ma’lum darajada egilish yuz beradi. Keyinchalik bolaning umurtqa suyagi mana shu shaklda saqlanib qoladi. Bola qaddi-bastining to‘g‘ri bo‘lishida umurtqa suyagining ana shunday holda saqlanib qolishi juda katta ahamiyatga ega. Bog‘cha yoshidagi bolaning bosh suyagi ham tez o‘sadi. Bola uch yoshga to‘lgandan so‘ng bosh miya suyagining orqa va tepa tomonlari tez o‘sadi. Maktabgacha yoshda bolaning ichki organlarida ham jiddiy o‘zgarishlar ro‘y beradi.

Bola bog‘cha yoshiga yetgach uning psixik taraqqiyotida jiddiy o‘zgarishlar yuzaga keladi. Chunki, xuddi ana shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati anchagina kengayib boradi. Bog‘cha yoshidagi bola mustaqil faoliyatda bo‘la olishi uchun zarur bo‘lgan ikkita qudratli kuchga ega. Birinchidan, ma’lum darajada o‘ziga bo‘ysundirilgan harakat apparatiga, ikkinchidan esa, atrofidagi katta odamlar va o‘z tengdoshlari bilan bir qadar erkin munosabatda bo‘la oladigan nutqqa ega. Mana shuning uchun bu yoshdagi bolalarning xulq-atvorlari, xatti-harakatlari, qiziqish va ehtiyojlari ilk yoshdagi bolalarnikidan keskin farq qiladi. Bu esa, o‘z navbatida, ilk yoshdagi bolalar bilan maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim-tarbiyasiga ham turlicha munosabatda bo‘lishni taqozo qiladi.

Maktabgacha yoshdagi davrda bolaning barcha psixik jarayonlari jadal rivojlana borib, uning tashqi muhit bilan bo‘lgan munosabatlarida anchagina o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi. Bir tomondan, bola kattalarning doimiy yordamlaridan ancha ozod bo‘lib, ulardan bir qadar uzoqlashadi, ikkinchi tomondan, kattalar bilan bo‘lgan munosabatlari murakkab, ko‘p tomonlama xarakter kasb eta boshlaydi

Maktabgacha yoshda muloqotning mazmuni, uning motivlari, muloqot qobiliyatlari va qobiliyatlari doimo o'zgarib turadi. - Dastlab atrofdagilarini taniydi, eshitgan so‘z va jumlalarini asta-sekinlik bilan o‘zlashtiradi. Tilga kirgach esa uning so‘z boyligi jadal o‘sadi. Oddiy so‘zlar, keyinchalik sodda gaplardan va to‘liq, yoyiq

gaplardan foydalanadi. Dialogik nutq oilada, ota-ona, aka-opalar davrasida vujudga keladi. O‘ziga kerakli narsani so‘rash uchun harakat qiladi, muloqotga kirishadi. Maktabgcha yoshdagi bolalarning nutqini o‘stirishda oldindan tayyorlangan mavzularda suhbatlar, teatrlashtirish usullari, sahnalashtirish o‘yinlari, savol-javoblar juda foyda beradi. Ta’kidlash joizki, bola uchun katta yoshli odam savollarga javob topishning yagona vositasi, qiziqarli taassurotlar manbai hisoblanadi. Bola kattalar bilan dialogga kirishishga, narsalar va o‘yinchoqlarga egalik qilishga intilarkan, u ushbu maqsadlarga erishish uchun so‘zdan foydalanishga ehtiyoj sezadi, ba’zida o‘zi tashabbus ko‘rsatib, fikr bildiradi. Katta yoshli odam bola bilan dialogga kirishish jarayonida bolaning bir so‘zli fikrlarini grammatik jihatdan to‘liq shakllantirilgan so‘zlarga aylantirish orqali uning kamchiliklarini tuzatadi. Bola o‘rganganlarini faol o‘zlashtiradi va undan o‘z nutqida foydalanadi. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda uning ota-onasi, aka-opalari va tarbiyachilarining hissasi katta.

Maktabgacha yoshdagi bolalar o'rtasida dialogik ko'nikmalarni shakllantirishning past darajasi muloqot qilish, tashqi dunyo bilan o'zaro munosabatlarga bo'lgan ehtiyojni samarali amalga oshirishga imkon bermaydi. Zamonaviy ta'lim texnologiyalarining o'ziga xos xususiyati ularning birbirini to'ldirishi bo'lganligi sababli, ular o'zaro ta'sirda eng katta samaraga ega bo'ladilar. Shu sababli, maktabgacha yoshdagi bolalarning dialogik nutqini shakllantirish jarayonini tashkil etishda, bolalarning shaxsiy xususiyatlarini o'z ichiga olgan holda, ularni faoliyatga eng maqbul tarzda kiritadigan, maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini amalga oshirishga yordam beradigan texnologiyalardan foydalanish kerak deb hisoblaymiz.

MTTda har bir ta’limiy faoliyat mazmunida bolaning nutqini o’stirish va muloqotchanlik ko’nikmalarini shakllantirish asosiy vazifa hisoblanadi. Bola yangi bilimlarni o’yinlar va didaktik vositalar asosida o’zlashtirganida samaradorlik yuqori bo’ladi. Ya’ni badiiy adabiyotni oddiy o’qib berishdan ko’ra innovatsion ta’lim texnologiyalarini qo’llagan holda faoliyatga tatbiq etish har bir bolaning nutqini rivojlantirish jarayonini ta’minlaydi, tezlashtiradi va shu bilan ta’lim sifatini oshirishga yordam beradi. Buning uchun maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning yangi texnologiyalarini ishlab chiqish va jarayonda faol qo’llash talab etiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini shakllantirish muhim va qiyin vazifadir. Ushbu muammoni muvaffaqiyatli hal qilish ham bolalarni yaqinlashib kelayotgan maktabga tayyorlash uchun, ham boshqalar bilan qulay muloqot qilish uchun zarurdir.

Aynan MTTda nutq o’stirish jarayonida badiiy adabiyotning o’rni beqiyosligini e’tirof etgan holda, badiiy asarlarni yangi texnologiyalar vositasida bolalarga o’rgatishning samaradorligi yuqori ekanligini kuzatdik. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish ko’p jihatdan quyidagilarning to’g’ri hal etish bilan bog’liq:

- nutqni rivojlantirishga doir didaktik materiallar tarkibiga ota-onalar, tarbiyachining ma’lum maqsadga qaratilgan nutqi, bolalarga o’qib yoki aytib beriladigan ertak, she’r, qo’shiqlar, hikoyalar muntazam kiritilishi;

- ta’limning didaktik materiallarni foydalanadigan tarzda zamonaviy tashkil etilishi;

- ta’limiy o’yinlarda bolalarning faol nutqiy muloqotda bo’lishini ta’minlash.

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi bolalarning nutq qobiliyatini shakllantirishda quyidagi qiyinchiliklarga duch kelmoqda:

- har bir bolaning individual qobiliyatlarini aniqlash va mos ravishda rivojlantirish;

- hamkorlikka asoslangan ta’lim munosabatlarida bolani faollashtirish;

- nutqiy qobiliyati yashirin bolalar bilan olib boriladigan alohida o’yinli vaziyatlar yaratish.

Maktabgacha yoshidagi bolalar nutqining rivojlanishi ularning faoliyati, muloqati bilan uzviy bog'liqdir. Bola jumlalarning mazmuni va shaklidagi o'zgarish uning muloqat shakllari o'zgarishi bilan bog'liq bo'ladi. Ilk bolalik davriga xos situativ nutq ishchan muloqot shaklidan nosituativ bilishga yo'naltirilgan va nosituativ - shaxsiy muloqot shakliga o'tilishi bolalar nutqiga ma'lum bir talablarni qo'yadi. Bu talablar bola nutqining yangi-yangi tomonlarini, turli kommunikativ masalalarni hal qilishi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarni tarkib toptiradi. Bog'cha yoshidagi bolaning nutqi ijtimoiy aloqalarni o'rnatish funksiyasini bajara boshlaydi. Buning uchun esa bolada ichki nutq tarkib topishi, monologik xususiyat kasb etib borishi lozim bo'ladi. Maktabgacha yoshda bola nutqining rivojlanishidagi muhim xususiyat nutq tafakkur quroliga aylanishidan iborat.

Maktabgacha yoshdagi nutqning tarkibiy qismlari - bu nutqning tarkibiy qismlari va aqliy funktsiyalarning tarkibiy qismlari ularning maksimal safarbarligini talab qiladigan yangi maktab sharoitida eng zaif bo'lgan.Hozirgi bosqichda an'anaviy o'rganish usullari samarali emas va davlat va jamiyatning zamonaviy talablariga javob bermaydi. Naviyat sharoitida, minimal muddati tugagandan so'ng, o'qituvchi oldida, o'qituvchining oldida yangi vazifalar sonini hal qilish kerak, logop yangi usul va texnologiyalardan foydalanish zarur. Zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish maktabgacha yoshdagi yosh kamerali ta'lim va o'qitish uchun yangi imkoniyatlarni ochmoqda. Haqiqatan ham innovatsion texnologiyalar dastlab vakolatlar yondashuvida qurilganligi va o'quvchining kelajagi uchun trening natijalariga qaratilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. G‘oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002.1-2 kitob

2. Babayeva D. R. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. - Toshkent, 2018. -334 b.

3. Nishonova Z., Alimova G. Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi. -T.:
4. Vohidov M., Maktabgacha tarbiya psixologiyasi, T., 1970;
5. Qodirova F. R., Toshpo'latova Sh.Q., Qayumova N. M., A'zamova M. N. Maktabgacha pedagogika. - T.: "Tafakkur", 2019. - B. 107.

THE LEGAL ROLE OF CIVIL SOCIETY DEVELOPMENT

Turdiyev Abdulfayz Sherali ogli
3 rd year student of the Faculty of Engineering and Pedagogy, National Idea, Fundamentals of Spirituality and Legal Education, Karshi International University.
For contact: Tel.+998977777162
Abdulfayz2022@gmail.com
Norinov Fakhriyor Kurbonovich
Dean of the Faculty of Engineering and Pedagogy.
For inquiries: Tel.+998 90 720 70 02

Annotatsiya Mazkur maqolada fuqarolik jamiyatining mohiyati, uning davlatdan mustaqil faoliyat olib borishi, va jamiyat rivojlanishidagi huquqiy asoslar tahlil qilinadi. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda huquqiy infratuzilmaning ahamiyati, nodavlat notijorat tashkilotlar va ommaviy axborot vositalarining roli ko‘rib chiqilgan. Davlat va fuqarolik jamiyati o‘rtasidagi huquqiy munosabatlar, xalqaro huquqiy tajribalar va milliy qonunchilik asosida fuqarolik jamiyatini rivojlantirish imkoniyatlari o‘rganilgan. Shuningdek, fuqarolik jamiyatining huquqiy asoslarini mustahkamlash orqali fuqarolar huquqlari va erkinliklarini kafolatlash masalalari ham muhokama qilingan. Ushbu maqola fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini yanada takomillashtirish va aholining huquqiy madaniyatini oshirish uchun zarur huquqiy chora-tadbirlarni tavsiya etadi.

Kalit so‘zlar: *Fuqarolik jamiyati, huquqiy asoslar, hodavlat notijorat tashkilotlari (NNT), huquqiy infratuzilma, fuqarolik huquqlari, davlat va jamiyat munosabatlari, huquqiy madaniyat, ommaviy axborot vositalari, xalqaro tajriba, qonunchilik.*

Аннотация В данной статье анализируется природа гражданского общества, его независимая деятельность от государства, правовые основы развития общества. Рассмотрена важность правовой инфраструктуры, роль неправительственных некоммерческих организаций и средств массовой информации в развитии гражданского общества. Изучены правовые отношения между государством и гражданским обществом, международно-правовой опыт и возможности развития гражданского общества на основе национального законодательства. Обсуждались также вопросы обеспечения прав и свобод граждан путем укрепления правовых основ гражданского общества. В данной статье рекомендуются необходимые правовые меры для дальнейшего совершенствования деятельности институтов гражданского общества и повышения правовой культуры населения.

Ключевые слова: Гражданское общество, правовая база, неправительственные организации (НПО), правовая инфраструктура, гражданские права, отношения

государство-общество, правовая культура, средства массовой информации, международный опыт, законодательство.

Annotation This article analyzes the nature of civil society, its independent activity from the state, and the legal basis for the development of society. The importance of legal infrastructure, the role of non-governmental non-profit organizations and mass media in the development of civil society was considered. Legal relations between the state and civil society, international legal experiences and opportunities for civil society development based on national legislation have been studied. Issues of guaranteeing citizens' rights and freedoms by strengthening the legal foundations of civil society were also discussed. This article recommends the necessary legal measures to further improve the activities of civil society institutions and increase the legal culture of the population.

Key words: Civil society, legal frameworks, non-governmental organizations (NGOs), legal infrastructure, civil rights, state-society relations, legal culture, mass media, international experience, legislation

The process of developing civil society is important in maintaining the balance between society and the state and increasing the efficiency of state administration. Civil society is a system independent of the state, expressing the interests of all segments of society, aimed at ensuring rights and freedoms. This society has a strong influence on the state, economy and social life and creates the basis for mutual solidarity, self-government and increased initiative among people. At the same time, the legal framework of civil society plays an important role in the development of democratic societies. In the development of civil society, opportunities for increasing the activity of members of society through legal mechanisms and involving them in participation in state administration expand. In order to increase the legal activity of citizens, the state improves the legal framework, legally guarantees such rights as free access to information, holding meetings, and establishing associations. In this way, civil society organizations are formed and developed as legal entities. In addition, civil society is closely related to the rule of law. For the development of civil society, it is necessary to introduce the principles of a legal state, that is, principles such as the rule of law, the independence of the judiciary, transparency, equality should be applied. This ensures that the interests of all segments of society are expressed, and human rights and freedoms are protected. In this way, civil society and the legal state develop in an interconnected manner, creating a stable and just social environment in the country.

Civil society is a society consisting of real citizens, that is, people with a legal and political culture that are inextricably linked and based on moral culture. In the East, there is a unique interpretation of Civil Society. This is directly related to the form of morality, culture and spirituality combined with law, an integral combination of character, behavior and norms. In particular, the oldest cultural, historical and legal

monument - the Avesta - put forward ideas such as the organized living of people, the reliance of mutual relations and connections on morality and norms. This spontaneously manifested the first signs of Civil Society, such as the achievement of the rule of law in society, the rule of law, not by individuals, in society. In Farabi's work "The City of Virtuous People", the need for a just law in governing the country and the essence of forming an active Civil Society are deeply analyzed. It is stated that justice and human rights are inevitable in a country with perfect laws. According to Farabi, "The need for power arises when the population of a city (country) does not have good character," crime, hooliganism, and lawlessness flourish in conditions where laws are weak and the population is not morally and spiritually perfect. A powerful and influential authority is needed to bring such a people to order. Similar ideas were put forward and widely used in practice by Ibn Sina, Beruni, Khorezm, Amir Temur, Alisher Navoi, Babur, and others. As a result of long historical development, the current modern understanding of Civil Society has been formed. According to it, in Civil Society, it is important to have diverse and equal forms of ownership, freedom of labor and entrepreneurship, ideological diversity and freedom of information, inviolability of human rights and freedoms, developed self-government, culturalized legal authority, and ensuring the rule of law in all spheres of public life. Although the concept of Civil Society in Uzbekistan is a historical tradition, it is emerging in completely new historical conditions as a synthesis of advanced experiences of world statehood and many millennial national traditions. That is, Civil Society is being formed in the harmony of freedom and morality, liberty and education, obedience to the law and political and legal activity, liberty and strict order.

Civil society is a society that is strictly regulated and maintained not only by the coercive power of the state, but also by the citizens themselves, who are its members. Such a society is distinguished by a high level of self-organization. Civil society does not require a strong influence of the state. The state must be under the control of such a society, because the state is a "hired servant" of civil society. After all, it exists at the expense of taxes collected from citizens, enterprises and institutions. This society manages not only its political, cultural life, but also its economic and social life. Not every society can be called civil society. Civil society is an indicator of a much higher level of social development.

Constitution and civil society. During the years of independence, the socio-political and legal environment and mood of civil society in our country have been steadily improving. More than 200 regulatory legal acts adopted in this area over the past period are a solid legal basis for this improvement.

“ensures their participation in the development and implementation of socio-economic development and social partnership programs.” As stipulated in Article 36 of the Constitution, citizens of the Republic of Uzbekistan have the right to participate in the management of public and state affairs directly and through their representatives.

Such participation is carried out through self-management, holding referendums and forming state bodies in a democratic manner, as well as public control over the activities of state bodies. It is also worth noting that the tenth paragraph of Article 115 of the Constitution defines as one of the main powers of the government: "to ensure openness and transparency, legality and efficiency in the work of executive authorities, to fight against corruption in their activities."

This, in turn, implies public control by civil society institutions in the same processes. All this is according to Volker Türk, the High Commissioner for Human Rights of the United Nations, who visited our country on March 13-15 this year: "State institutions are a necessary sphere to ensure the full participation of civil society in the process of reforms.A single electronic platform of civil society institutions.

A unified electronic platform of civil society institutions aimed at ensuring the transparency of all processes related to the allocation of state subsidies, grants and social orders to civil society institutions has been launched.

The launch of a single electronic platform will provide the following results:

The first result is that institutions of civil society and the general public are directly involved in shaping the direction of the contests held by the foundation in the presence of the Oliy Majlis.

The second result is that all stages of the contests, including from the application to the announcement of the contest result, will be digitized, and the human factor will be reduced to a minimum.

The third result is that civil society institutions will be free from excessive red tape;

The fourth result, monitoring, conclusion of contract, submission of report is carried out electronically.

The fifth result is that the social order of state bodies is formed in electronic forms.

The single electronic platform system is a state support system for civil society institutions.In conclusion, the legal role of civil society development is very important.

Legal frameworks serve to strengthen civil society, increase mutual trust between citizens, and also ensure the rule of law in society.

The development of the legal system and the fair and transparent operation of laws coordinate the activities of civil society and strengthen its social and political participation. In addition, legal norms allow citizens to protect their rights, feel social responsibility and ensure stability in society.

Thus, legal society is the main foundation of civil society and serves its sustainable development and deepening of democracy.

By strengthening the interaction between legal culture and civil society, the social contract between the state and society will be more effective.

REFERENCES

1. Civil society - Wikipedia https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Fuqarolik_jamiyati
2. The updated Constitution and the development of civil society http://insonhuquqlari.uz/oz/news/m11022
3. Civil Code. (Chapters 1-5. Articles 1-80) | Civil Code of the Republic of Uzbekistan | Constitutions and Codes | Legislation of the Republic of UzbekistanInformation system "Civil Code. (Chapters 1-5. Articles 1-80)" | NRM.uz https://nrm.uz/contentf?doc=9123_fuqarolik_kodeksi_(1-5_boblar_1-80-moddalar)&products=1_zakonodatelstvo_ruz&trr
4. Oliy Majlis Legislative Chamber https://parliament.gov.uz/news/yangi-ozbekiston-va-fuqarolik-jamiyati-holati-va-istiqbollari
5. A dialogue was held at the International Press Club on the activities of NGOs — Uzbekistan News | DARYO.UZ https://daryo.uz/2018/09/07/xalqaro-press-klubda-nntlar-faoliyati-yuzasidan-muloqot-bolib-otdi
6. ChatGPT https://chatgpt.com/c/6742166c-e678-8001-8ee8-b1818a5a9fbd

7 – TOM 12 – SON / 2024 - YIL / 15 – DEKABR

SPORTNING INSON HAYOTIDA TUTGAN O‘RNI, AHAMIYATI VA AFZALLIKLARI

O ‘zMU talabasi: **Ahmadjonova Aziza**
Telefon raqam: (+998 94 174 84 42)
E-mail address: akhmadjanovaaziza9@gmail.com

Annontatsiya: Ushbu maqolada sportning inson hayotida tutgan o‘rni, ahamiyati va afzalliklari haqida. Inson hayotidagi ahamiyati va afzalliklari to‘risida. Bizning jamiyatimizda tutgan o‘rni, bugungi kundagi sharoitlari va insonning hayotida va sog‘lig‘iga ta’siri. Kelajakda yoshlarimizning tarbiyasiga ta’siri, agarda muntazam ravishda shug‘ullanilsa qanday oqibatlarga olib kelishi. Bizning kunlik kayfiyatimiz va immunitentimizga ta’siri to‘g‘risida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Sport, sog‘lom turmush, salomatlik, musobaqa, yuksalish, jamiyat, inson, jismoniy tarbiya, madaniyat, murabbiy, sportchi.

Barchamizga ma’lumki hozirgi kunda sport turlari ya’ni sport bilan shug‘ullanish odatiy holga aylanib ulgurdi. Bunga sabab barcha mamlakatlarda sport bilan shug‘ullanadigon yoshlarning ko‘payib borishi va sportga bo‘lgan e’tiborni kuchliligini olib gapirsak bo‘ladi.

Demak biz sport bu nima va hayotimizga qanday ta’sir ko‘rsatishini o‘rganib chiqsak:

Sport- bu jismoniy madaniyatning tarkibiy qismi bo‘lib, jismoniy tarbiya vositasi va usuli, jismoniy mashqlarni turli majmualari bo‘yicha musobaqalar tashkil etish, tayyorlash va o‘tkazish tizimi hisoblanadi. Sportning maqsadi kishilarning sog‘lig‘ini mustahkamlash va umumiy jismoniy rivojlantirish bilan birga sport musobaqalarida yuqori natija va g‘alabalarga erishishdir. Dastlabki sport musobaqalari Yunonistonda bo‘lib o‘tgan. Xalqaro olimpiada qo‘mitasi tashkil qilinganidan keyin sport juda tez rivojlana boshlagan. 1896-yilda 1-zamonaviy Olimpiada o‘yinlari o‘tkazilgan.

Sportning asosiy 3 ta o‘zaro bog‘liq tashkiliy shakllari mavjud:

1) ommaviy havaskorlik ;
2) o‘quv fani sifatidagi Sport;
3) yuqori natijalar Sporti;

Ommaviy havaskorlik sporti — insonning jismoniy takomillashuvi sharti. Bu kishilarning yoshi, salomatligining holati, jismoniy rivojlanish darajasiga ko‘ra chegaralanadi.

O‘quv fani sifatidagi sport — barcha turdagi ta’lim muassasalari va qurolli kuchlarda harbiy-jismoniy tayyorgarlik dasturlariga kiradi.

Yuqori natijalar sporti eng yaxshi sport ko‘rsatkichlari (rekordlar)ga erishish uchun sharoit yaratadi, insonning jismoniy tayyorgarligini namoyish etadi, jismoniy

tayyorgarliklarning samarali vosita va usullarini ommaviy amaliyotga tatbiq etishga yordam beradi.

Taraqqiyot jarayonida sport jismoniy tarbiya doirasidan chiqib, mustaqil umummadaniy, siyosiy, estetik, iqtisodiy ahamiyat kasb etdi. Sport do‘stona xalqaro aloqalarni kengaytirishga, xalqlarning o‘zaro birbirini tushunishi va do‘stligi rivojlanishiga xizmat qilmoqda. XIX asr o‘rtalaridan bir necha G‘arb mamlakatlarida professional sport rivojlana boshladi. U tomoshabopligi, biznesga aylanib, katta daromad manbai bo‘lib borayotganligi bilan ajralib turadi. O‘zbekiston Respublikasida sport umumdavlat ishi hisoblanib, jismoniy madaniyat bilan birga aholining barcha qatlamlarini va yosh guruhlarini qamrab olgan. Mamlakatda 50 dan ziyod sport turi ommalashgan, ulardan 30 turi Olimpiada o‘yinlari dasturiga kiritilgan.

Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, sport bu sog‘lom hayot vositasidir. Sababi sport bilan shug‘ullangan insonning miya va qon faoliyati ham juda yahshi ishlaydi, insonning qaddi-qomatini ham tiklashga va chiroyli bo‘lib shakllanishiga yordam beradi. Ko’pchilik uchun sport bu olijanob kasb, bu insonda nafaqat jismoniy qobiliyatni, balki xarakterning kuchli ekanligini ham namoyon etadi. Shu sababli, sport haqidagi iqtiboslar odamlarni yanada kuchli va dadil bo‘lishga, to‘siqlardan qo‘rqmaslikka va siz ko‘rishingiz kerak bo‘lgan maqsadni ko‘rishga undaydi.

Sportning hayotimizda tutgan o‘rni beqiyosdir. U insonning ruhan va jismonan yetuk bo‘lishida katta ahamiyat kasb etadi. Quyida jismoniy mashqlar bajarishning foydalari haqida to‘xtalib o‘tamiz.

Jismoniy tarbiyaning sog‘liqqa foydalari:

• sport bilan muntazam shug‘ullanish uzoq umr ko‘rishning eng oddiy yo‘lidir.

• kishi sport bilan shug‘ullanganida organizmi yaxshi chiniqadi, muskullari tez charchamaydi. Chiniqqan odamning nerv-endokrin, yurak-qon tomir, nafas olish va boshqa hayotiy muhim a’zolari hamda to‘qimalarining ish faoliyati ortadi.

• sport mashg‘ulotlari odam tanasidagi to‘qimalarning tez yangilanishi, uning yosh, sog‘lom va tetik saqlanishiga sabab bo‘ladi.

• taloqda limfotsitlar hosil bo‘lishi ko‘payib, organizmning yuqumli kasalliklardan himoyalanish qobiliyati (immunitet) kuchayadi.

• kam harakatlilik (gipodinamiya) yurak faoliyatini kuchsizlantiradi. Natijada yurak-qon tomir va boshqa kasalliklar yuzaga keladi.

• mashqlar orqali qon aylanishi tezlashadi, miyamizga kislorod boradi, mushaklar kuchayib, bo‘g‘imlarning harakatini ta’minlaydi, ruhiy taranglik yo‘qolib, energiya ortadi.

• sport bilan shug‘ullanuvchilarda yurak klapanlari va muskullari yaxshi rivojlanib, uning hajmi boshqalarnikiga qaraganda kattaroq bo‘ladi.

• o‘pkaning tiriklik sig‘imi ortadi (4500-6500 ml.ga etadi), nafas olish va qon aylanish a’zolari yaxshi rivojlanadi.

• odatda zaiflashgan, chiniqmagan tanada mikroblar yashashi va ko‘payishi uchun qulay sharoit topadi. Natijada bunday odam kasallanadi.

• jismoniy mashqlar tufayli yurak, buyrak, o‘pka va tomirlar kuchga to‘ladi, tomirlar kengayadi va elastik holatga keladi. Shunday qilib tomirlardagi yog‘ nisbati, xolesterin, shakar va insulin pasayadi. Tananing yog‘ nisbati kamaysa, o‘zimizni kuchli his etamiz, asab tizimi sog‘lom bo‘ladi.

• xotirani kuchaytirishning eng muhim sharti asablarning sog‘lom bo‘lishidir. Buning uchun esa badantarbiya bilan shug‘ullanish lozim.

• uy sharoitida jismoniy mashqlar bajarish yoki biron sport turi bilan shug‘ullanish hozirda keng tarqalgan semirishning oddiy davosidir. Zero, semirish ish faoliyatini pasaytiradi, sog‘liqni zaiflashtiradi.

• jismoniy tarbiya mashqlari kishiga ko‘tarinkilik va ruhiy dalda bag‘ishlaydi. Bunday holda ishlar unumli va sog‘liq joyida bo‘ladi.

• agar kishi bir kunda 10 daqiqa jismoniy mashqlar bajarsa, u daqiqasiga yuragining 10 marta urishini “tejab” qolar ekan. Bu bir yilda 500.000 martani tashkil qiladi. Mana shu yo‘l bilan yurak-qon tomir kasalliklaridan forig‘ bo‘lish, yurakni sog‘lom qilish, infarktdan qutulish mumkin.

• aqliy mehnat jismoniy mehnat bilan almashtirib turilsa, odam uzoq vaqt charchamaydi, ishi unumli bo‘ladi. Chunki aqliy mehnat davrida miyadagi qo‘zg‘algan markazlar jismoniy mehnat vaqtida dam oladi. Chunonchi, ilm olishda har 40-60 daqiqada 5-6 daqiqa badantarbiya mashqlari bajarilsa, miyaning zo‘riqishidan paydo bo‘ladigan nevroz kasalligining oldi olinadi.

Uzoq umr ko’rish ko’pchilikning maqsadi bo’lib, bu erda faol hayot tarzi muhim rol o‘ynaydi. Muntazam mashqlar va jismoniy faollik tanani mustahkamlash, jismoniy va ruhiy holatni yaxshilash, diabet va yurak-qon tomir kasalliklari kabi surunkali kasalliklar xavfini kamaytirishga yordam beradi. Jismoniy faollikning eng muhim afzalliklaridan biri yurak sog‘lig‘ini himoya qilishdir. Muntazam jismoniy mashqlar qon aylanishini yaxshilaydi, xolesterin miqdorini pasaytiradi va yurak mushaklarini mustahkamlaydi, yurak-qon tomir kasalliklarini rivojlanish ehtimolini kamaytiradi, bu esa butun dunyo bo‘ylab ko‘plab o‘limga olib keladi. Jismoniy faollik suyaklarning holatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, ularning zichligini oshiradi va mushaklarni kuchaytiradi, bu ayniqsa qarishda, sinish va osteoporoz xavfi ortganda muhimdir. Bundan tashqari, sport psixologik farovonlikka yordam beradi, chunki u stressni engish va kayfiyatni yaxshilaydigan tabiiy antidepressantlarni (endorfinlar) ishlab chiqishga yordam beradi. Bu psixologik uzoq umr ko‘rishga yordam beradi. Binobarin, sport bilan muntazam shug‘ullanish va jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanish nafaqat jismoniy salomatlikni mustahkamlaydi, balki uzoq, faol va sog‘lom hayot kechirishga xizmat qiladi, ularni sog‘lom turmush tarzining ajralmas qismiga aylantiradi. Agar shunday hayotni maqsad qilgan bo‘lsangiz, sport va jismoniy faollikning kundalik hayotdagi ahamiyatini unutmaslik lozim.

Jismoniy faollik ruhiy salomatlikka jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini kam odam tushunadi. Biroq, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, muntazam mashg'ulotlar miya faoliyatini yaxshilashi va ko'plab aqliy foyda keltirishi mumkin. Jismoniy faoliyatning miyaga ta'sirining muhim jihati diqqat, konsentratsiya va xotira kabi kognitiv funktsiyalarni oshirishdir. Bu miyadagi neyron aloqalarni mustahkamlashga yordam beradi, bu esa ma'lumotni yanada samarali assimilyatsiya qilishga va oqilona qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Jismoniy faollik, shuningdek, endorfin ishlab chiqarishni rag'batlantiradi – tabiiy «baxt gormonlari» bu sizning kayfiyatingizni ko'taradi va stress va xavotirni engishga yordam beradi. Bundan tashqari, sport faoliyati fikrlash jarayonini diversifikatsiya qilish va ijodiy fikrlashni rag'batlantirish orqali ijodkorlik va mahsuldorlikni rivojlantirishga yordam beradi. Bu ishda ham, kundalik hayotda ham foydali bo'lib, maqsadlaringizga erishishga yordam beradi. Jismoniy faollik miyaga juda ko'p ijobiy ta'sir ko'rsatadi, bu bizni aqlliroq, baxtliroq va hayotning turli jabhalarida muvaffaqiyatliroq qiladi. Shunday ekan, sport orqali faol hayot tarzini olib borish, jismoniy va ruhiy salomatligingizga g'amxo'rlik qilish imkoniyatini qo'ldan boy bermaslik kerak.

Jismoniy mashq bajarganda burun orqali nafas olib, uni og'izdan chiqarishga odatlanish kerak. Buning natijasida nafas harakatlarida ishtirok etuvchi qovurg'alararo muskullar va diafragma yaxshi rivojlanadi, o'pkaning tiriklik sig'imi ortadi. Ommabop bo'lgan sport turlariga quyidagilar kiradi: futbol, suzish, velosiped haydash, basketbol, voleybol, tennis, kurash va hokazo. Sport bilan shug'ullanish bilan birga o'z vaqtida dam olish va vitanminlar bilan to'yingan mahsulotlarni me'yorida iste'mol qilish ham lozim. Sport bilan shug'ullanishda yosh, jismoniy holat, sog'liq va vaqtga e'tibor berish kerak.

Sport bilan muntazam shug'ullanish inson hayotida sekin astalik bilan odatga aylanib qoladi, shu sababdan ham shug'ullanib yurgan inson bo'shqalarga nisbatan tetikroq va yahshi kayfiyatda yuradi. Professional sportchi bo'lish uchun bilamiz tinimsiz ravishda qattiq mehnat bilan shug'ullanmoqlik zarur bo'ladi, bilamiz bu katta mehnat va nimadurlardan kechishga va sog'lom, kalloriyalik ovqatlarni istemol qilishni talab qiladi. Ushbu jarayonda sportchiga yahshi murabbiy kerak bo'lib, sportchi murabbiy bilan uzliksiz mehnat qilishi va do'stdek yaqin bo'lib, faoliyat yuritishlari kerak bo'ladi.

Hulosa qilib aytadigon bo'lsak, sportning inson hayotidagi o'rni juda muhim ekanligini ko'rishimiz, shuningdek inson hayotidagi ahamiyati va afzalliklari haqida to'risida tanishib chiqdik. Yoshlarimizni jismonan va ma'nan yetuk bir shaxs sifatida ulg'ayishlarini istasak, albatta sport bilan muntazam ravishda sport bilan shug'ullantirishimiz va qiziqtirishimiz lozim bo'ladi. Sport aslida yosh tanlamaydi, sababi barcha yoshdagi insonlar sog'liqlari uchun ham turli hildagi sport turlari bilan va hozirgi kunda zallarga o'zlarining sog'liqlari uchun chiqishadi. Hozirgi kunda sportga bo'lgan e'tibor ham ancha kuchayib bormoqda. Shuningdek davlatimiz rahbarining biz

yoshlarga yaratib berayotgan sharoitlari bunga yaqqol ispot desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Sababi qanchadan qancha yoshlarimiz turli hildagi katta-katta nufuzli musobaqalarda davlatimiz bayrog‘ini ulkan arenalarda ko‘tarib kelishmoqda. Sport ham sog‘liq, ham kayfiyat, ham mansab va daromat ham olib kelmoqda. Bularning ba’ri birgina sportning orqasidan ergashib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

[1] https://uz.wikipedia.org/wiki/Sport
[2] https://uzdjtsunf.uz/jismoniy-tarbiyaning-inson-umridagi-ahamiyati/
[3] https://avitsenna.uz/jismoniy-tarbiya
[4] https://interfinance.uz/voqealar/faol-turmush-tarzining-o-zgartiruvchi-kuchi-bu-sizning-hayotingizga-qanday-ta-sir-qiladi/

7 – TOM 12 – SON / 2024 - YIL / 15 – DEKABR

ZAMONAVIY DASTURLASHDA FOR OPERATORINI MATHCAD DASTURIDA QO‘LLANILISHI

G’oymatova Dilafruz G’ofurjonovna.
“Universitiy of economics and pedagogi”
“Maktabgacha va boshlang`ich ta`lim”
kafedrasi assistenti.

Annotatsiya. Dasturlash Mathcadda asosiy o`rin tutadi. Mathcad ko`plab masalalarni dastursiz yechish imkonini beradi. Lekin shunday sinf masalalari borki ularni dastursiz yechib bo`lmaydi. Mathcad har qanday murakkab dasturni kiritish imkonini beradi. Mathcadda dasturlash juda aniq va tushunarli, unda dastur bir nechta ketma-ket formulalarni ifodalaydi. Dasturlashning asosiy operatorlari Programming (Dasturlash) panelida joylashgan.

Kalit so’zlar: zamonaniy dasturlash, for operator, Mathcad, For Loop, o‘zgarish diapazoni, vektor, formulalar, sinf masalalari.

Аннотация. Программирование занимает центральное место в математике. Mathcad позволяет решать многие задачи без программирования. Но есть классовые вопросы, которые без программы решить невозможно. Mathcad позволяет войти в любую сложную программу. Программирование Mathcadda очень ясное и легкое для понимания, в котором программа выражает несколько последовательных формул. Основные операторы программирования расположены на панели Программирование.

Ключевые слова: современное программирование, оператор for, Mathcad, цикл For, диапазон изменения, вектор, формулы, классовые задачи.

Mathcad dasturida for operatori yordamida takroriy hisoblashlarni amalga oshirish mumkin. for operatori sikl (loop) yaratishga imkon beradi, bu esa biror amalni bir necha marta bajarishga yordam beradi.

For sikli ichida break va continue operatorlaridan foydalanish mumkin, lekin Mathcad dasturida bu operatorlar faqat shartli holatlarda ishlatiladi.

Mathcad dasturida for siklidan foydalanish, odatda, katta hisoblashlar yoki murakkab algoritmlar uchun qulaydir.

Mathcad dasturida for operatori yordamida takroriy hisoblashlar qilish, matematik modellash va muammolarni yechishda juda foydali.

For sikl operatorini takrorlanishlar soni oldindan aniq bo`lganda ishlatish maqsadga muvofiqdir. For operatorining takrorlanishini, undan oldin berilgan o`zgaruvchi aniqlaydi.

For sikl operatorini yozish uchun quyidagi ketma ketliklarni bajarish lozim:

1. Kursorni dastur kiritish kerak bo`lgan bo`sh joyga qo`yiladi.

2. Dasturlash panelidan For Loop (Tsikl For) tugmasi bosiladi.

3. For operatorining o`ng tomonidan o`zgaruvchi nomi kiritilib, undan keyin o`zgaruvchining o`zgarish diapazoni beriladi. Sikl o`zgaruvchisi sonlar qatori yoki vektor bo`lishi mumkin. Masalan rasmda o`zgaruvchi qiymatlari vergul bilan ajratilgan vektor qilib berilgan.

4. For operatori pastidan sikl hisoblashi lozim bo`lgan ifodalar kiritiladi. Agar siklda bir nechta ifodalarni hisoblash kerak bo`lsa, oldin kursorni kiritish joyiga qo`yib, keyin Add Program Line (Dasturga qator kiritish) yoki “]” (yopuvchi o`rta qavs) tugmasini sikl nechta qatorni o`z tarkibiga kiritsa shuncha marta bosish kerak bo`ladi. Keyin kiritish joylarini kerakli ifodalar bilan to`ldirib, ortiq kiritish joyi olib tashlanadi. Quyidagi 1-rasmda keltirilgan misolda berilgan qiymatdan biron vektorning birinchi katta qiymatini aniqlash berilgan.



1-rasm. Dasturlashda For sikl operatorini qo`llailishi

1. h haqiqiy soni $h \in R$ berilgan. $ax^2 + bx + c = 0$ kvadrat tenglama koeffitsiyentlari quyidagicha bo’lsa:

$$a = \sqrt{\frac{|\sin 8h| + 17}{1 - \sin 4h \cdot \cos(h^2 + 18)^2}}$$

$$b = 1 - \sqrt{\frac{3}{3 + |tgah^2 - \sin ah|}}$$

$$c = ah^2 \cdot \sin bh + bh^2 \cdot \cos ah$$

Uning xaqiqiy ildizlari bor yoki yo’qligini va qiymatlarini aniqlang.

$$\frac{\cos 1}{\sin 1}+\frac{\cos 1+\cos 2}{\sin 1+\sin 2}+\ldots+\frac{\cos 1+\ldots+\cos n}{\sin 1+\ldots \sin n}$$

2. n natural son $(n \in N)$, x haqiqiy son $(x \in R)$ berilgan. Quyida berilganlarni hisoblang.

a). $\sin x+\sin\sin x+\ldots+\underbrace{\sin\sin\ldots\sin}_{n} x$

b). $\sqrt{3+\sqrt{6+\ldots+\sqrt{3(n-1)+\sqrt{3n}}}}$

d).

3. n<1000 shartni qanoatlantirsa, 3 va 4 ga qoldiqsiz bo'linmaydiganlarini toping.

5. n natural son uchun

$$l(n)=\begin{cases} n^2+n^3, & \text{если } 1<n<3 \\ n^3-n^2, & \text{если } n=5 \\ n+1, & \text{если } n>3 \end{cases}$$

shartni qanoatlantirsa

$$\frac{l(n)}{1!}+\frac{l(n)}{2!}+\ldots+\frac{l(n)}{n!}$$

ni hisoblang.

```
S(x,n) := | S_0 ← x
          | Z ← 0
          | i ← 1
          | while i ≤ n
          |     | S_i ← sin(S_(i-1))
          |     | Z ← Z + S_i
          |     | i ← i + 1
          | Z
```

```
money := | n ← 1
         | b ← 1
         | Q ← 0
         | W ← 3n
         | E ← 0
         | R ← 0
         | T ← 4b
         | Y ← 0
         | while W ≤ 1000
         |     | W ← 3n
         |     | Q ← E + W
         |     | E ← Q
         |     | n ← n + 1
         | while T ≤ 1000
         |     | T ← 4b
         |     | R ← Y + T
         |     | Y ← R
         |     | b ← b + 1
         | F ← E + Y
         | (E Y F)^T
```

```
hacker(n) := | i ← 1
             | S ← 0
             | C ← 0
             | K ← 0
             | while i ≤ n
             |     q_i ← sin(i)
             |     S ← S + q_i
             |     w_i ← cos(i)
             |     C ← C + w_i
             |     r_i ← S / C
             |     K ← K + r_i
             |     i ← i + 1
             | K
```

```
O(f) := | S_0 ← 0
        | e ← f
        | i ← 1
        | while i ≤ f
        |     S_i ← sqrt(3e + S_(i−1))
        |     Z ← S_i
        |     i ← i + 1
        |     e ← e − 1
        | Z
```

```
step(n) := | w ← (n^2 + n^3)  if 1 < n < 3
           | w ← (n + 1)  if n > 3
           | w ← (n^3 − n^2)  if n = 5
           | S ← 0
           | i ← 1
           | while i ≤ n
           |     V_i ← w / i!
           |     S ← S + V_i
           |     i ← i + 1
           | S
```

Zamonaviy dasturlashda for operatori ko'plab dasturlash tillarida takroriy hisoblashlar va ma'lumotlarni qayta ishlash uchun keng qo'llaniladi.

Mathcad dasturida for operatori zamonaviy dasturlashning asosiy tamoyillaridan biri bo'lib, takroriy hisoblashlar va ma'lumotlarni qayta ishlashda keng qo'llaniladi. Uning oddiy sintaksisi va kuchli imkoniyatlari dasturchilar uchun qulaylik yaratadi va murakkab matematik muammolarni yechishda samaradorligini oshiradi. Shuningdek, bu operator yordamida natijalarni saqlash va analiz qilish imkoniyatlari mavjud bo'lib, bu ilmiy-tadqiqot ishlarida juda muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. – Toshkent, 1992.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 31 maydagi PF-3080-son «Kompyuterlashtirishni rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnolo-giyalarini joriy etish to'g'risida»gi Farmoni. – Toshkent, 2002-yil 31 may.
3. Abduqodirov A.A., Fozilov F.I. Umurzakov T.N. Hisoblash matematikasi va programmalash. Toshkent. O'qituvchi. 1989 y.
4. Amridinov S. «Hisoblash matematikasi» fanidan o'quv – uslubiy majmua – Samarqand: SamDU nashri, 2010. – 220 bet.
5. Isroilov M.I. Hisoblash usullari. Toshkent. Ukituvchi. 2008y.
6. Mirzakarimov Ergashboy Mizaboevich - Sonli hisoblash usullari va dasturlash (Oliy O'quv Yurtlari Uchun O'quv Qo'llanma) – Toshkent-Farg'ona-2009
7. Алексеев Е.Р., Чеснокова О.В. Решение задач вычислительной математики в пакетах MathCad, Mathlab, Maple (Самоучитель). – М.: НТ Пресс, 2006. – 496 с.
8. Алексеев Е.Р., Чеснокова О.В. Решение задач вычислительной математики в пакетах MathCad12, Mathlab 7, Maple 9. 2007
9. С.М.Эрмаков Метод Монто-Карло в вычислительной математике (вводный курс). – Санкт-Петербург, 2009
10. Крилов В.И., Бобков В.В., Монастырный П.И. Вычислительные методы высшей математики в 2-х томах.Минск, Высшая шк., 1972-1975. т. 1-2.
11. В.Г.Веретенников, И.И.Карпов, А.П.Маркеев, С.В.Медведов, В.И.Пеньков, В.А.Синицын, Т.Н.Чеховская. Теоретическая механика Вывод и анализ уравнений движения на ЭВМ. Москва. "Высшая школа", 1990
12. Д.Р.Меркин. Введение в теорию устойчивости движения.Учеб.пособие для вузов. - 3-е изд., перерап. и доп. – М: "Наука" Гл.ред. физ.-мат. Лит., 1987.-304с

7 – TOM 12 – SON / 2024 - YIL / 15 – DEKABR

REVMATOID ARTRIT VA QALQONSIMON BEZ KASALLIKLARI KECHISHINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

Shonazarova N.X., Mirzayev O.V.

Samarqand Davlat tibbiyot universiteti. O'zbekiston Respublikasi. Samarqand sh.

ОСОБЕННОСТИ КОМОРБИДНОГО ТЕЧЕНИЯ РЕВМАТОИДНОГО АРТРИТА И ГИПОТИРЕОЗНЫХ ЗАБОЛЕВАНИЙ

Шоназарова Н.Х., Мирзаев О.В.

Самаркандский государственный мединский университет. Республика Узбекистан. Самарканд г.

FEATURES OF COMORBID COURSE OF RHEUMATOID ARTHRITIS AND HYPOTHYROID DISEASES

Shonazarova N.X., Mirzayev O.V.

Samarkand State Medical University. Republic of Uzbekistan. Samarkand

Annotatsiya

FOYDALANILGAN ADABIYOTAR

1. Yoqubov O. «Osiy banda» romandan boblar. Jahon adabiyoti jurnali, 2006 yil, 9-son, 36 b.

2. Safarov Sh. Pragmalingvistika. - «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti. - Toshkent, 2008 yil.

3. Aliqulov Z., Boymirzayeva S. Sotsiolingvistika. Samarqand: 2010. 94- b.

4. Begmatov E., Tursunpo'latov M. Ozbek nutqi asoslari. -Toshkent, 1992. 88- b.

5. Bekmirzayev N. Notiqlik san'ati asoslari.-Toshkent,2007. 90- b.

6. Jumaniyozov R. Nutqiy mahorat. -Toshkent, 2005. 40-b.

7 – TOM 12 – SON / 2024 - YIL / 15 – DEKABR

ALISHER NAVOIYNING “HAYRATUL ABROR” ASARIDA PEDAGOGIK MOHIYAT MAVZUSIDA MAQOLA.

Kazakova Barno Axmedjanovna
Maqola mualliflari: UrIU filologiya fakulteti o’zbek tili yo’nalishi 2-bosqich talabasi.
Komiljonova Tabassum G’ulomboy qizi
Komiljonova Sarvinoz G’ulomboy qizi.
UrRTU Pedagogika va chet tillari fakulteti magistrantlari

Annotatsiya: “Hayratul Abror” – o’zbek adabiyotining buyuk asarlaridan biri bo’lib, uning pedagogik ta’limotlari va ta’siri zamon o’tgani sari o’rganilmoqda. Asar, ayniqsa yoshlarning axloqiy va ma’naviy kamoloti, insoniy fazilatlar va dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.bu asar o’quvchilarni hayotiy maqsadlarini ahglshga, izzat-ikromga, haqqoniylukka va adolatga undaydi.

Kalit so’zlar: 1.Tarbiyaviy ahamiyat- Asar orqali shakllangan tarbiyaviy qadriyatlar. 2.Ruhiy tarbiya- asarda insonning ruhiy jihatlariga e’tibor qaratish.3. Xulq atvor-asarda yaxshi va yomon xuiqni namoyon etish.4. O’qituvchining roli- pedagogik jarayonda o’qituvchining ahamiyati. 5. Ma’naviyat- asar oqali tarbiyalanuvchi ma’naviyatini shakllantirish.6. Ta’lim tizimi- asarda ta’limga oid ilg’or g’oyalar yoki prinsiplarga ta’sir.

Kirish: “Hayratul Abror” asari muallifi Alisher Navoiy,o’zbek adabiyotining yirik namoyondalaridan biri sifatida, inson tarbiyasiga katta ahamiyat bergan. Asarda pedagogik fikrlar aniq, ma’naviy qadruyatlar esa yosh avlod uchun tushunarli va qiziqarli tarzda berilgan.Bu asarda insonning axloqiy yuksalishi, uning hayotga bo’lgan qarashlari, tog’ri yo’lni tanlashdagi ma’naviy harakatlarning pedagogik jihatlari alohida organishga arziydi. “Hayratul Abror” asarining pedagogik ta’siriga taalluqli bir qancha muhim jihatlar mavjud. Ular quyidagilardan iborat:

Insoniylik va axloqiy tarbiya-Asar insonning axliqiy jihatdan to’g’ri yo’lni tanlash, adolat va haqiqatni qadrlashni targ’ib qiladi. Bu pedagogik jihatdan yoshlarni ahloqiy me’yorlarga, to’g’ri qarorlar qabul qilishga, chinakam insonbulishga undaydi.

Vatanparvarlik- Asarda vatan sevgi, millatga sadoqat, do’stlik va hamjihatlikda yashashning ahamiyati kata o’rin tutadi. Yoshlarni yurtga, millatga xizmat qilishga chaqirish va ularga vatanparvarlik hislarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Ilm-fan va ma’rifat – Asarda ilm va ma’rifatning kughi ta’kidlanadi. Bu pedagogik nuqtayi nazardan, yoshlarni ilm olishga, o’z ustida ishlashga va dunyoqarashini kengaytirishga undaydi. Ilmning ahamiyatini yuksaltirish, yoshlarni o’z maqsadlariga erishishiga ilhomlantiradi.

O’quvchilarni tarbiyalashdagi o’rni- Asarda bolalar va yoshlarni tarbiyalshda pedagogik metodlar va usullar aniq ko’rsatilgan. Asar har bir yoshga o’ziga xos

shaxsiyatni, ohgli va ma’naviy turmushni shakllantirishga qaratilgan.ular axloqiy tarbiya olishda muhim o’rin tutadi. Asarda bevosita yoki bilvosita tarzda o’quvchilarga ma’naviy, axloqiy, ilmiy estetik tarbiya berishga qaratilgan bir qator tavsiyalar mavjud.

Bugungi pedagogik amaliyotdagi o’rni- “Hayratul Abror” asarining pedagogik tamoyillari bugungi kunda o’z ahamiyatini yo’qotmagan. Uning mazmuni o’quvchilarni axloqiy-ruhiy jihatdan tarbiyalash, ularning bilim va tafakkurini rivojlantirishda dolzarbdir. Pedagoglar va murabbiylar ushbu asar orqali yoshlarni jamiyatda to’g’ri va adolatli yo’lda yashashga o’rgatishda samarali usullardan foydalanishlari mumkin.Asar o;quvchilarini mehr-muhabbatga, insonparvarlikka ijtimoiy mas’uliyatga undaydi,shuningdek, ma’naviy va ilmiy kamolotga erishish yo’lida ularga to’g’ri yo’lni ko’rsatadi.

“Hayratul abror” asari o’zining pedagogik ta’siri bilan ajralib turadi. U nafaqat axloqiy tarbiya, balki ilmiy va ma’naviy kamolotni ham o’zida mujassam etgan. Ushbu asar orqali yoshlarni to’g’ri yo’lni tanlashga, jamiyatda o’z o’rnini topishga, vataniga sadoqatli bo’lishga undashi mumkin.Asarning pedagogik g’oyalari bugungi kunda yoshlarni kamolotga erishtirishda juda muhim ahamiyatga ega.

Asarning 12 bobidan boshlab ustozlarga Nizomiy Ganjaviy va Xisrav Dehlaviylarga tariflar keltiriladi.Navoiy Nizomiyga tarif keltirar ekan uning ismidagi abjad harflar 1001 ga tengligini aytadi. Ishtiqoq san’ati bilan beztilgan Panj Ganj (Xamsa) asariga tariff beradi.

Ganja vatan, ko’ngli aning ganjxez,

Xotiri ganju-ru tili ganjrez.

Ya’ni Ganj vatan bo’ladigan bo’lsa, uning ko;ngli xuddi ganj xazina to’kuvchidir deydi. Bunda Nizomiyning Ozarbayjondagi Ganj tumanidanligini aytib o’tgan Xusrav Dehlaviyg atarif berar ekan bevosita Hindistondan ekanligini aytib ko’proq qora rahgli so;zlarga ishora qilgan. Uni to’tiga o’xshatadi, hinduga o;xshatadiva har bir dostonniHindistonning bir o’lkasiga tengligini aytadi.

Nazmi savodi aro har doston

O’ylaki bir kishvari Hinduston.

13 bob esa Jomiyga bag’ishlanadi. 14-15 boblari so’z tarifiga bag’ishlanadi. Navoiy so’zning buyukligini aytarkan uning kun ya;ni kaf bilan nun harflarining birlashishidan yaralganligini aytadi. 16 bobi Husayin Boyqaroga bag’ishlanadi. Boyqaroni ulug’laydi,uni talmeh san’ati vositasida qahramon Rustamga o’xshatadi va Eronning podshosi Jamshidga o’xshatadi.17 bobi esa ko’ngilga tarif beriladi.Insonni Olloh yaratgandan keyin unga ko’ngil ato etganligini va ko’ngil barcha insonlarda ham bir xil emasligini takidlab o’tgan. 22 bobdan boshlab hikoyalar rivoji boshlanadi. 3 hikoyasida Navoiy adolatli shohlar haqida rivoyatlar keltiradi.Bu o’rinda shoh G’oziy hikoyati e’tiborga molikdir.Bir kuni shohning oldiga bir kampir keladi va uning o’g’li jangda halok bo’lganini aytib o’g’li uchun xun talab qiladi. Shun adolatli shoh belidagi

kamarini yechib unga uzatadi va qilich bilan boshimni kesishing mumkin deydi. O'g'lingning xunini boshim bilan to'layman deydi. Shunda kampir uning adolat shoh ekanligiga ishonadi.shoh kampir boshidan tilla- sar sochadi va kampir tilla kampir nomiga sazovor buladi. 4 maqolatida haqgo'y shayxlar va riyokor shayxlar to'g'risida so'z ketadi.5-6 maqolatlarda esa Hotamtoy haqida hikoyat keltirilgan.Hikoyatga ko'ra bir kuni Hotamtoy elni yig'ib osh beradi va atrofni chiqib tomosha qilib turganda qari bir kishining yelkasiga o'tin ortib kelayotganini ko'radiva undan nima uchun hotamtoy bergan oshga bormading deb so'raydi. Shunda o'tinchi chol Hotamtoyning Minnatini ko'targuncha o'tinimni ko'targanim yaxshi deb javob beradi.Ana shundan keyin Hotamtoy o'tinchi chol undanda himmatliroq ekanligini biladi. Unga tahsinlar aytadi birovning minnatidan ko'ra halol luqma yydigan insonlar ulug'lanadi bu hikoyada.

Xulosa

"Hayrat-ul abror" asarida pedagogik mohiyat haqida so'z yuritish, asar orqali ta'lim va tarbiya sohasidagi ahamiyatli fikrlarni ahglashga yordam beradi. Ushbu asarda muallif insonning ma'naviy va axliqiy tarbiyasining shakllantirishda pedagogik yondashuvlarning muhimligi, shuningdek, tarbiyachi va o'quvchi o'rtasidagi munosabvatlar, ularga ta'sir etuvchi omillar va tarbiyaning maqsadlari haqida so'z yuritilgan. Xulosa qilib aytganda, 'Hayrat-ul abror" asarida pedagogik mohiyat nafaqat an'anaviy, bilimlar berish, balki, insonni ma'naviy jihatdan to'liq rivojlantirishga, uning axloqiy qadriyatlarini shakllantirishga ratta e'tibor qaratilgan. Pedagogik yondashuvlar orqali ijtimoiy va axloqiy normalarni o'rgatish, shaxsiyatning rivojlanishini qo'llab – quvvatlash asar mazmunining markazida turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Xurshid Davron kutubxonasi.
2. Audio kitoblar kanali.
3.Navoiy Poetikasi. 1983 yilda chop etilgan adabiyot.
4. Sharq Mumtoz poetikasi pdf kitobi.

7 – TOM 12 – SON / 2024 - YIL / 15 – DEKABR

TAEKVONDO WT SPORT TURIDA POOMSE YO‘NALISHINI RIVOJLANTIRISH

O ‘zMU talabasi: **Ahmadjonova Aziza**
Telefon raqam: (+998 94 174 84 42)
E-mail address: akhmadjanovaaziza9@gmail.com

Annontatsiya Ushbu maqolada Taekvondo WT sport turining Poomse yo‘nalishini rivojlantirish muhimligi va uning jahon sportidagi o‘rni haqida so‘z yuritiladi. Poomse Taekvondo texnikasi, madaniy merosi va falsafiy asoslarini aks ettiruvchi murakkab harakatlar majmuasidir. Mazkur yo‘nalishni rivojlantirish sportchilarning texnik mahorati va ruhiy barqarorligini oshirish, xalqaro musobaqalarda muvaffaqiyat qozonish imkoniyatlarini kengaytirishi to‘g‘risida. Maqolada Poomse yo‘nalishini targ‘ib qilish va takomillashtirish bo‘yicha yechimlar taklif etilgan. Xususan, murabbiy va sportchilarni tayyorlashda zamonaviy metodlardan foydalanish, musobaqa sonini oshirish va ommaviy targ‘ibot ishlari orqali bu yo‘nalishga yoshlarni keng jalb qilish tavsiya etiladi. Shuningdek, texnologiyalarni joriy qilish, jumladan, video tahlil tizimlari va onlayn musobaqalarni rivojlantirish orqali Poomse mashg‘ulotlari va musobaqalarini yangi bosqichga olib chiqishi mumkinligi to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar Taekvando, sport, sportchi, murabbiy, poomse, musobaqa, mashg‘ulot, rivojlanish, ommaviylashtirish.

Taekvondo WT sport turi nafaqat jang san’ati sifatida, balki madaniy va sport merosi sifatida ham dunyo bo‘ylab rivojlanmoqda. Poomse yo‘nalishi taekvondoning ajralmas qismi bo‘lib, u sportchilarning texnika, diqqat va ruhiy barqarorlik darajasini namoyish etish imkoniyatini beradi. Poomse musobaqalari texnikani, taktikani va badiiy yondashuvni uyg‘unlashtiradi, bu esa uni taekvondoning universal yo‘nalishlaridan biriga aylantiradi.

Taekvondo WT sport turida Poomsae bo‘yicha musobaqalar rasmiy tarzda 2006-yilda tashkil etilgan va ilk jahon chempionati Janubiy Koreyada o‘tkazilgan. Ushbu musobaqalar taekvondo san’ati va texnikasini namoyish qilish, shuningdek, sportchilar o‘rtasida do‘stlik va birdamlikni rivojlantirish maqsadida boshlangan. Poomsae musobaqalari texnik mahorat, harakatlarning aniqligi va taekvondo falsafasini ifodalash darajasi asosida baholanadi. Bugungi kunda bu yo‘nalish xalqaro miqyosda keng rivojlanib, boshqa nufuzli musobaqalarda ham alohida ahamiyat kasb etmoqda va yosh avlodni taekvondo san’atiga qiziqtirishda katta rol o‘ynamoqda.

Poomse yo‘nalishining ahamiyati haqida:

1. An’analarni saqlash:

Poomse taekvondoning asosiy an’analarini o‘zida aks ettirib, sportchilarga har bir harakatning ma’nosini tushunishga imkon beradi. Bu yo‘nalish taekvondoning ruhiy va madaniy qiymatini saqlab qoladi.

2. Texnik mahoratni oshirish:

Poomse harakatlari texnik aniqlik va muvozanatni talab qiladi. Bu sportchilarning umumiy jismoniy va texnik tayyorgarligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

3. Ruhiy rivojlanish:

Poomse mashg‘ulotlari diqqatni jamlash, intizom va sabr-toqatni rivojlantiradi. Bu sportchilarga nafaqat musobaqalarda, balki hayotda ham muvaffaqiyatga erishishda yordam beradi.

Poomse yo‘nalishini rivojlantirish yo‘llariga quyidagilar kiradi:

1. Murabbiylar malakasini oshirish:

Poomse bo‘yicha tajribali murabbiylarni tayyorlash va ular uchun doimiy seminarlar tashkil etish zarur. Bu sportchilarning texnik mahoratini yangi darajaga olib chiqadi.

2. Poomse musobaqalarini ko‘paytirish:

Har bir mintaqada va xalqaro darajada poomse musobaqalarini ko‘paytirish sportchilarni rag‘batlantiradi va ularning xalqaro maydonda muvaffaqiyat qozonishiga zamin yaratadi.

3. Texnologiyalarni joriy etish:

Zamonaviy texnologiyalar (masalan, video tahlil tizimlari) orqali sportchilarning harakatlarini tahlil qilish va ularni mukammallashtirishga erishish mumkin.

4. Maktab va sport klublarida targ‘ibot:

Taekvondoni maktab va sport klublarida targ‘ib qilish orqali yosh avlodni poomsega jalb qilish mumkin. Bu sportning ommabopligini oshiradi.

Poomse yo‘nalishini rivojlantirish uchun quyidagi strategik yondashuvlar taklif etiladi:

Murabbiylar va sportchilarning bilimlarini oshirish, ya’ni malaka oshirish kurslari. Poomse bo‘yicha murabbiy va hakamlar uchun muntazam ravishda seminarlar va treninglar tashkil etish. Texnik qo‘llanmalar bunda sportchilar va murabbiylar uchun yangilangan qo‘llanmalar va video materiallar tayyorlash.

Poomse musobaqalarini kengaytirish, ayniqsa mintaqaviy va xalqaro musobaqalar sonini ko‘paytirish orqali sportchilarning qiziqishini oshirish. Onlayn musobaqalarni tashkil etish. Raqamli platformalar orqali poomse ko‘rinishlarini baholashni yo‘lga qo‘yish.

Jismoniy va texnik tayyorgarlikni kuchaytirish, ya’ni mashg‘ulotlar tizimini takomillashtirish orqali harakatlarning aniqligi va moslashuvchanligini oshirishga qaratilgan maxsus mashqlarni joriy etish. Individual yondashish, bunda har bir sportchi uchun uning darajasiga mos individual dasturlarni ishlab chiqish.

Ommaviy targ‘ibot va yosh avlodni jalb qilish uchun maktab va universitetlarda tanlovlar o‘tkazish. Yoshlarni poomsega qiziqtirish uchun maxsus ko‘rgazma mashg‘ulotlari va tanlovlar tashkil etish. Media va ijtimoiy tarmoqlarda poomse

yo‘nalishini targ‘ib qilish uchun videolar, maqolalar va intervyularni ommalashtirish. Texnologiyalardan foydalanish ya’ni video tahlil tizimlari o‘tkazish. Sportchilarning harakatlarini avtomatik tahlil qilish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish va virtual trening dasturlari joriy etish. Sportchilarga masofaviy ta’lim olish imkoniyatini beruvchi texnologik yechimlarni tatbiq etish.

Hukumat va homiylarni jalb qilish, bunda davlat dastaklari ya’ni sport bo‘limlari orqali poomse rivojlanishi uchun grant va subsidiya ajratish. Homiylik qilish, poomse musobaqalariga homiylarni jalb qilish orqali moliyaviy bazani kengaytirish.

Yuqorida keltirib o‘tganlarimizdek, poomse yo‘nalishini rivojlantirish uchun bilim va texnikani oshirish, musobaqalar va mashg‘ulotlarni ko‘paytirish, ommaviy targ‘ibot ishlarini amalga oshirish zarur. Texnologiyalarni jalb etish va sportchilarning imkoniyatlarini kengaytirish orqali bu yo‘nalish global darajada katta muvaffaqiyatlarga erishishi mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Poomse yo‘nalishini rivojlantirish taekvondo WT sport turini yanada boyitadi va xalqaro darajada o‘z pozitsiyasini mustahkamlaydi. Texnik aniqlik va estetik jihatlarni rivojlantirish orqali sportchilar nafaqat musobaqalarda, balki hayotning turli sohalarida muvaffaqiyat qozonish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu sababli, poomse yo‘nalishiga alohida e’tibor qaratish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

[1] World Taekwondo Federation (WT)ning rasmiy ma’lumotlari
[2] “Taekwondo: Ancient Tradition, Modern Martial Art” kitobi
[3] Ilmiy maqolalar va xalqaro musobaqalar hisobotlari.

7 – TOM 12 – SON / 2024 - YIL / 15 – DEKABR

MEHMONXONA TIZIMIDA XODIMLARNI BOSHQARISHNING ILG'OR USULLARI

A'zamjonova(Sultonova)Charosxon Zarifjon qizi
Farg'ona davlat universiteti iqtisod fakulteti.
Turizm va mehmondo'stlik yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya

Mazkur maqolada mehmonxona tizimida xodimlarni boshqarishning ilg'or usullari ko'rib chiqilgan. Zamonaviy boshqaruv texnologiyalari, xodimlar samaradorligini oshirishga qaratilgan strategiyalar, shuningdek, mehmonxona xizmatlari sifati va mijozlar mamnunligini ta'minlash masalalari yoritilgan. Mazkur maqola ilmiy va amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar:

boshqaruv, mehmonxona, xodimlar, samaradorlik, mijozlar mamnunligi.

ADVANCED METHODS OF MANAGING EMPLOYEES IN THE HOTEL SYSTEM

Annotation

This article examines advanced methods for managing staff in the hotel industry. It highlights modern management technologies, strategies to improve employee efficiency, and ways to ensure service quality and customer satisfaction in hotels. The article also includes scientific and practical recommendations.

Keywords:

management, hotel, staff, efficiency, customer satisfaction.

ПЕРЕДОВЫЕ МЕТОДЫ УПРАВЛЕНИЯ СОТРУДНИКАМИ В ГОСТИНИЧНОЙ СИСТЕМЕ

Аннотация

В данной статье рассматриваются передовые методы управления персоналом в гостиничном секторе. Освещаются современные управленческие технологии, стратегии повышения эффективности сотрудников, а также вопросы обеспечения качества обслуживания и удовлетворенности клиентов. Статья содержит научные и практические рекомендации.

Ключевые слова:

управление, гостиница, персонал, эффективность, удовлетворенность клиентов.

"Turizm sohasini rivojlantirishda mehmonxona infratuzilmasining sifatini yaxshilash, xizmatlar darajasini oshirish va mehmonlarga qulay sharoit yaratish muhim o‘rin tutadi. Mehmonxona xodimlari mehmonlarga mehribonlik va e’tibor bilan xizmat ko‘rsatishi zarur."

(O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Sh.M.Mirziyoyev)[1]

KIRISH

Bugungi kunda xizmat ko‘rsatish sohasi, jumladan, mehmonxona biznesi, iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biriga aylangan. Raqobatning ortib borishi va mijozlar talabining o‘zgarishi mehmonxonalarda xizmat sifatini oshirishni zarur qiladi. Shu maqsadda xodimlarni boshqarishning zamonaviy va innovatsion usullarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mehmonxona xodimlarining malakasi va samaradorligi nafaqat korxonaning daromadiga, balki mijozlarning qoniqish darajasiga ham bevosita ta'sir ko‘rsatadi. Xodimlarni boshqarishda ilg‘or usullardan foydalanish ularning motivatsiyasini oshirish, jamoada hamjihatlikni ta'minlash va xizmat sifatini yaxshilashga yordam beradi. Mazkur maqolada mehmonxona tizimida xodimlarni boshqarishning ilg‘or usullari tahlil qilinadi va amaliy tavsiyalar beriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ilmiy adabiyotlarda xodimlarni boshqarishning samarali usullari ko‘plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Kotler va Armstrong (2020) xizmat ko‘rsatish sohasida inson resurslarini boshqarishning muhim jihatlarini yoritgan bo‘lsa, Robbins va Coulter (2021) samaradorlikka erishish uchun innovatsion boshqaruv texnologiyalarini qo‘llash zarurligini ta'kidlaydi.

Shuningdek, mehmonxona tizimida inson resurslarini boshqarishda xizmat sifatini oshirishga qaratilgan usullar, xodimlarning psixologik va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish, trening va qayta tayyorlash dasturlarining

ahamiyati bir qancha tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan (Smith, 2019; Johnson, 2021). Ushbu tadqiqotlardan kelib chiqib, mehmonxonalarda xodimlarni boshqarishning ilg‘or yondashuvlari ishlab chiqiladi.

MEHMONXONA TIZIMIDA BOSHQARUVNING AHAMIYATI

Xodimlarni boshqarish mehmonxona faoliyatining asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. Mehmonxona tizimida xodimlarning motivatsiyasini oshirish uchun qulay ish sharoitlari yaratish, ularning malakasini oshirishga qaratilgan doimiy treninglar tashkil qilish muhimdir. Bundan tashqari, xodimlarni rag‘batlantirish va ularga o‘z ishlariga ijodiy yondashish imkonini beruvchi strategiyalar ham korxona muvaffaqiyatiga olib keladi.

Xodimlar o‘rtasida ijtimoiy va professional hamjihatlikni ta'minlash orqali mijozlarga yuqori sifatli xizmat ko‘rsatish va korxona obro‘sini oshirish mumkin. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, samarali boshqaruv tizimi xodimlar o‘rtasida jamoaviy

ishlash madaniyatini rivojlantiradi, bu esa mijozlarning ishonchini qozonishga yordam beradi (Robbins, 2021).

MEHMONXONA TIZIMIDA XODIMLARNI BOSHQARISHNING ILG‘OR USULLARI

1. Trening va malaka oshirish dasturlari

Mehmonxonalarda xodimlarni o‘qitish va malaka oshirish dasturlarini yo‘lga qo‘yish xizmat sifatini oshirishning muhim vositalaridan biridir. Xodimlar mijozlarga xizmat ko‘rsatish madaniyati, xalqaro standartlar va zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni o‘rganishlari zarur. Muntazam ravishda treninglar o‘tkazilishi xodimlarning kasbiy bilim va ko‘nikmalarini oshiradi. Walker (2022) o‘z tadqiqotida xodimlarni mijozlar bilan ishlashda muloyim muloqot uslublarini rivojlantirishga o‘rgatish xizmat ko‘rsatish madaniyatini yaxshilashini ta’kidlaydi. Shuningdek, xalqaro mehmonxonalarda universal xizmat standartlarini tatbiq etish xodimlarning malakasini oshirishga hissa qo‘shadi.

Treninglar orqali mijoz ehtiyojlarini aniqlash va xizmat ko‘rsatish darajasini oshirish mumkin.

Hilton mehmonxonalari o‘z xodimlari uchun xalqaro seminarlar tashkil qiladi va bu xizmat sifatini 20% oshirgan.

2. Motivatsiya tizimini takomillashtirish.Rag‘batlantirish tizimi adolatli va shaffof bo‘lishi kerak.

Xodimlarning ishga bo‘lgan qiziqishini oshirish uchun moddiy va nomoddiy rag‘batlantirish usullaridan foydalanish samarali hisoblanadi. Masalan, mukofotlash tizimi, maqtov yorliqlari, ijtimoiy yordam va bonuslar orqali xodimlarning motivatsiyasini oshirish mumkin. Taylor (2021) tadqiqotida kadrlar boshqaruvida ichki tan olish va ijtimoiy manfaatlar kabi motivatsiya omillarining samaradorligini ko‘rsatadi. Masalan, mehmonxona xodimlariga bonuslar va turli mukofotlar orqali ishonch berish ularda korxonaga sadoqat hissini oshiradi. Mukofotlar va bonuslar xodimlar orasida motivatsiyani oshiradi.Ijtimoiy yordam va madaniy tadbirlar orqali xodimlarning ruhiy holati yaxshilanadi.

3. Ilg‘or texnologiyalardan foydalanish

Bugungi raqamli davrda mehmonxonalar inson resurslarini boshqarishda zamonaviy dasturiy ta'minotlardan foydalanishi kerak. Xodimlarning ish samaradorligini kuzatish, ularning ish grafigini optimallashtirish va mijozlar ehtiyojlariga mos xizmatlarni taqdim etish uchun maxsus dasturlar samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

KPI monitoring dasturlari yordamida xizmat sifati nazorat qilinadi.

AI asosidagi dasturlar ish grafigini optimallashtiradi.

Zamonaviy dasturiy ta’minot va IoT (Internet of Things) texnologiyalari mehmonxona xizmatlarini optimallashtirishda muhim vosita hisoblanadi. Green (2021)

tadqiqotida mijoz ehtiyojlarini aniqlash va shaxsiylashtirilgan xizmatlarni taklif qilish orqali xizmat sifatini oshirish bo‘yicha tavsiyalar beradi.

4. Jamoaviy hamjihatlikni rivojlantirish

Jamoaviy ishlash madaniyatini rivojlantirish orqali mehmonxona xodimlari o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash mumkin. Bu maqsadda jamoaviy tadbirlar, seminarlarda qatnashish va ish joyida do‘stona muhit yaratish muhim ahamiyatga ega. Davis (2020) jamoaviy hamkorlikni kuchaytirish uchun turli seminar va treninglarni muntazam o‘tkazishni tavsiya qiladi. Unga ko‘ra, birgalikda ishlash madaniyatini rivojlantirish uchun jamoa a’zolari o‘rtasida o‘zaro ishonch va qo‘llab-quvvatlashni shakllantirish zarur.

5. Mijozlar bilan o‘zaro aloqani mustahkamlash

Xodimlar mijozlar bilan muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun maxsus o‘quv kurslarida qatnashishlari lozim. Mijozlar ehtiyojlarini anglash va ularning talablariga mos xizmat ko‘rsatish korxonaning o’sishiga va kengayishiga sabab bo’ladi.

STATISTIKA VA TAHLILLAR

KO’RSATKICH	AN’ANAVIY BOSHQARUV	ILG’OR BOSHQARUV
MIJOZ QONIQISHI DARAJASI	65%	85%
XODIMLARNING ISH VAQTI SAMARADORLIGI	70%	90%
KADRLAR AYLANISHI DARAJASI	30%	15%

XULOSALAR VA TAVSIYALAR

Mehmonxona tizimida xodimlarni boshqarishning ilg‘or usullarini qo‘llash korxonaning raqobatbardoshligini oshirish va mijozlar ehtiyojlarini qondirishga yordam beradi. Tadqiqot davomida quyidagi xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqildi:

Xodimlarning malakasini oshirish uchun muntazam trening va seminarlar tashkil qilish;

Rag‘batlantirish tizimini yanada shaffof va adolatli qilish;

Zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni kengaytirish;

Jamoaviy ishlash va hamkorlik madaniyatini rivojlantirish;

Mijozlar ehtiyojlarini tahlil qilish va ularga mos xizmat ko‘rsatishni yo‘lga qo‘yish.

Shuningdek, boshqaruv tizimini doimiy ravishda takomillashtirish va innovatsion yondashuvlarni joriy qilish mehmonxonalarning muvaffaqiyatini ta'minlashda asosiy omil hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Kotler, P., Armstrong, G. (2020). Marketing Management. Pearson Education.2. Robbins, S. P., Coulter, M. (2021). Management. Prentice Hall.

3. Smith, J. (2019). Human Resource Management in Hospitality. Springer.
4. Johnson, K. (2021). Service Excellence in Hospitality Industry. Oxford University Press.
5. Walker, J. R. (2022). Introduction to Hospitality Management .
6. Davis, B. (2020). Hotel Organization: Best Practices .
7. Green, L. (2021). Leadership in Hospitality .
8. Taylor, P. (2021). Innovative HR Practices in Tourism.

7 – TOM 12 – SON / 2024 - YIL / 15 – DEKABR

GENETIKA XUSUSIYATLARI VA BOLA PSIXOLOGIYASINING O'ZARO BOG'LIQLIGI: MAKTABGACHA TA'LIM MISOLIDA

Yuldashova Sanamjon Bobomurod qizi
Urganch davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta'lim yönalishi
1- kurs magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada genetika xususiyatlari va bola psixologiyasi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik masalasi maktabgacha ta'lim kontekstida ko‘rib chiqilgan. Bola rivojlanishidagi genetik omillar, jumladan, temperament, intellektual qobiliyat va genetik nosozliklar, uning psixologik va ijtimoiy shakllanishida qanday rol o‘ynashi tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada psixologik yondashuvlar va ta'lim metodlarini bolalarning individual genetik xususiyatlariga moslashtirish muhimligi ta’kidlanadi. Maktabgacha ta’lim muhitida genetik va psixologik omillarni uyg‘unlashtirish orqali bolalarning optimal rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish usullari yoritiladi. Mazkur tadqiqot ta’lim amaliyotida individual yondashuvni qo‘llash uchun ilmiy asos beradi.

Kalit so’zlar: Genetika xususiyatlari, bola psixologiyasi, maktabgacha ta'lim, temperament, intellektual rivojlanish, genetik nosozliklar, individual yondashuv, ta'lim metodlari, stress boshqaruvi, bola rivojlanishi

KIRISH

Inson rivojlanishini o‘rganishda genetika va psixologiya fanlarining o‘zaro integratsiyasi chuqur ahamiyatga ega. Har bir shaxsning genetik xususiyatlari uning fiziologik va psixologik rivojlanishida, shuningdek, ijtimoiy moslashuv jarayonida asosiy determinant sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishi ushbu jarayonlarning murakkab o‘zaro ta'sirlarini tadqiq etish uchun optimal modelni tashkil etadi. Genetik meros orqali uzatiladigan temperament, kognitiv qobiliyatlar va xulq-atvorga moyillik psixologik rivojlanish jarayonini shakllantiruvchi omillar sifatida ko‘riladi.

Bolalarning psixologik rivojlanishi tashqi muhit ta'siri bilan birgalikda genetik omillar orqali aniqlanadi. Xususan, maktabgacha ta'lim jarayoni, bolaning intellektual va emosional o'sishi uchun shart-sharoit yaratish maqsadida, uning genetik imkoniyatlari va individual psixologik xususiyatlarini hisobga olishni talab qiladi. Bu esa ta’lim jarayonini optimallashtirish, individual yondashuvlarni qo‘llash va pedagogik strategiyalarni ilmiy asoslash zaruratini yuzaga keltiradi.

Mazkur maqola, maktabgacha ta'limda bola rivojlanishini boshqarishda genetik xususiyatlarning psixologik jarayonlar bilan o‘zaro ta’sirini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, ushbu masala bo‘yicha nazariy va amaliy yondashuvlarni tahlil qilishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Tadqiqotchilarning bolalik ruhi va bolalik psixologiyasiga qiziqishi har doim mavjud bo'lgan, ammo bolalik ilmiy o'rganish mavzusi juda kech bo'lgan, bunday o'rganish uchun zarur shart-sharoitlar pedagogika, biologiya, tibbiyot, eksperimental psixologiyada shakllangan. Pedagogika har doim psixologik bilimlarga muhtoj edi, ularga asoslanishga intildi. Y. A. Komenskiy, J. Lokk, J. - J. Russo, I. G. Pestalozzi, F. Frebel, I. F. Gerbart, A. Disterveg va o'tmishdagi boshqa yirik o'qituvchilar bolalarning yoshi va individual xususiyatlarini bilish asosida ta'lim va tarbiya qurish zarurligini ta'kidladilar, o'qituvchilar, o'qituvchilar va ota-onalarni bolalik tabiatini o'rganishga chaqirdilar, nafaqat bolalar psixologiyasiga qiziqish bildirdilar, balki uning qonunlarini tushunishga harakat qildilar.

J.J. Russoning tabiiy tarbiyasi kontseptsiyasi bolalar ruhi muammolariga qiziqishning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi, unga ko'ra tarbiyaning asosiy maqsadi bolaning ichki tabiatining tabiiy rivojlanishiga ko'maklashish, uni sinchkovlik bilan o'rganishga asoslangan edi. Bolalikni inson rivojlanishining o'ziga xos, sifat jihatidan o'ziga xos bosqichi sifatida tushunib, unga muhabbat va hurmat bilan munosabatda bo'lgan J.-J. Russo bola rivojlanishining ichki qonuniyatlarini ochib berishga, ularga muvofiq davriylashtirish va o'qitish bosqichlarini qurishga harakat qildi.

Aslida, 18-asrning oxirida shifokorlar bolalarga ilmiy qiziqish bildirishdi, ular bolalarni kattalar kabi davolash mumkin emasligi, ularning tanasining xususiyatlari va kasalliklarning o'ziga xosligi tufayli duch kelishdi. Bolaning aqliy rivojlanishi haqidagi birinchi kitob nemis shifokori va faylasufi T. Tidemanga tegishli edi (1787), u tug'ilishdan uch yoshgacha bo'lgan bolaning aqliy rivojlanishini batafsil va izchil tasvirlashga harakat qildi. Motor, hissiy va hissiy sohalarni eng muhim deb ajratib, u ushbu sohalarda bolaning namoyon bo'lishini qayd etdi.

Shunday qilib, birinchi marta psixologiya maxsus ob'ektni - chaqaloq psixikasini ko'rdi va uning tarkibiy qismlarining rivojlanishi o'rganish mavzusiga aylandi. Tegishli tadqiqot usulini tanlash ham muhim edi - ob'ektiv tashqi kuzatuv, chunki nutq va aks ettirishga ega bo'lmagan bola o'z tajribalari haqida gapira olmaydi, hatto undan ham ko'proq introspektsiyadan foydalanadi. Bundan tashqari, ma'lum bir bolaning uzoq vaqt davomida rivojlanishi kuzatildi, ya'ni.uzunlamasına bo'limlar strategiyasiga muvofiq. Bunday tadqiqotga bo'lgan ehtiyoj pedagogikaning talablari bilan asoslandi, chunki ta'lim aqliy xususiyatlarning rivojlanishi va ularning paydo bo'lish vaqti to'g'risida aniq bilimga tayanishi kerak.

XIX asr o'rtalarida. bolalar psixologiyasiga qiziqish ortib bormoqda, umumta'limning rivojlanishi bilan bog'liq pedagogika va psixologiya o'rtasidagi munosabatlarning ilmiy muammosi paydo bo'ldi va maktabgacha ta'lim amaliyotida uy ta'limidan farqli o'laroq shakllana boshladi, bu erda bolaga individual yondashuvni amalga oshirish va uning xususiyatlarini o'rganish oson emas edi.qiziqishlar.

TADQIQOT NATIJALARI

Tadqiqotning asosiy natijalari shuni ko‘rsatadiki, bolaning genetik xususiyatlari va psixologik rivojlanish o‘rtasidagi o‘zaro ta'sir maktabgacha ta'lim jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Genetik faktorlar, xususan, temperament, kognitiv qobiliyatlar va emotsional barqarorlik, bolaning ijtimoiy moslashuvchanligi, o‘zini tutish tarzi va ta'limda muvaffaqiyatga erishish darajasini belgilovchi asosiy omillardan biridir.

Genetik xususiyatlarning psixologik rivojlanishga ta'siri: Tadqiqotda ishtirok etgan bolalar orasida temperamentning turli shakllari (faol, passiv, ijtimoiylashuvchan, ehtiyotkor) ularning ijtimoiy-emotsional rivojlanishiga bevosita ta'sir ko‘rsatishi aniqlandi. Masalan, faol temperamentga ega bolalar ko‘proq guruhlarda o‘ynashga moyil bo‘lishadi, bu esa ularning ijtimoiylashuvi va emotsional barqarorligini oshiradi. Shu bilan birga, ehtiyotkor temperamentga ega bolalar ko‘proq yolg‘iz o‘ynashni afzal ko‘radilar, bu esa ularda stressga nisbatan yuqori sezgirlikni yuzaga keltirishi mumkin.

Intellektual rivojlanish va ta'lim muhitining o‘zaro ta'siri: Genetik meros orqali uzatilgan intellektual qobiliyatlar bolaning ta'lim jarayonida muvaffaqiyatga erishish darajasini belgilaydi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, yuqori kognitiv qobiliyatga ega bolalar tezroq yangi ma'lumotlarni o‘zlashtirib, mantiqiy fikrlashni rivojlantiradilar. Biroq, bu bolalar uchun ta'lim metodlari ularning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan bo‘lishi kerak, aks holda ularning potensiali to‘liq ochilmasligi mumkin.

Stress va moslashuvchanlik: Genetik jihatdan stressga sezgir bolalar psixologik yordam va pedagogik qo‘llab-quvvatlashga yanada ko‘proq muhtoj. Tadqiqotda shuningdek, bu bolalar uchun psixologik barqarorlikni ta'minlashda, shaxsiy yondashuvlar va xavfsiz ta'lim muhitining ahamiyati katta ekani aniqlangan. Genetik jihatdan stressga moyil bolalar uchun, masalan, tinchlantiruvchi o‘yinlar yoki psixologik mashqlar qo‘llanilishi ularning rivojlanishida ijobiy natijalar beradi.

Individual yondashuv va ta'lim metodlari: Bolalarning genetik xususiyatlari va psixologik jihatlarini hisobga olish, ularning individual rivojlanishiga moslashtirilgan ta'lim metodlarining samaradorligini oshiradi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, genetik jihatdan farq qiladigan bolalar uchun maxsus o‘qitish yondashuvlari (masalan, kinestetik, vizual yoki audial yondashuvlar) ularga eng yaxshi rivojlanish imkoniyatlarini yaratadi. Shuningdek, bu yondashuvlar bolalarning o‘zini o‘zi anglashini va psixologik muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Natijada, bolaning genetik xususiyatlari va psixologik rivojlanishining ta'lim jarayoniga ta'siri o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, ularni inobatga olgan holda ta'lim jarayonini optimallashtirish, bolalarning to‘liq rivojlanishiga yordam beradi. Bu ilmiy izlanishlar, pedagoglar uchun individual yondashuvlarni ishlab chiqish va genetik faktorlarni hisobga olishda qimmatli ko‘rsatmalar beradi.

Bog'cha tarbiyasini olgan bola bilan bog'chaga bormagan bolani solishtirganda, ularning fikrlash darajasi o'rtasida yer bilan osmoncha farq borligini sezish qiyin emas" degan edi. Maktabgacha yoshdagi bola^ psixologiyasi ilmida bu yoshdagi bolalaráa sifat o'zgarisЬlari tezlashganligini inobatga olgan holda bu davrni uch bosqichga taqsimlab

o'rganish maqsadga muvofiq deb topilgan: kichik maktabgacha davr (3-4 yosh); o'rta maktabgacha davr (4-5 yosh); katta maktabgacha yosh (5-6 yoshgacha); maktabga tayyorlov yoshi (6-7 yoshgacha). Maktabgacha yoshdagi bola rivojlanish jarayonida ajdodlari tomonidan yaratilgan narsa va hodisalar, olam sir-sinoatlari bilan alohida maxsus munosabatga kirishadi. U insoniyat tomonidan qo'lga kiritilgan yutuqlarni faol o'zlashtirib, egallab boradi.

Bolada narsa-hodisalar olami, ular yordamida amalga oshiriladigan xatti-harakatlar, ona tili va odamlar orasidagi munosabatlarni anglash, ayni zamonda faoliyat motivlarining rivojlanishi, qobiliyatlarning o'sib borishi kattalarning bevosita yordami asosida amalga oshadi. Bu oilada ota-ona, maktabgacha ta'lim muassasalarida esa ta^iyachi^ ko'magida yuz beradi. Asosan mana shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati kuchaya boshlaydi. Faoliyatdagi mustaqillik, o'z-o'zidan tafakkurdagi mustakillikka asos bo'ladi. Bundan tashqari, maktabgacha yoshdagi bosqich ularda murakkab harakatlarni takomillashtirish, elementar gigiyena, madaniy va mehnat malakalarini hosil qilish, nutqini o'stirish hamda ijtimoiy axloq va estetik didning dastlabki kurtaklarini yuzaga keltirish davri hamdir.

XULOSA

Bola rivojlanishining genetik va psixologik asoslarini tahlil qilish, maktabgacha ta'lim tizimida individual yondashuvlar va pedagogik strategiyalarning muhimligini ko‘rsatadi. Genetik xususiyatlar, masalan, temperament, intellektual qobiliyatlar va xulq-atvorning tug‘ma jihatlari, bolaning ijtimoiy va emotsional rivojlanishida asosiy rol o‘ynaydi. Shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarda psixologik barqarorlikni ta'minlash va kognitiv o‘sishni rag‘batlantirish uchun genetik omillarni hisobga olish zarur.

Bola psixologiyasi va genetika o‘rtasidagi o‘zaro ta'sir maktabgacha ta'limda pedagoglarning individual yondashuvlarini ishlab chiqishda muhim ilmiy asoslarni taqdim etadi. Shuningdek, ta'lim jarayonida bolalarning genetik xususiyatlariga moslashtirilgan metodlar va strategiyalar, ularning maksimal rivojlanishiga yordam beradi. Bundan tashqari, genetik xususiyatlarga moslashish bolalar uchun ta'lim va tarbiya sharoitlarini yanada samarali va individual darajada tashkil etishga imkon yaratadi.

Shu bilan birga, genetik va psixologik o‘zaro ta'sirning har tomonlama tadqiq etilishi, pedagogik amaliyotda yanada ilg‘or yondashuvlarni joriy etishga xizmat qiladi. Bu esa bola rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashda yangi ilmiy va amaliy istiqbollarni ochadi, ta'lim tizimining samaradorligini oshirishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Aminov, S. B. (2016). *Bola psixologiyasining asoslari*. Toshkent: Akademnashr.

2. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press.
3. Gardner, H. (2006). *Multiple Intelligences: New Horizons in Theory and Practice*. Basic Books.
4. Guzik, T. M. (2014). *Genetika va bola rivojlanishi: nazariy yondashuvlar*. Tbilisi: Elva.
5. Piaget, J. (1970). *The Science of Education and the Psychology of the Child*. Viking Press.
6. Rutter, M. (2007). *Developmental Science and the Health of Children: A Global Perspective*. Cambridge University Press.
7. Shafir, E. (2002). *The Psychology of Choice and Decision*. New York: Cambridge University Press.
8. Ushakov, A. M. (2015). *Genetika va ijtimoiy muhit: bola psixologiyasi*. Moskva: Akademiya.

7 – TOM 12 – SON / 2024 - YIL / 15 – DEKABR

TEACHING ENGLISH THROUGH FILM: CONTEXTUAL DISTINGUISHING APPROACH TO LANGUAGE LEARNING

Mukhamedova Makhliyo
4th year student, Fergana State University
Email: iskluchitelnotvorcheskoe@gmail.com

Abstract: *The integration of cultural context into language education is essential for enhancing communicative competence, and films serve as an effective pedagogical tool in this regard. By immersing students in authentic narratives, film-based approaches promote critical thinking, cultural awareness, and empathy, while improving language skills. This study examines the effectiveness of using the film-based contextual discernment approach in English language teaching, suggesting that it enhances students' understanding of the cultural and social contexts that influence language use. The survey was conducted among students of Fergana State University which included 11 participants of 4th grade learners. The results show that watching films significantly enriches students' communicative skills, promotes cultural awareness and emphasises the importance of relational dynamics in language. Students develop more effective and subtle communicative abilities through their interaction with authentic narratives, which ultimately supports the hypothesis that context is of paramount importance in language learning.*

Key words: *film, language learning, cultural context, communication skills, education*

Introduction

In an increasingly interconnected world, the ability to communicate effectively across cultural and social boundaries is essential. This study explores the theme of positing that integrating film into language instruction enhances students' understanding of the cultural and social contexts that shape language use. By analyzing various film clips and their corresponding cultural nuances, this research aims to highlight how cinematic portrayals can enrich language learning and foster authentic communication among students.

The contextual distinguishing approach not only engages students in relatable and dynamic narratives but also encourages them to reflect on the complexities of real-life interactions. This study investigates the impact of film on students' language acquisition, focusing on how exposure to diverse cultural contexts can lead to more effective communication skills, ultimately validating the hypothesis that context is a crucial component of language learning.

Literature review

Sari and Sugandi (2015) in their study research examined students in English as a Foreign Language (EFL) classrooms who are exposed to English movies as a part of their language learning process. The study aims to explore the drawbacks associated

with using English films for educational purposes, particularly focusing on how these drawbacks can affect students' engagement and learning outcomes. By examining the experiences of these students, the study sheds light on various challenges they face while watching English movies in class, which can hinder their focus on language acquisition and comprehension.

Key findings of the study indicate several disadvantages of using English movies in EFL classrooms. Firstly, the time commitment required to watch movies can lead to boredom among students who states that movies generally consume over an hour of active time, reducing opportunities for other classroom activities like writing and discussion. Additionally, some students may resist watching films with English subtitles due to the increased effort needed to read and follow along simultaneously. Secondly, students often become distracted by their favorite actors or actresses, which can divert their attention from the instructional goals, suggest that students may forget the teacher's objectives while focusing on the performances. Moreover, the study points out that fiction movies can lead students to engage in illogical thinking, as many popular films like Harry Potter and Alice in Wonderland are not based on true stories, prompting students to imagine themselves in fantastical. Finally, the portrayal of negative behaviors in movies can result in students imitating undesirable actions, such as fighting or smoking, emphasizing the potential negative influence of Hollywood films on young audiences. These findings collectively illustrate the complexities and challenges of integrating English movies into EFL educational contexts, highlighting the need for careful consideration of their use in classrooms.

In Alluri's (2018) research the target group consisted of 40 students from Level 2 and Level 3 in General Foundation Programs (GFPs), all of whom are native Arabic speakers. These students have completed their secondary education in community schools and have limited exposure to the English language and its culture outside the classroom. The study aims to explore their perceptions and experiences regarding the use of films as a tool for learning English, particularly focusing on the advantages and disadvantages they encounter in this context.

Key findings from the study reveal a mixed response to the use of films in learning English. While 38 out of 40 students expressed interest in learning English through films, some students voiced concerns about the cultural appropriateness of watching films in class and the time-consuming nature of this activity, which detracted from their ability to focus on other subjects. Specifically, 13 students noted that watching films often interfered with their preparation for other academic subjects, leading to distractions from their studies. Additionally, 23 students reported difficulties in following the dialogue due to the rapid delivery and accents, particularly in American films. Despite these challenges, a majority of students (37) were satisfied with the overall learning outcomes, stating that they learned more about other cultures through films than from textbooks. Furthermore, many students felt motivated to practice English by

imitating characters from the films, indicating that, despite the drawbacks, films can enhance language learning when integrated thoughtfully into the curriculum.

Sánchez-Auñón et al. (2023) research included English as a Foreign Language (EFL) educators and learners, as the research focuses on the exploitation of films for teaching English. The systematic search conducted across various academic databases aimed to gather peer-reviewed journal articles that discuss the use of films in EFL contexts. A total of 416 sources were initially identified, with 44 meeting the inclusion criteria, which emphasized the relevance of the studies to the educational use of films in language learning.

Key findings from the analysis of the selected literature indicate that there is a significant need for more informed guidelines regarding the use of films in EFL classrooms. Specifically, 25% of the selected references provided theoretical or practical methodological orientations for implementing films, while 16% explored the perceptions of EFL teachers and students on this educational approach. The remaining 59% focused on the impact of cinema-based EFL on students' learning experiences. Overall, the results revealed that both instructors and students generally hold positive attitudes towards using films as a teaching resource, highlighting the linguistic, intercultural, and motivational benefits that films can offer to EFL learners. This suggests that while films can enhance language learning, there is a need for structured implementation strategies to maximize their effectiveness in educational settings.

Shermamatova and Abdullayeva (2023) study highlights several advantages of the Natural Method in language learning. One significant benefit is the enhancement of fluency, as students are encouraged to think and communicate solely in the target language, which fosters natural expression in both speech and writing. The study also emphasizes that the Direct Method facilitates a better understanding of English by establishing direct connections between vocabulary and their meanings without the interference of the mother tongue. Additionally, the method incorporates various interactive techniques, such as reading aloud and question-answer exercises, which promote active participation and engagement among students. According to scholars like Cagre Tugrul Mart, the Direct Method shifts the focus from literary language to spoken language, thereby enhancing audio-oral skills. Other experts, like Shamsiddinova and Bakhtiyarovna, argue that the method aids communication skills by establishing an instant relationship between language practice and expression, further solidifying its efficacy in teaching English as a foreign language.

Methods

Research design

This study employed an online survey methodology utilizing Google Forms to collect responses from senior students majoring in English Philology within the Euro group at Fergana State University. This group comprises students who have received their prior instruction in the Russian language. The survey consisted of 12 multiple-

choice questions designed to examine the hypothesis: “The contextual distinguishing approach will enhance students' understanding of cultural and social contexts that influence language use, leading to more authentic and effective communication.” The use of an online platform facilitated efficient data collection and allowed for easy access for participants, ensuring a higher response rate.

Study participants

1. Oldindan belgilangan qoidalarga mos holda u yoki bu harakatlar yordamida barcha faoliyat vazifalari bo'yicha g'olib bo'lish va natijani egallash. Ushbu vazifalar ishtirokchilarning faolligi va ijodkorligi bilan shuningdek ularning jismoniy tayyorgarligini taqqoslash va baholash me'zoni hisoblanadi.

1. Birinchilik uchun o'tkaziladigan musobaqalarda, yuqori sport natijalariga erishishda jismoniy va ruhiy kuchlarning o'zaro shakllanishi. Musobaqa metodi natijasida organizmning funksional imkoniyatlarini yanada keng ochishga imkon yaratiladi.

3. Yuklamalarni nazorat qilishda o'quvchilarni boshqarish uchun imkoniyatlarning cheklanganligi. Ushbu metod harakatlar jarayonida yuzaga keladigan vazifalarni yechishda mustaqillikni talab qiladigan yagona metod hisoblanadi. Harakatlarni takomillashtirishda musobaqa metodi samarali bo'lib, uni dastlabki o'rgatish bosqichida va dastlabki musobaqa jarayonida qo'llash maqsadga muvofiq emas. Metod, jismoniy sifatlarni yuqori darajada rivojlanishi va ularni majmuali shakllanishini talab qiladi shuningdek o'quvchilarni g'alabaga erishishi va omadsizlikka uchrashidagi turg'un ruhiy holatining rivojlanishini pedagogik jihatdan oqlaydi. Ushbu metodning samarali tomoni shundan iboratki, o'quvchilarni har tomonlama dastlabki tayyorlash bosqichida ijobiy pedagogik natija beradi va yana bir tomoni, uning yordamida tayyorgarlik darajasini oshirish mumkin.

XULOSA.

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining egiluvchanlik sifatining tayyorgarlik darajasini aniqlash bo'yicha olib borilgan olib borilgan tadqiqotlar natijasda Gimnastika o'rindig'ida turgan holda oyoqlar uchiga qo'llarni uzatish 29%ga , Gimnastika narvonida osilib turgan holda oyoqlarni 90 gradus ko'tarib tushurish 40 %ga, Yotgan holda oyoqlarni 90 gradus ko'tarib qo'llarni oyoq uchiga uzatish 36,5% ga o'sganligi boshlang'ich sinf o'quvchilarining egiluvchanlik va chaqqonlik sifatlarini rivojlantirish uslubiyatini takomillashtirish uchun ishlab chiqilgan va taklif etilayotgan model samaradorligi eksperimental tarzda isbotlaydi.

2. Biz taklif qilayotgan metodikani qo'llash o'rqali har xil darajadagi individual qobiliyat va tayyorgarlikka ega bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun vazifalar belgilab olinib, ularning jismoniy tayyorgarligini nazarda tutgan holda jismoniy tarbiya darslarini tashkillashtirish metodikasi takomillashtirilgan;

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Usmonxodjayev T.S. Meliyev X.A. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlari. 1-2 qism. T.: 2004-125 b.

2. Лисина, М. И. Формирование личности ребенка в общении / М.И.

3. Лисина. – СПб.: Питер, 2009. – 318 с. – (Мастера психологии).

4. Tadjiyeva M.X., Xusanxodjayeva S.I., Maktabgacha ta'limda maktabgacha ta'lim jismoniy tarbiyasi nazariyasi va metodikasi 2017 y. Toshkent. Iqtisod Moliya. - 254 b

5. Umarov D.X., Umarov M.N., Eshtayev.A.K. Оздоровительно-развивающие виды основной гимнастики (Учебне пособие) 2005. - Б 152-157.:

6. Никифоров Г.С., Ананев В.А., Гурвич И.М. и др. Психология здоровя /Под ред. Никифорова Г.С. СПб; Изд-во С-Пэтерб. Ун-та, 2000. — 504с.

7. Mahkamjonov K.M., Rasulyeva M.Sh., va b. Maktabgacha yoshdagi bolalarning umumiy va kengaytirilgan jismoniy tarbiyasi. T.: "Ilm Ziyo" 2006. 174 b.;

7 – TOM 12 – SON / 2024 - YIL / 15 – DEKABR

RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH VOSITASI SIFATIDA MAKTAB O'QUV JARAYONI SIFATINI BOSHQARISHNING PEDOGOGIK SHART SHAROITLARI.

Dushabayev Abdulla Musaevich
Jizzax politexnika instituti " O'zbek va Xorijiy tillar"kafedrasi.
dushabayevabdulla8727gmail.com

Annotatsiya. *Maqolaning maqsadi - umumiy ta'lim muassasalarida raqamli texnologiyalaridan foydalanish muammolarini ochib berish. Maqolada raqamlashtirishning ta'lim sifatiga ta'sirini ko'rib chiqishga alohida e'tibor qaratilgan, ta'limda axborot texnologiyalaridan foydalanish misollari ochib berilgan. Maqolada raqamli texnologiyalarining uchta asosiy komponenti texnik vositalar, dasturiy vositalar va tashkiliy-uslubiy ta'minot tizimi sifatida tavsiflanadi; Maqolada eng keng tarqalgan ko'p funksiyali ofis ilovalari va IT vositalarini sanab o'tadgan; o'quv jarayonida raqamli texnologiyalarni qo'llashning afzalliklari yoritilgan. Maqolada ta'limda axborot texnologiyalaridan foydalanish ta'lim jarayonini takomillashtirishning zamonaviy usullaridan biri bo'lgan o'qitishning keng ko'lamli shakl va usullarini diversifikatsiya qilish imkonini beradi degan xulosaga kelishadi. Maqola faoliyat sohasi ta'limda zamonaviy raqamli texnologiyalarini takomillashtirish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan o'qituvchilar va talabalar uchun mo'ljallangan.*

Аннотация: *Цель статьи – раскрыть проблемы использования цифровых технологий в общеобразовательных учреждениях. В статье уделяется внимание рассмотрению влияния цифровизации на качество образования, раскрываются примеры использования информационных технологий в образовании. В статье описаны три основных компонента цифровых технологий: технические средства, программные средства и система организационно-методического обеспечения; В статье перечислены наиболее распространенные многофункциональные офисные приложения и ИТ-инструменты; выделены преимущества использования цифровых технологий в образовательном процессе. В статье делается вывод, что использование информационных технологий в образовании, являющихся одним из современных методов совершенствования образовательного процесса, позволяет диверсифицировать масштабные формы и методы обучения. Статья предназначена преподавателям и студентам, сфера деятельности которых связана с совершенствованием и использованием современных цифровых технологий в образовании.*

Abstract. *The purpose of the article is to reveal the problems of using digital technologies in general educational institutions. The article focuses on considering the impact of digitization on the quality of education, reveals examples of the use of information technology in education. In the article, the three main components of digital technologies are*

described as technical tools, software tools and an organizational and methodological support system; The article lists the most common multifunction office applications and IT tools; the advantages of using digital technologies in the educational process are highlighted. The article concludes that the use of information technologies in education, which is one of the modern methods of improving the educational process, allows for the diversification of large-scale forms and methods of teaching. The article is intended for teachers and students whose field of activity is related to the improvement and use of modern digital technologies in education.

Kalit so'zlar: *raqamlashtirish, axborot texnologiyalari tizim va amaliy dasturlar ta'lim jarayoni; kompyuterlashtirish,raqamli tizimlashtirish.axbarot maydoni.*

Key words: *digitalization, information technology system and practical programs educational process; computerization, digital systematization, information field.*

Ключевые слова: *цифровизация, система информационных технологий и практические программы образовательного процесса; компьютеризация, цифровая систематизация, информационное поле.*

Hozirgi kundagi jadal rivojlanayotgan davrda Ilmiy-texnik sohadagi yutuqlar raqamli texnologiyalar va axborot texnologiyalarining rivojlanishini belgilaydi. Nafaqat kompyuterlar, balki raqamli texnologiyalari ham yuqori darajada o'zgarganligi, ularning analitik va haqiqiy didaktik imkoniyatlari kengayganligi sababli, raqamli texnologiyalari aqliy, ijodiy, kommunikativ va ijro faoliyatining yangi darajasini ifodalaydi va faoliyat va ta'limning turli jihatlarini tubdan qayta qurishga olib keladi. Bugungu hunda texnik, axborot-kommunikatsiya imkoniyatlaridan ta'lim maqsadlarida foydalanish muhimligini ko’rsatadi. Shu munosabat bilan zamonaviy kompyuterlarning salohiyati ta'lim tizimining ehtiyojlarini qay darajada qondirishi mumkinligini aniqlash muhimdir. Raqamli texnologiyalar va informatika samaradorligi o'rganish ob'ekti sifatida ta'lim mazmuni muammosiga taalluqli va ijtimoiy - iqtisodiy va ilmiy-texnik taraqqiyotning ob'ektiv dolzarb va istiqbolli ehtiyojlari, o'quvchilarning shaxsiy ta'lim talablari bilan belgilanadigan yo'nalish sifatida qaraladi. Raqamli texnologiyalar va informatika fanlarini o'rganish maktab ta'limi sifatini oshirishga qanday istiqbol va nimani olib kelishini aniqlash kerak.

Ushbu masalani ikki nuqtai nazardan ko'rib chiqaylik: o'quvchilarning kompyuter savodxonligi axborot - kompyuter kasbiyligi va axborot-kompyuter madaniyatining birinchi bosqichidir; kompyuter savodxonligi o'qituvchilar va maktab ma'muriyatining kasbiy mahoratining ajralmas qismidir.

Zamonaviy tadqiqotchilar fikrlatiga ko'ra, kompyuter texnologiyalari va kompyuter texnologiyalarining zamonaviy rivojlanish sur'atlari informatika sohasidagi fundamental bilimlar va eng oddiy dasturlarni yozish qobiliyatini shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan universal kompyuter savodxonligi kontseptsiyasining nomuvofiqligini isbotlaydi Kompyuter texnikasi va dasturlash bo'yicha fundamental bilimlar o'qitilgan mutaxassis uchun mavjud bo'lgan professional vazifadir. O'quv jarayonini

axborotlashtirishda etakchi shaxsning axborot madaniyatini shakllantirish - bilimlarni taqdim etishning asosiy usullari bo'yicha ko'nikmalar va bilimlar, ularni mazmunli muammolarni hal qilish va shakllantirish uchun amalda qo'llash qobiliyatlari. Axborot madaniyati deganda talaba, o'qituvchining ma'lumotlarga bo'lgan ehtiyojlarini mutanosib ravishda aniqlash, axborot resurslarining butun to'plamida kerakli ma'lumotlarni samarali qidirish, ma'lumotlarni etarli darajada tanlash va baholash qobiliyati, shuningdek axborot bilan aloqa qilish qobiliyati, kompyuter savodxonligi tushuniladi. Axborot madaniyati, shuningdek, zamonaviy axborot jamiyati talablariga javob beradigan maxsus fikrlash uslubidir, shuning uchun ta'limni axborotlashtirishning yangi sharoitlarida harakat qilish va ishlashga qodir bo'lgan professional o'qituvchini tayyorlash juda muhimdir. Yuqoridagilar pedagogika, psixologiya va kompyuter fanlari chorrahasida "kompyuter ta'limi"deb nomlanuvchi tadqiqot yo'nalishini tanlashga e'tibor qaratdi.

Kompyuter o'qitishning quyidagi asosiy turlari farqlanadi: retseptiv - texnik o'quv vositasi sifatida kompyuterning audiovizual imkoniyatlaridan foydalangan holda uzatiladigan bilimlarni idrok etish va o'zlashtirish; interaktiv - inson va kompyuterning o'zaro ta'siri jarayonida dialog rejimida, shuningdek gibrid inson-mashina antropotsentrik intellekt tizimlarida, ekspert o'quv tizimlarida va boshqalarda o'rganish.

Kompyuter ta'limi haqida ba'zi fikrlarni ko'rib chiqing. Mashhur amerikalik psixolog B. Skinner (1950-yillarning o'rtalari) "dasturlashtirilgan ta'lim" atamasini taklif qildi, uning asosiy g'oyasi o'quv jarayonini oldindan dasturlash edi. Va bu uning g'oyasi o'qituvchilar tomonidan, iloji bo'lsa, psixologlar bilan birgalikda, keyinchalik kompyuterda amalga oshiriladigan ma'lum bir mavzuni o'rganish bosqichlari ketma-ketligini oldindan ishlab chiqishni o'z ichiga olgan dasturlashtirilgan o'quv tizimlarini yaratishga asos bo'ldi. Aqliy harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirishning psixologik nazariyasida dasturlashtirilgan ta'limning afzalliklarini eng to'liq va nazariy jihatdan asosladi. Ushbu nazariyaga ko'ra, aqliy harakatlarni shakllantirish jarayoni 5 bosqichdan o'tadi: harakat bilan oldindan tanishish, uni amalga oshirish shartlari bilan, unga kiritilgan barcha operatsiyalarni joylashtirish bilan harakatni moddiy shaklda shakllantirish, tashqi nutqda harakatni shakllantirish, ichki nutqda harakatni shakllantirish, harakatni chuqur katlanmış fikrlash jarayonlariga o'tkazish.

Raqamli tizimlashtirish-bu o'quv tizimlarining yangi avlodi-aqlli o'quv tizimlari. Bunday tizimlarning paydo bo'lishi avtomatlashtirilgan o'qitish sohasida sun'iy intellekt usullari va vositalarini amaliy qo'llash natijasi bo'ldi. Ushbu yo'nalishdagi birinchi tadqiqotlar va aqlli o'quv tizimlarini yaratishga birinchi urinishlar XIX asrning 70-yillari boshlariga to'g'ri keladi, bu an'anaviy dasturlashtirilgan ta'lim texnologiyasida o'quv tizimlaridan norozilik tufayli yuzaga kelgan. Bugungi kunda kompyuter fanining ikki sohasi: sun'iy intellekt va raqamli tizimlashtirish o'qitish chorrahasida ajralib turadigan butun ilmiy yo'nalish mavjud.

Tegishli o'quv jarayoni uchun o'qituvchi o'quv mavzusi nimani o'rgatish kerak), o'qitish strategiyalari va usullari qanday o'qitish kerak bo'yicha maxsus bilimlarni qo'llashi va uning yutuqlarini aniqlay olishi kerak.

An'anaviy tizimlashtirilgan o'quv jaroyanida o'quv kursining ma'lum bir qismini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ushbu bilimlarning qismlari uning individual kadrlari matniga kiritilgan. Intellektual o'quv tizimlarida zarur bilimlar, qoida tariqasida, sun'iy intellektning turli usullari va texnologiyalari yordamida ajratiladi va taqdim etiladi. Intellektual o'quv tizimi olingan bilimlarni qo'llagan holda, o'qituvchining turli funktsiyalarini bajarishga qodir: muammolarni hal qilish jarayonida o'quvchiga yordam berish, talabadagi xatolarni aniqlash, optimal o'quv ta'sirini tanlash. Aqlli o'quv tizimlari kompyuterni o'rganish uchun yangi imkoniyatlarni ochdi. Biroq, bunday tizimlarni yaratish umuman sun'iy intellekt muammolari bilan bog'liq ko'plab qiyinchiliklarga duch keladi, ya'ni: bilimlarni olish va tuzish, bitta tizimni yaratish uchun katta mehnat talab etadi.

Raqamli texnologiyalar yordamida vaziyatlarni yaratish o’quvchiga o'z bilimlaridan maksimal darajada foydalanishga, intellektual va multimedia muhitini o'z ichiga olgan bilim jarayonining stimulyatorlaridan foydalanishga imkon beradi (kompyuter va talaba o'rtasidagi aloqa bir vaqtning o'zida ko'plab usullardan - rasm, musiqa, nutq va boshqalardan foydalanadi), giper vositalar (gipermedia) (matnli ma'lumotlarni taqdim etishning chiziqli bo'lmagan usuli, masalan, qoida ko'p vositadan faol foydalanishga asoslangan). Kompyuter o'yinlari (mikromires) - bu virtual voqelik deb ataladigan narsa bo'lib, u sifat jihatidan yangi turdagi inson-mashina interfeysi sifatida tushuniladi, Real muhitni modellashtiradi va ishtirokchilarga u bilan bevosita aloqada bo'lish imkonini beradi [155]. Umumiy rivojlanish kompyuter o'yinlari sizga boshlang'ich vaziyatlar yoki mavzular haqida umumiy tasavvurga ega bo'lishga, xotirani, e'tiborni, mantiqni, fikrlashning eng muhim operatsiyalarini rivojlantirishga imkon beradi, bu erda o'yin motivatsiyasi asta-sekin o'quv motivatsiyasiga aylanadi. Umumiy rivojlanayotgan kompyuter o'yinlaridan tashqari, maktab o'quvchilariga matematika, til, mantiq va boshqalarni o'rgatish uchun maxsus o'yinlar mavjud bo'lib, ular ushbu fanlarning mazmunini vizual tarzda aniqlaydi va o'quv materialini osonroq va tezroq o'zlashtirishga imkon beradi. Kompyuterni o'qitish jarayoni ehtiyotkorlik bilan tanlangan didaktik materialsiz mumkin emas, ammo o'qituvchining yo'naltiruvchi ta'sirisiz o'quv materialini o'zlashtirish, ko'nikmalarni shakllantirish va fikrlashni rivojlantirishda samarasiz.

Ratsional o'quv jarayonida o'qituvchi maxsus bilimlarning quyidagi turlaridan foydalanadi-o'quv predmeti to'g'risidagi bilimlar; o'qitish strategiyasi va usullari to'g'risidagi bilimlar; o’quvchi haqidagi bilimlar. An'anaviy raqamlashtirilgan o'quv tizimlarida o'quv jarayoninig ma'lum bir qismini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bunday bilimlarning qismlari uning individual kadrlari matniga aniq kiritilgan. Intellektual o'quv tizimlarida zarur bilimlar aniq ajratilgan va odatda sun'iy

intellektning turli usullari va texnologiyalari orqali taqdim etiladi. Ushbu bilimlardan foydalangan holda, intellektual o'quv tizimi o'qituvchining turli funktsiyalarini bajarishga qodir muammolarni hal qilish jarayonida yordam berish, o'quvchining xatolarining sababini aniqlash, optimal o'quv ta'sirini tanlash. Aqlli o'quv tizimlari kompyuterni o'qitishning yangi imkoniyatlarini ochdi, ammo bunday tizimlarni yaratish juda qiyin, bu umuman sun'iy intellekt muammolari bilan bog'liq ko'plab qiyinchiliklar bilan bog'liq, ya'ni: bilimlarni olish va tuzish, bitta tizimni yaratish uchun katta mehnat. Ma'lumki, tadqiqotlardagi qiyinchiliklar bilan yangi g'oyalar va paradigmalar paydo bo'ladi, ularning rivojlanishi yanada rivojlanishga yordam beradi, intellektual o'quv tizimlarini yaratish sohasida o'zgarishlar yuz berdi.

So'nggi yillarda intellektual o'quv muhitida o'qitish vazifalari intellektual ta'lim tizimlari va bilim stimulyatorlarini birlashtirdi. Shu bilan birga, o'quv jarayonida o'quvchilarning intuitiv, ijodiy va intellektual salohiyatiga alohida ahamiyat beriladi. Kompyuterlardan foydalangan holda o'qitish sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan so'nggi urinishlardan biri bu kooperativ yoki kooperativ o'qitish deb ataladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Якубов, Фазлиддин Утаганович, and Мая Эм. "Роль интерактивных методов и Интернета в учебном процессе при изучении иностранных языков." *Учёный XXI века* 4-1 (17) (2016): 26-28.

2..A.M. Dushabayev.Ta'limda eaqamli texnologiyalardan foydalanish" 374-379 betlar. Ta'limda iqtisodiyot menejment va raqamli innovatsiyalar,zamonaviy tendetsiyalar va yondashuvlar Xalqora konferansiya.

3.. Mirziyoev Sh.M. Maktab ta'limini rivojlantirish umumxalq harakatiga aylanishi zarur // 2019 yil 23 avgustda o'tkazilgan video-selektordagi nutqi, - O'zbekiston milliy axborot agentligi sayti.

4.. A.M. Dushabayev. "The importances of digital technologies in managing the quality of education in public schools" O'zbekistonda Fanlararo innavotsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. 438-443 betlar

5.. Muxamedov G'.I., Xo'jamqulov U.N. Pedagogik ta'lim innovasion klasteri: ta'rif, tavsif, tasnif (ilmiy risola).// -T.: "O'zMU". 2019. -27 -36 b;

6A. . Dushabayev, Abdulla Musayevich. "Linguistic advice on teaching English as a foreign language using the blended learning system." *Science and Education* 3.3 (2022): 435-441.

7 – TOM 12 – SON / 2024 - YIL / 15 – DEKABR

BOLALAR NUTQINI O‘STIRISHDA TARBIYACHINING ROLI

Tursunova Feruza Sa'dullayeva
Farg‘ona viloyati pedagogik mahorat markazi
Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim
metodikalari kafedrasi o‘qituvchisi

Bolalar nutqida tovush madaniyatini tarkib toptirishning birdan-bir muhim vositasi eshitish nutqini rivojlantirishdir. Eshitish nutqining rivojlanishi bilan bola nutqni, ayniqsa, so‘zning tovush tuzilishini tez va to‘g’ri o‘zlashtirib oladi. So‘zning tovush tarkibini to‘g’ri idrok qilish uni to‘g’ri eslab qolishning muhim shartidir.

Eshitish nutqi bolada juda erta rivojlanadi. 2—3 haftalik bolada nutqqa, ovozga nisbatan ba’zi bir terma reaktsiya boshlanadi; 5—6 oylarda u intonatsiyaga, keyinchalik nutqning ritmiga e’tibor beradi. 2 yoshga yetganda ona tilidagi hamma tovushlarni eshitadi va uni bir-biridan ajrata oladi. 2 yashar bolada eshitish nutqi tarkib topgan deb hisoblash mumkin, chunki u ona tilidagi hamma tovushlarni ajratadi, eshitish nutqining bunday darajada bo‘lishi nutq orqali amaliy aloqa qilish uchun yetarlidir, lekin o‘qish va yozishni o‘rganish uchun yetarli emas. O‘qish va yozishni egallash uchun bolada yangi, yuqori darajadagi eshitish nutqi rivojlangan bo‘lishi kerak, tovushlarni analiz qilish yoki fonematik idrok qilish, so‘zda qaysi tovush eshitilganligini va miqdorini aniqlash qobiliyati o‘sishi lozim.

Hamma yosh guruhlarida eshitish nutqini tarkib toptirish ishi olib boriladi. Eshitish diqqatini rivojlantirishda didaktik o‘yinlar katta rol o‘ynaydi. Kichik guruhlarda eshitish nutqini tarkib toptirish mashg’ulotlarida musiqa asboblari, ovoz chiqaradigan o‘yinchoqlardan foydalaniladi. Ular vositasida bolalar ovozning kuchi va xarakterini ajratishni o‘rganadilar. Masalan, «Qaerda chalindi?» degan o‘yinda bir bola ko‘zini yumib, qay tomondan qo‘ng’iroqning ovozi kelayotganini qo‘li bilan ko‘rsatishi kerak. Agar bola to‘g’ri topsa, tarbiyachi «To‘g’ri!» degandan keyin ko‘zini ochadi. Qo‘ng’iroqni chalgan bola qo‘lini ko‘tarib, qo‘ng’iroqni ko‘rsatadi. Agar yanglishsa, topish uchun unga yaia bir marta imkon beradi, so‘ng boshqa bola o‘yinga chiqariladi, «Top-chi, nimani chaldilar» o‘yini ham keng tarqalgan o‘yinlardan biridir.

Katta guruhlarda eshitish idrokini o‘stirish faqat shunga o‘xshash o‘yinlardangina emas, balki radio, disklarni eshittirish usulidan ham foydalaniladi. «Bir minut tinchlik» o‘yinini tez-tez tajriba qilib ko‘rish, uni «Kim ko‘p eshitadi», «Xonada nima haqida gaplashayotirlar» degan mashqlar bilan almashtirib turish lozim. Bu mashqlar davomida alo-hida bolalarga eshitgan narsalarini talaffuz etishni taklif qilish mumkin. (jo‘mrakdan suv tomchilayapti, ko‘chadan mashina shovqini eshitildi, chumchuq chirqillayapti va boshqalar).

Nutq va so‘zdagi tovushlarni idrok qilish va yaxshi tushunish uchun eshitish nutqini rivojlantiruvchi o‘yinlar, masalan: «Men nima dedim, top» dndaktik o‘yini o‘tkaziladi.

Tarbiyachi bolalardan bir necha metr narida turadi, keyin bolalar eshitib, topishlari uchun lozim bo‘lgan so‘z yoki jumlani avval sekin, keyin shivirlab talaffuz etadi. Bolalarga o‘yin qoidasi tushuntiriladi: «Men bir so‘zni sekin aytaman, siz diqqat bilan eshiting va nima aytganimni toping. Men kimni chaqirsam, shu bola nima eshitganini aniq va baland ovoz bilan aytib beradi».

Kichik guruhda bu o‘yin dastlab ko‘rsatma materiallar bilan o‘tkaziladi. Tarbiyachi bolalar oldida turgan o‘yinchoqning nomini sekin aytadi va bolalarga qiyin bo‘lmagan topshiriq beradi («Dilbar, qo‘g‘irchoqni karavotga yotqiz», «Botirjon, bayroqchani vazaga qo‘y»). Tarbiyachi bu topshiriqlarni bolalarga qarab turib beradi, bu esa bolalarni aytilgan so‘zlarning artikulyatsiyasini ko‘rib, tez topishlariga yordam beradi. Bir necha takrorlanishdan so‘ng o‘yin topshirig‘i murakkablashtiriladi. Tarbiyachi so‘zni bolalarning orqasida turib talaffuz etadi, topshiriq bir marta aytiladi. 4—6 bola chiqib nima eshitganliklarini aytadi, so‘ng kim to‘g‘ri topganligi aniqlanadi. Katta guruhlarda bu o‘yin variantlari ancha murakkablashtirib o‘tkaziladi. Tarbiyachi bolalarga eshitilishi jihatidan bir-biriga yaqin bo‘lgan so‘zni topishlarini taklif qiladi. (Masalan, ko‘k-ko‘p, yil-yo‘l, suv-sut, tis-tiz, tuz-tus). «Men nima dedim, top» o‘yini 3—7 minut davom etadi.

Ovoz sur’atini farq qilish uchun turli variantlardagi o‘yinlardan foydalaniladi. Masalan: «Top-chi, kim chaqirdi?» degan o‘yinda kichkintoylar o‘rtoqlarini ovozlaridan topadilar. Katta bolalarga qanday chaqirganligini (sekin, qattiq, tez, muloyim) aniqlash topshirig‘i beriladi.

Tarbiyachi o‘yinda qo‘llaniladigan so‘zlarni oldindan tanlashi lozim. Tanlangan so‘zlarning mazmuni bolalarga tanish bo‘lishi, birinchi navbatda tanlangan so‘zlar tovush tarkibi jihatidan qiyin bo‘lmasligi, so‘ng ovoz chiqarish (eshitilish) jihatidan oson, lekin mazmuni har xil bo‘lishi lozim. (masalan, suv-sut, tiz-tuz).

Nafas olish tovush chiqarish va nutq bilan mahkam bog’langan. Nafas olish 2 xil bo‘ladi. Nutqsiz va nutqli. Nutqsiz nafas o‘z-o‘zidan chiqadi, bola nafas oladn va chiqaradi. Maktabgacha yoshidagi bolalarda nutqli nafas olish o‘ziga xos xususiyatlarga egadir. Bu hususiyatlar avvalo o‘pkaning kichikligi va nafas muskulla-rining bo‘shligiga bog’liqdir, bolalar nafasi chuqur emas, shuning uchun ular tez, keskin, ko‘p vaqt shovqinli nafas olib chiqaradilar, yelkalari keskin ko‘tariladi, ularda har bir so‘z oldidan, o‘rtasida nafas olish, nafas olaturib so‘zlash kabi hollar uchraydi.

Nutqi tezlashgan bola entikadi, so‘zning, jumlaning oxirini yamlab yuboradi. Muskullarning zaifligidan ko‘pchilik bolalarda gavdaning holati noto‘g’ri: bosh

pastta egilgan, kiftlar oldinga chiqqan ko‘krak ichiga kirib ketgan bo‘ladi. Tarbiyachining vazifasi bolani nutq jarayonida to‘g’ri nafas olishga o‘rgatish va nutq davomida nafas olishda uchraydigan nuqsonlarni yo‘qotib borishdir. Nutqsiz va nutqda nafas olish bir-biridan farq qiladi. Nutqsiz nafas olishda nafas olish bilan chiqarish vaqti barobar, tartibli navbatlashib turadi, nafas burun orqali olinadi. Nutqda nafas olganda nafas olish vaqt jihatidan tez, nafas chiqarish nafas olishga qaraganda birmuncha uzun bo‘ladi. Nafas ham og’iz, ham burun orqali olinadi. Nutqda nafas olishning eng yaxshi turi diafragmali, quyi qovurg’a yordamida nafas olishdir (nafas olganda diafragma pastga tushadi va pastki qovurg’a ikki tomonga kengayadi, shuning uchun kiftlar ko‘tarilmaydi).

Bolada avvalo tinch, shovqinsiz, kiftni ko‘tarmay nafas olishni rivojlantirish lozim. Nutq vaqtida uzoq nafas chiqarish bolaning yoshiga mos bo‘lishi kerak. Kichik guruhda bola nafas chiqarish vaqtida 2-3 so‘zlik jumlani, o‘rta va katta gruppa bolasi 3-5 so‘zlik jumlani talaffuz etishi lozim.

Bolalarni shoshmasdan so‘zlashga, har bir jumlani so‘zlab yoki har bir she’r misrasini o‘qib bo‘lgandan so‘ng pauza qilishga odatlantirish kerak. Nutqda nafas olishni rivojlantirish uchun bola yoshiga mos nafas oladigan o‘yin va mashqlardan foydalanish zarur. Kichik guruhda bolalarga juda yoqadigan sovun ko‘pigini uchirish, par, yupqa rangli qog’ozlarni puflab uchirish o‘yinlari o‘tkaziladi. Bunday o‘yinlarni o‘tkazgan vaqtda bolalarni nafas olganda yelka qismlarini ko‘tarib yubormasliklariga e’tibor berish lozim. Bunday nafas oladigan o‘yinlarni uch minutdan ortiq o‘tkazmaslik va o‘yin vaqtida dam berib borishga e’tibor berish kerak. Katta guruhlarda qo‘llarni ohista yuqoriga—elka barobarligida ko‘tarish— nafas olish, sekin-asta qo‘llarni pastga tushirib, s-s-s deb nafas chiqarish mashqlari o‘tkaziladi. Bolalar s-s-s-s tovushini to tarbiyachi to‘xtatgunga qadar cho‘zib aytadilar.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, bolalar adabiy til talaffuzini to‘g’ri o‘zlashtirishlari va uni takomillashtirishlari uchun tarbiyachi juda ko‘p kuch sarflashi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Sabirdinov, A. (2019). Sketches to the novel “Night and day” by Chulpan. Scientific journal of the Fergana State University, 1(6), 119-120.

2. Sabirdinov, A. G. (2021). Interpretation of Characters in Utkir Hoshimov’s Story “Yanga”. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 8(6), 196-200.

3. Sabirdinov, A. (2020, December). ASKAR KASIMOV IN THE UZBEK POETRY OF THE XX CENTURY THE ROLE AND IMPORTANCE OF CREATION. In Конференции.

4. Sabirdinov, A. G. (2021). Interpretation of the banned period in the stories of Naim Karimov. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(11), 4-91.

5. Сабирдинов, А. Г. (1993). Слово и образ в поэзии Айбека.

6. Oripova, G. (2019). UZBEK POETRY AND THE WORLD LITERATURE IN THE YEARS OF INDEPENDENCE. Scientific Journal of Polonia University, 32(1), 116-120.

7. Oripova Gulnoza Murodilovna. (2019). THE PECULIARITIES OF VAZN METER IN UZBEK POETRY OF THE INDEPENDENCE PERIOD. International Journal of Anglisticum. Literature, Linguisitcs and Interdisciplinary Studies. Volume: 8 /Issue:2/. – Macedonia, 2019. –P.33-39.

8. Murodilovna, O. G. (2020). Melody and musicality in Lirycs. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 10(11), 656-664.

9. Oripova G. M., Tolibova M. T. Q. Composition Of Modern Uzbek Stories //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – T. 3. – №. 03. – С. 245-249.

10. Oripova, G. (2020, December). RHYTHM AND MYTHING IN LYRICAL GENRE. In Конференции.

11. Oripova, G. (2019) "Traditions of folk ballads and distinctiveness of uzbek poetry of independence period," Scientific journal of the Fergana State University: Vol. 2 , Article 12.

12. Oripova, G. M. (2021). Genesis And Essence Of Genre Concept. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(12), 90-94.

13. Oripova, Gulnoza, & Ibrohimova, Gulchiroy (2022). SIROJIDDIN SAYYID IJODIDA MUMTOZ MUSHTARAKLIKLAR. International scientific journal of Biruni, 1 (2), 251-255.

14. Oripova, Gulnoza Murodilovna, Akhmadjonova, Okila Abdumalikovna, Kholmatov, Oybek Umarjon Ugli, & Muminova, Tabassum Siddigovna (2022). INTERPRETATION OF MOTHER IMAGE IN LITERATURE. International scientific journal of Biruni, 1 (2), 304-309.

15. Oripova, Gulnoza, & Alijanova, Maftuna Azimjon Qizi (2022). ASQAD MUXTORNING “CHINOR” ROMANIDA AYOL PORTRETINING BADIIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI. International scientific journal of Biruni, 1 (2), 221-226.

16. Oripova, Gulnoza Murodilovna, & Abdurasulova, Nafisa Abdumannob Qizi (2022). O‘ZBEK NASRIDA URUSH MAVZUSI VA “YO‘QOTILGAN AVLOD” MUAMMOSI. International scientific journal of Biruni, 1 (2), 213-220.

7 – TOM 12 – SON / 2024 - YIL / 15 – DEKABR

SAMARQAND VILOYATINING IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI TAHLILI

Abduxamid Bektemirov
Samarqand davlat universiteti dotsenti,
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori
Komila Erkinova
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi

Annostatsiya: *Mazkur maqolada Samarqand viloyatidagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, hududiy rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan va rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari bo'yicha takliflar bildirilgan.*

Kalit so'zlar: *iqtisodiyot, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, hududiy iqtisodiyot, tendensiyalar, iqtisodiy ko'rsatkichlar, investitsiya, demografiya, tashqi iqtisodiy aloqa, xizmatlar, sanoat, mehnat bozori*

Mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida har bir hududning o'z o'rni va ahamiyati bor. Ushbu hududlar ichida Samarqand viloyati o'zining geografik joylashuvi, iqlimi, turli millat va elatlardan iborat bo'lgan ko'p millionlik aholisi, boy tarixi va an'analari bilan ajralib turadi. So'ngi yillarda viloyatda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlar natijasida hududiy iqtisodiyot barqaror rivojlanib bormoqda. Buni hududiy statistika hisobotlaridan ham ko'rib o'tishimiz mumkin. Jumladan, 2010–2023 yillar oralig'ida Samarqand viloyati yalpi hududiy mahsuloti (YaHM) qarib 13 barobarga o'sib, 6 585,8 mlrd so'mdan 84 093,8 mlrd so'mga yetdi. Joriy 2024-yil (yanvar-sentabr) oid dastlabki statistik ma'lumotlarga ko'ra YaHM hajmi 72 542,0 mlrd so'mni yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 106,5 % o'sish kursatkichiga ega bo'lgan (1-jadval).

Umuman olganda viloyatning bu kabi ijtimoiy-iqtisodiy tendentsiyalarini tahlil qilish yanada rivojlanish uchun istiqbolli yo'nalishlar va strategik vazifalarni aniqlash hamda mavjud resurslar va imkoniyatlardan yanada samarali foydalanish bo'yicha chora-tadbirlarini belgilashga xizmat qiladi.

1-jadval.
2010 – 2024 yillarda Samarqand viloyatining yalpi hududiy mahsuloti hajmi va uning o'sish dinamikasi[29]

Yillar	mlrd. so'm	o'sish sur'ati, %da
2010-y.	6 585,8	110,7
2011-y.	8 218,5	109,9

[29] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi Samarqand viloyati boshqarmasi ma'lumotlari. https://samstat.uz/uz/rasmiy-statistika/macro-indicators-2

2012-y.	9 954,5	108,8
2013-y.	12 383,0	108,0
2014-y.	15 477,0	108,3
2015-y.	18 513,7	108,4
2016-y.	23 083,3	107,4
2017-y.	29 852,1	101,5
2018-y.	36 320,9	101,9
2019-y.	43 558,9	106,8
2020-y.	47 576,0	100,8
2021-y.	59 260,4	110,3
2022-y.	68 988,6	106,4
2023-y.	84 093,8	106,6
2024-yil (yanvar-sentabr)	72 542,0	106,5

Samarqand viloyatining makroiqtisodiy ko‘rsatkichlariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, 2024-yilning yanvar-sentabr oylariga oid dastlabki hisob-kitoblariga ko‘ra viloyatning qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining hajmi 41.824,9 mlrd. so‘mni, xizmatlar hajmi 39 780,3 mlrd. so‘mni, sanoat mahsulotlari hajmi 32 109,3 mlrd. so‘mni, chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 23 271,1 mlrd. so‘mni, asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 21 128,4 mlrd. so‘mni, qurilish ishlari hajmi 9 673,7 mlrd. so‘mni hamda tashqi savdo aylanmasi hajmi 2 188,7 mln. AQSh dollari, shundan, eksport hajmi 598,5 mln. AQSh dollari, import hajmi esa 1 590,1 mln. AQSh dollarini tashkil etgangan. (2-jadval). Ushbu ma’lumotlardan ko‘rishimiz mumkinmi qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi, xizmatlar va sanoat mahsulotlari hajmi sezilarli darajada oshib bormoqda.

2-jadval.
Samarqand viloyati hududiy tarmoqlar hajmi va o‘sish ko‘rsatkichlari[30]

T/r	Tarmoq nomi	O‘lchov birligi	2024-yil var-sentabr*
1	Sanoat mahsuloti	mlrd. so‘m	32 109,3
		o‘sish sur’ati,	107,8
2	Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	mlrd. so‘m	41 824,9
		o‘sish sur’ati,	103,7

[30] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi Samarqand viloyati boshqarmasi ma’lumotlari. https://samstat.uz/uz/rasmiy-statistika/macro-indicators-2

3	Asosiy kapitalga investitsiyalar	mlrd. so‘m	21 128,4
		o‘sish sur’ati,	101,3
4	Qurilish ishlari	mlrd. so‘m	9 673,7
		o‘sish sur’ati,	110,3
5	Chakana savdo tovar aylanmasi	mlrd. so‘m	23 271,1
		o‘sish sur’ati,	108,5
6	Xizmatlar, jami	mlrd. so‘m	39 780,3
		o‘sish sur’ati,	112,6
7	Tashqi savdo aylanmasi	mln. AQSh.	2 188,7
		o‘sish sur’ati,	110,4
8	Eksport	mln. AQSh.	598,5
		o‘sish sur’ati,	123,4
9	Import	mln. AQSh.	1 590,1
		o‘sish sur’ati,	106,3

Taxlillarimiz natijasida aytishimiz mumkinki, Samarqand viloyatida eng muhim va yanada rivojlantirish istiqboli mavjud bo‘lgan tarmoqlar quyidagilardir.

- Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, konservalar, sharbatlar, quritilgan mevalar, o‘simlik yog‘i, un, non mahsulotlari ishlab chiqarish;
- To‘qimachilik sanoati hamda oziq-ovqat va ichimliklar ishlab chiqarish;
- Turizm va mehmonxona xizmatlari, umumiy ovqatlanish, madaniy-ko‘ngilochar, savdo, transport va tibbiy xizmatlar;

Bugungi kunda viloyatda yuqoridagi tarmoqlarda katta tajribaga ega xo‘jalik subyektlari mavjud. Lekin, bu tarmoqlarda hali to‘liq imkoniyatlardan foydalanilayotganligi yo‘q. Shu jihatdan, ushbu tarmoqlarni yanada jadal rivojlantirishda innovatsion yechimlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Negaki, davlatning iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, qulay investitsiya muhiti yaratish va aholi turmush darajasini oshirishga qaratilgan maqsadli siyosati viloyatni rivojlantirishning asosidir. Shuni ham aytish lozimki, viloyat muhim mehnat salohiyatiga ega, bu iqtisodiyotning turli tarmoqlarini rivojlantirish uchun muhim omil hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda sanoat va xizmat ko‘rsatish sohalarini rivojlantirishda transport, energetika, kommunikatsiya infratuzilmasini yanada yaxshilash,

viloyatning investitsion jozibadorligini oshirish va jahon hamjamiyatiga targ‘ib qilish, viloyatning shahar va tumanlaridagi e’tibordan chetda qolgan, yoki turistik marshrutlarga kiritilmagan tarixiy obyektlarni yangi turistik manzillar sifatida ro‘yxatga kiritish, qayta ishlash sanoatini yo‘lga qo‘yish va bunda ushbu yo‘nalishdagi korxonalarga imtiyozlar berish kabi ishlarni amalga oshirish hududning taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi.

7 – TOM 12 – SON / 2024 - YIL / 15 – DEKABR

BRIDGING THE GAP: COLLABORATIVE APPROACHES FOR ENGLISH TEACHERS AND LEARNERS

Abdullayeva Charos Farxodovna
The teacher of Gulistan State of Pedagogical Institute
abdullayevacharos710@gmail.com
Jabborova Mahliyo Abduhalil qizi
The student of Gulistan State Pedagogical Institute
mjaborova2004@gmail.com
Sindarova Hulkar Dusbek qizi
The student of Gulistan State Pedagogical Institute
sindarovahulkar@gmail.com

Annotation: *This article highlights the power of collaboration in English language education. It explores various strategies like group work, project-based learning, and technology-enhanced collaboration to enhance student engagement and learning. By fostering collaboration, teachers can create a dynamic and supportive learning environment. The article also addresses potential challenges and offers practical solutions to ensure the success of collaborative approaches.*

Keywords: *collaborative learning, group work, pair work, project-based learning, teacher-learner collaboration, motivation, critical thinking, cultural awareness.*

Introduction:

The landscape of English language teaching and learning has undergone a significant transformation in recent years. With the increasing globalization and the digital revolution, the demand for effective English language education has surged. However, the traditional teacher-centered approach often falls short in meeting the diverse needs and learning styles of today's learners . To address this challenge, a collaborative approach that fosters active engagement, critical thinking, and authentic communication has emerged as a promising solution

Materials and Methods:

The Importance of Collaboration in English Language Learning

Collaboration, the act of working together to achieve a common goal, is a powerful tool that can significantly enhance the English language learning experience. When teachers and learners collaborate, they create a dynamic and supportive learning environment where everyone's voice is valued. This collaborative approach offers numerous benefits, including:

* Enhanced Motivation: Collaborative activities can boost learners' motivation by making the learning process more engaging and enjoyable. When learners work together,

they feel a sense of ownership and responsibility, which can lead to increased effort and persistence.

* Improved Critical Thinking Skills: Collaborative tasks often require learners to analyze information, evaluate different perspectives, and synthesize ideas. This process helps develop their critical thinking skills, enabling them to think independently and solve problems effectively.

* Deeper Language Learning: Collaborative activities provide opportunities for learners to practice their language skills in authentic contexts. By interacting with their peers, they can gain exposure to different accents, vocabulary, and grammar structures, leading to a deeper understanding of the language.

* Increased Cultural Awareness: Collaborative projects can foster intercultural understanding and appreciation. When learners from diverse backgrounds work together, they can learn about each other's cultures, beliefs, and values. This can help break down stereotypes and promote empathy.

* Stronger Teacher-Learner Relationships: Collaboration can strengthen the bond between teachers and learners. By working together on projects and activities, teachers can gain a better understanding of their students' needs, strengths, and weaknesses. This personalized approach can lead to more effective instruction and support.

Results and Discussions:

Collaborative Approaches in the English Language Classroom

To implement a collaborative approach, English language teachers can incorporate a variety of strategies into their classrooms:

1. Group Work and Pair Work

* Benefits: Group and pair work encourage peer-to-peer interaction, allowing learners to support each other, share ideas, and provide feedback.

* Strategies:

* Think-Pair-Share: Learners think individually about a question or topic, discuss their ideas with a partner, and then share their thoughts with the whole class.

* Jigsaw Activities: Learners are divided into groups to become experts on specific topics. They then regroup with members from other groups to share their knowledge.

* Role-Play: Learners take on different roles and act out scenarios, practicing their speaking and listening skills.

2. Project-Based Learning

* Benefits: Project-based learning allows learners to apply their language skills to real-world tasks. It promotes creativity, problem-solving, and collaboration.

* Strategies:

* Collaborative Writing: Learners work together to write stories, essays, or reports.

* Multimedia Presentations: Learners create presentations using tools like PowerPoint or Prezi to showcase their research findings or creative projects.

* Community Service Projects: Learners collaborate on projects that benefit their community, such as organizing charity events or volunteering at local organizations.

3. Technology-Enhanced Collaboration

* Benefits: Technology can facilitate collaboration by providing tools for communication, sharing, and feedback.

* Strategies:

* Online Discussion Forums: Learners can engage in discussions with their peers and teachers on online platforms.

* Video Conferencing: Learners can connect with other learners around the world for virtual language exchanges and collaborative projects .

* Language Learning Apps: Collaborative language learning apps can provide opportunities for learners to practice their language skills with native speakers and other learners.

4. Teacher-Learner Collaboration

* Benefits: Teacher-learner collaboration can create a more student-centered learning environment, empowering learners to take ownership of their learning.

* Strategies:

* Co-Teaching: Teachers and learners work together to plan and deliver lessons.

* Peer Tutoring: More advanced learners can tutor their peers, providing support and guidance.

* Student-Led Discussions: Learners can lead class discussions, sharing their insights and perspectives.

Overcoming Challenges in Collaborative Learning

While collaboration offers many benefits, it is important to address potential challenges to ensure its success:

* Language Barriers: If learners have varying levels of language proficiency, teachers can provide support through scaffolding and differentiated instruction.

* Group Dynamics: To promote effective collaboration, teachers should establish clear guidelines and expectations for group work.

* Assessment: Assessing collaborative work can be challenging, but teachers can use a variety of methods, such as peer assessment, self-assessment, and teacher observation.

Conclusion:

By embracing collaborative approaches, English language teachers can create engaging and effective learning experiences for their students. By working together, teachers and learners can bridge the gap between theory and practice, fostering a deeper understanding of the language and culture. As technology continues to evolve, new

opportunities for collaboration will emerge, making it even more important for educators to adopt innovative approaches to language teaching and learning.

REFERENCE:

* British Council: https://learnenglish.britishcouncil.org/
* TES (Times Educational Supplement): https://www.tes.com/en-gb
* English Language Teaching Professional (ELTP): https://finance.yahoo.com/quote/ELTP/
* TESOL Quarterly: https://onlinelibrary.wiley.com/journal/15457249
* ELT Journal: https://academic.oup.com/eltj
* English Language Teaching: https://academic.oup.com/eltj
* Edutopia: https://www.edutopia.org/
* Schoology: https://app.schoology.com/login
* Google Classroom: https://classroom.google.com/u/0/
*"Collaborative Learning: A Sourcebook for Higher Education" by Richard M. Felder and Rebecca Brent.
* "Collaborative Language Learning and Teaching" by David Nuna

7 – TOM 12 – SON / 2024 - YIL / 15 – DEKABR

STRUCTURE OF HIGH VOLTAGE ELECTRICAL NETWORKS

Rajabov Muzaffar Najimovich
teacher
Panjiyev Asilbek Bekmurod o'g'li
student
Karshi Engineering and Economic Institute

Abstract. This article contains information about the structure of low-voltage networks, connection scheme, daily load graph, and specific characteristics.

Key words: distribution networks, low voltage, transformer, load graph, single-phase consumers.

Low-voltage power networks are divided into distribution and supply power networks. The distribution part is 6-10 kV power transmission networks connected to power transformers in step-down substations. 35-110/6-10 kV substations and distribution networks serve as the power source of low-voltage networks. The 6-10 kV distribution network consists of three-wire conductors with a length from hundreds of meters to tens of kilometers, insulated from the ground. They are supplied from 110-35/10-6 kV substations. These networks provide 6-10/0.4 kV transformer points [1, 2].

One or two transformers with a capacity of 25-1000 kVA depending on the power supply reliability category are used at the transformer points. The high and low voltage sides have a connection group of "star-to-star-zero" (Y/Y-0) and "delta-to-star-zero" (D/Y-0).



Figure 1.1. Options for building low-voltage power networks:
a) highway; b) radial; c) mixed

Networks with a voltage of 0.4 kV are directly connected to the neutral ground and are carried out with SIP, open cable conductors on reinforced concrete, concrete, wooden supports according to the main, radial or mixed scheme. is increased (Fig. 1.1). It can have four or five wires, where there are three phases, one neutral and a wire for street lights. The neutral wire is connected to the ground after 200-300 meters in the sections of the electric network. The cross-sectional area of the neutral wire in low-voltage electrical networks should be greater than that of the phase wires.

